

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

O.R.ORTIQOV

**TALABALARDA
MAFKURAVIY IMMUNITETNI
RIVOJLANTIRISH
MONOGRAFIYA**

**BUXORO – 2021
«DURDONA» NASHRIYOTI**

UO'K 316.75:37.011.3-052**KBK 66.0 74p****O 75**

Ortiqov, O.R.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish [Matn]: monografiya / O.R.Ortiqov. – T.: Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti,, 2021. -152 b.

UO'K 316.75:37.011.3-052**KBK 66.0 74p**

Monografiyada mafkuraviy immunitet tushunchasi, mohiyati va mazmuni, mafkuraviy immunitetni rivojlantirishning tarixiy ildizlari, talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonlari, qonuniyatlari va tamoyillari, tizimi, pedagogik shart-sharoitlari nazariy jihatdan asoslangan. Ayniqsa talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda o'quv fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'rni hamda ommaviy axborot vositalari va madaniy merosdan foydalanish turlari masalasiga alohida e'tibor bergan. Monografiya pedagogik faoliyatga tayyorlanuvchilar va bu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar hamda pedagogikada sohasida ilmiy tadqiqot ishlarni olib boruvchilarga mo'ljallangan.

MAS'UL MUHARRIR:

Olimov Sh.Sh., - pedagogika fanlari doktori, professor

TAQRIZCHILAR:

Adizov B.R., -pedagogika fanlari doktori, professor

Izbullayeva G.V., -pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Monografiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnik Kengashi-ning 2021 yil 3-martdagi № 12 qaroriga asosan chop etildi.

ISBN- 978-9943-7202-4-4**© O.R.Ortiqov**

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

1.1 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat.

1.2 Mafkuraviy immunitet tushunchasi, mohiyati va mazmuni.

1.3 Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning tarixiy ildizlari.

II BOB TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI.

2.1 Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning qonuniyatlari va tamoyillari.

2.2 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish tizimi

2.3 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy go'ya va ma'naviyatning o'rni.

III BOB TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

3.1 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o'quv fanlari va ularni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.

3.2 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'rni.

3.3 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va madaniy merosdan foydalanish turlari.

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Ajdodlarimizning donishmandlik an'analari amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqda, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'ldan bormoqda. Jamiyatda siyosiy faollik ortib borib, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat [9].

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar markazida shaxs va uning barkamol qiyofasi o'z ifodasini topgan. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish uning ma'naviy – ahloqiy va intellektual salohiyatini jahon andozalariga mos tarzda yuksaltirish, ayniqsa, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishlarini ta'minlash ishlari mamlakatda bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Bunga mamlakatda qabul qilanayotgan Farmonlar, Qarorlar mazmunida, vazifalar o'z yechimini topmoqda. Jumladan, ta'limning hozirgi, zamon fan – texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmonida aks ettirilgan. Shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 2909 – sonli, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining yanada kuchaytirish chora – tadbirlari tug'risida"gi PQ – 3151 – sonli, 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ – 3160-sonli Qarori, BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 20 sentabr 72-sessiyasida nutqida 2021 yil 19 yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish"ga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti hamda 2020 yil 29 dekabrda "Oliy Majlisga Murojaatnomasi"da ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish uchun bo'lajak o'qituvchilarni yetuk shaxs hamda mafkurviy immunitetga ega bo'lgan yuksak darajadagi insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman instituti tashkil etilib, faoliyati kengaytilmoqda. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chirilib, mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang holda

tashkil etilganligini prezidentimiz Sh.Mirziyoev o'zining BMT 72-sessiyasida ham ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan mintaqada barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik siyosatini olib borayotgan davlatdir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan O'zbekiston Respublikasini tashkil etish eng muhim maqsad va vazifa qilib belgilangan.

O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni yanada kuchaytirish va amalga oshirishayotganishlar salmog'ini yanada kengaytirmoqda. Mustaqilligimizni asrab-avaylash va mustahkamlashni milliy ma'naviyatimizni takomillashtirish eng ulug' maqsad deb bilamiz. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev **“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”** –deb ta'kidlagan edi [10]. Milliy mafkuramizning tub ma'no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylanishi lozim.

Shu yo'lda yoshlarda milliy mafkuraning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirishni eng muhim vazifa sifatida belgilab olmog'imiz lozim.

Bu yo'lda albatta tinmay izlanib, tadqiqotlar olib borib, azaliy qadriyatlarimizni mujassamlashtirgan milliy mafkurani ishlab chiqish darkor. Har qanday jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ilm-fanning rivojisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, ilm va ma'rifat moddiy va ma'naviyishlab chiqaruvchi kuch sifatida jamiyatning bugungi kunini va kelgusidagi istiqbollarini belgilab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish, targ'ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasi, sport, intellektual salohiyatni oshirish, kitob o'qish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, yoshlarni ilimli, bilimli, dunyoqarashlarini keng bo'lishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi va boshqalar davlatimiz siyosatining asosiy masalalalari sifatida qaralayotganligi sir emas. Zero, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev

aytib o'tganlaridek; "Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish"[3] masalalari hozirgi kunning eng muhim strategik vazifalaridandir.

Shu bois mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg'or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarimizni yangi bosqichgako'tarishimiz zarur.

I BOB TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

I.1. Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlari kafolatlanadi.(Ta'lim to'g'risidagi qonun 5- modda)

Mamlakatimizda insoniylikka xos bo'lmagan illatlar, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlari-ga barham berish, ko'hna an'ana va qadriyatlarini, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviyyuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsad, hal qiluvchi mezon deb qarab, shu asosda ish olib borish doimo ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Shunday sharoitda albattaxalqimiz ongida mafkuraviy immunitet tushunchasi bo'lmo'gi kerak. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi. Mafkura bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir.

Mustaqilligimizni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iborat. Bu borada talaba yoshlarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni rivojlantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish deganda, talabalarongida bir xil g'oyani zo'r berib kirishtirish emas, balki ularda oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Bu borada O'zbekiston Resbulikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Bizning eng ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab,mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurish"[33,76] deb ta'kidlagan edi.

Davlatimiz taraqqiyoti yo'lida ma'naviy jasorat ko'rsatayotgan xalqimizning insonparvar, fidoyi, mehnatkash, sadoqatli farzandlarini tarbiyalashda albatta mafkura va milliy mafkura, mafkuraviy immunitet bo'lmog'i kerak.

Mafkura (arabcha so'z bo'lib. — fikrlar majmui) — muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari, maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

O'tmishda har bir xalqning, ijtimoiy kuchlarning g'oyaviy rahnamolari, arboblari o'zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib mafkuraviy ta'limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Insoniyat tarixida turli g'oyalar, mafkuralar bo'lgan, albatta. Har qanday mafkuraviy jamiyatda yangi paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy

kuchlarning talab-ehtiyojlari, maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g'oyaviy tizim sifatida vujudga keladi va o'z oldiga vazifalarni qo'yadi;

Bu vazifalar quyidagilar:

- a) muayyan g'oyani odamlarning ongiga va ruhiyatiga singdirish;
- b) aholining turli guruhlarini birlashtirish;
- c) ko'zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish;
- d) ularni ma'naviy ruhiy rag'batlantirish,
- e) aholini, ayniqsa, yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni rivojlantirish;
- f) boshqa mafkuraviy va g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilish;

Mafkura muayyan falsafiy, diniy ta'limotlar asosida yaratiladi, ma'lum ilmiy qarashlar, ahloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkura o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra, jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, davlatning jahondagi obro'yi va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishiga xizmat qiladi.

Mafkura turiga ko'ra bunyodkor va vayrokor mafkuralarga bo'linadi. Yuksak maqsadlarni ko'zlagan g'oyalarga asoslangan, ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g'oyalari asosida shakllangan, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'la oladigan, ma'naviyatni yuksaltirib, insonlarni ulug'vor ishlarga chorlaydigan ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan qarashlarga **bunyodkor mafkura** deb atiladi.

Yakka hukmronlik, mustabidlik, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik g'oyalari asosida shakllangan, millat va xalqlarni asoratga soladigan, ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik tushunchalarga qarshi bo'lgan mafkuralarga **vayronkorlik mafkuralar** deyiladi.

Mafkuraning diniy, dunyoviy, milliy, siyosiy va boshqa ko'rinishlari ham bor. Aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlari erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglik kabi g'oyalarga asoslangan mafkuraga tayanmoqda.

“Mafkura” arabchadan o'zbek tiliga kirib kelgan so'z bo'lib, “fikr yuritish”, “tafakkur”, “e'tiqod va maslaklar tizimi” [45] degan ma'nolarni anglatgan holda insonlarning kundalik hayotida jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui, degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Mafkura kundalik hayotda ishlatiladigan oddiy–sodda tushuncha, uning tub falsafiy mohiyatini hamma ham ochib berolmasligi, tabiiydir. Shuning uchun ham mafkurashunos faylasuf olimlar unga quyidagicha ta'rif beradilar.

Mafkura —muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, elat, millat, xalq jamiyat, davlat ehtiyoj va manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-

ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalar tizimidir.

Ma'lumki, har qanday g'oya amalga oshirish usul va vositalari tizimiga ega bo'lmasa, shunchaki aytilgan fikr tarzida qolib ketishi mumkin. Demak, har qanday g'oya o'zining amalga oshirish usul va vositalariga ega bo'lgandagina ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib boradi va o'zligini namoyon etadi. Buvazifanimafkurabajaradi.

Shuninguchunhammafkuraningjamiyathayotidatutgano'rnihaqidadavlatvajam oatarbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "Mafkura harqandayjamiyathayotidazarur. Mafkurabo'lmasaodam, jamiyat, davlato'zyo'liniyo'qotishimuqarrar. Odamlarningmingyillardavomidashakllangand unyoqarashivamentalitetigaasoslangan, aynivaqtdashuxalq, shumillatningkelajaginiko'zlaganvauningdunyodagio'rminianiq-ravshanbelgilabberishgaxizmatqiladigan, kechagivaertangikuno'rtasidao'zigaxosko'prikbo'lishgaqodirg'oyanimenjamiyatm afkurasidebbilaman"deganedi [31,89].

Milliy mafkura — muayyan millatning etnoijtimoiy birligi sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g'oyalar va qarashlar tizimi. Ko'p hollarda milliy mafkurani bitta millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunilmaydi, u muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasi ma'nosini ham anglatadi. Chunki "milliy" sifati "millat" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, faqat muayyan etnik birlikni emas, balki muayyan "jamiyat" yoki "davlat" ma'nosini ham ifodalashi mumkin. Milliy mafkura tushunchasi ham O'zbekistonda yashab, faoliyat ko'rsatayotgan barcha millat vakillariga tegishlidir. Milliy mafkuraning o'zagini O'zbekistondagi turli millat va elat, din va e'tiqod vakillarini mamlakatimizda ozod va obod Vatan barpo etish uchun birlashtirish, xalqlarni o'zaro hurmat va hamkorlikka chorlash, olijanob maqsadlarni ko'zlash kabi umuminsoniy tamoyillarga aylangan g'oyalar tashkil etadi. Milliy mafkura o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlardavomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni ifoda etadi. Milliy mafkura har qanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan xolidir. U jamiyatimizdagi har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qati'y nazar, ularning barchasini yagona maqsad atrofida birlashtiradigan; xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni buyuk istiqbol sari chorlaydigan ma'naviy omildir. Milliy mafkura haqida gapirganda yana shuni ham nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to'liq ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida

o‘rnatilishi mumkin emas", deyilgan. Mafkurada bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymay, milliy mafkurani xalqimiz ongiga singdirish zamon talabidir.

O‘zbekiston Mustaqiligidaning ilk kunlarida milliy mafkuradan farqli ravishda istiqlol mafkurasi vujudga keldi. **Istiqlol mafkurasi** – millat va davlatning mustaqil rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan g‘oyaviynazariy qarashlar tizimi. Istiqlol mafkurasi mustabit tuzum mafkurasi va amaliyotiga qarshi, ozodlikka intilish zarurati tufayli paydo bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi ozod va erkin taraqqiyot yo‘lidagi olijanob maqsadlar atrofida xalqni birlashtirish, ulkan bunyodkorlik ishlariga safarbar etish, unda g‘oyaviy immunitet, mustaqillikka erishgunchaxalqning orzu, maqsadini ifodalash, keyin esa mustaqillikni mustahkamlash omili hisoblanadi.

Mustaqillikka, ozodlik erishish uchun harakatlar o‘tmishda jahon xalqlari tarixida ko‘plab sodir bo‘lgan. Istiqlol mafkurasi olg‘a surgan hayotbaxsh qarashlar hech qachon izsiz ketmagan, bu qarashlar yangi sharoit va vaziyatlar vujudga kelganda erkinlik uchun kurashni tayyorlashga xizmat qilgan. Mustaqillikka erishgandan so‘ng istiqlol mafkurasining mazmuni mustaqillik davri oldida turgan vazifalarda namoyon bo‘ldi. Bu davrda u mustaqillikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va ma‘naviy asoslarini mustahkamlashni g‘oyaviy jihatdan ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Mamlakatimiz xalqiongidamustaqillikning ilk kunlarida “O‘zbekiston — yagona Vatan”, - degan tushunchani qaror toptirish mafkurasining muhim vazifalaridan biriedi. Istiqlol mafkurasi yurtimizda istiqomat qilayotgan turli xalq va millat vakillarida yagona vatan farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekistonning istiqlol mafkurasi oldingi tuzum illatlariga barham berish, mustaqillik, ozodlik va bunyodkorlik kabi qadriyatlarning ma‘nosini chuqur anglab yetish, uni odamlarning qalbi va ongiga singdirish, jamiyat hayotida ogohlik, hamkorlik, milliy totuvlik muhitini ta‘minlashni o‘zida ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi

Prezidenti I. A. Karimov ijtimoiy taraqqiyotning milliy modelini ishlab chiqib, shu asosida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib,

davlat ichi va tashqi munosabatlarni tinchlik va barqaror rivojlanishini ta‘minlagan bo‘lsa,

bugungi kunda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”** xalq bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish asosida inson manfaatlarini ko‘zlab jamiyatimizning mustaqil ijtimoiy taraqqiyotini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun qadamlar qo‘yishda dastur va amal vazifasini o‘tamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining beshinchi bandi bevosita shu masalaga qaratilgan.

Qat'iy

vamas'uliyatliqadamlarqo'yishningma'naviymanbasiniesamilliymafkuramizningbo shvaasosiyg'oyalaritashkiletishihechkimgasir emas.Insonning qalbi va ongini egallash va shu orqali o'zining g'arazli niyatlari yo'lida oddiy qurolga, vositaga aylantirishga urinadigan turli zararli oqim va harakatlar ta'siri ortib borayotgan bugungi murakkab zamonda aynan ana shunday ulug' maqsadlarga intilib yashagan odamgina adashmaydi. Inson tabiatan qiziquvchan zot ekani va shu bois ko'pincha aldanib ham qolishi hech kimga sir bo'lmasa kerak. Utabiat va jamiyatdagi ko'plab voqea-hodisalar, muammolarga yoshligidan boshlab javob izlaydi. Ularning mohiyatini tushunishga intiladi. Shu tariqa uning ongi rivojlanib, tasavvuri kengayib boradi. Bu jarayon uzluksiz bo'lib, olam harakatdan to'xtamagani kabi, inson ham bilish va fikrlashdan to'xtamaydi. Ammo dunyoni bilish va tushunishning o'ziga xos yo'llari,shakllari bor. Ularga ko'ra, bilimlar foydali yoki zararli, kerakli yoki keraksiz bo'lishi mumkin. Ana shu bilimlardan eng zarurlarini olish uchun talabalarda aniqmaqsad bo'lmog'i zarur.Bu maqsadni amalga oshirishda albatta mafkuraviy immunitet shakllanmog'imiz lozim.

Milliymafkuragabo'lganehtiyojyanadaoшибboraveradi.

Buesamilliyg'oyaningjangovarruhiniyanadakuchaytirib, yurtimizningichkarisidavatashqarisidatezkorkechayotganmafkuraviyjarayonlarning yangi-yangi qirralarini ochish, harqandaybunyodkorg'oyalarniqo'llabquvvatlash, shuningdek, buzgunchig'oyalartajovuziningo'zvaqtidaoldiniolish, talabalar milliy mafkuraruhidatarbiyalashninguzluksizliginita'minlashishlarininazariyvaamaliyji hat dankengaytiribborishnitaqozoetadi.

Shunday masuliyatni bugungikundagumanitarvaijtimoiy-iqtisodiy fanlar qatoridan o'zigamunosibo'rinolgan tarbiya fani ilmsohasivao'quvfani sifatida vujudga keldi va taraqqiy etib, ta'lim tizimidan o'rin oldi. Buesa

birinchidan,mazkurfanningob'ektivapredmetgadoirasini, qonunvakategoriyalarini, metodvaprintsiplarini,maqsadvavazifalarini, o'zigaxosxususiyatlarini, boshqafanlardanfarqqiluvchitomonlariniyanadaravshanroqyoritish;

ikkinchidan,g'oyavamafkuratushunchalarigafalsafiyji hatdanta'rifvatavsifberi shhamdaularnitasniflashdamantiqiyizchilliknita'minlash,shuningdek, ularo'rtasidagiumumiyo'xshashvafarqqiluvchitomonlarnihartomonlamayoritibberis h, ularningko'zlaganmaqsadvavazifalarinimustaqiltaraqqiyotyillaridaxalqimizningeris hganyutuqlarimisolidabayonqilish;

uchinchidan, milliymafkuraningboshvaasosiyg'oyalarinio'rganishborasidaolibborilayotganilmiyi

zlanishlarning natijalarini asosidagi mazmun va mohiyatini yanada yanqanglas hishlarini kuchaytirish;

to'rtinchidan,

globallashtirish sharoitida jahonda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning mantiqini tezli kda anglab olish uchun ish o'ntirish bilan balaridan foydalanish, milliy mafkura ning targ'ibot va tashviqot ishlarini bilan shugullanadigan xodimlarning yan giavlodlarini yetishtirish;


beshinchidan,

zamonaviy mafkuraviy kurash usullarining taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish;

oltinchidan,

yaqin kelajakda jahon xalqlari hayotida yuz beradigan mafkuraviy jarayonlarning kechis hi haqida ilmiy bashorat qilishka bimasalalar niteranroq yoritishni talabetmoqda.





Yuqoridakeltirilgan barcha sabablarni umumlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkin, ya'ni tarbiya fanini vujudga keltirishdagi asosiy sabab, O'zbekiston xalqining ijtimoiy yo'naltilgan bozoriq-tisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish asosida munosib hayot kechirishni ta'minlash sariboshlab boradigan milliy mafkura mizning bosh g'oyasi - ozod va obod Vatanda, erkin va farovon hayot kechirish hamda asosiy g'oyalari — vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, koinon, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik asosida birlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini va uni amalga oshirishning amaliy usul va vositalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish hamda rivojlantirishdan iboratdir.

Shuning uchun ham Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasida ta'lim dasturlarini yaratilishi va Respublikada ta'lim tizimiga joriy etilishi, barcha ta'lim muassasalarida o'quv fanini sifatida o'qitilab oshlanishi yo'lga qo'yildi.

Tarbiya fanining ob'ekti ham belgilanib olinib, fanning predmeti maqsadi va vazifalari ishlab chiqilib, shular asosida ta'lim berila boshlandi.

Tarbiyafani—eng muhim ijtimoiy fanlardan birisanaladi. Chunki ukishilik jamiyatiga xos bo‘lgan g‘oyavamafkuralarni yaxlit ijtimoiy hodisavv oqeylik sifatida o‘rganadi. Demak, mavjud voqeylik dayuz berayotgan, g‘oyavamafkuralarga tegishlinarsa, hodisalar hamdajarayonlari tarbiyafanining ob‘ektini tashkilotadi.

G‘oyavamafkuralarga tegishlinarsa, hodisalar hamdajarayonlari turlicha bo‘lib, ular birtomondan: g‘oyavamafkuralarning kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlari, bir g‘oyavamafkuraning o‘rniga boshqabir g‘oyavamafkuraning vujudga kelishi, g‘oyavamafkuratamoyillari ni ishlab chiqish va uning amalga oshirish, ma‘naviy-mafkuraviy munosabatlarni o‘rnatishlarini tashkilotish, davlatning ichki va tashqisiiy osati, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy guruhlar, siyosiiy partiiyalar bilan munosabatlari, xalqlar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaromuniosabatlar, ikkinchi tomondan, mafkuralarning paydobo‘lishi va rivojlanishi, davlat, shaxs, jamoalar o‘rtasida bo‘ladigan mafkuraviy munosabatlar, qonunchilik, huquq-tartibot, mafkurali shaxs, mafkurasiz shaxs, g‘oyavamafkuraga zid hatti-harakatlar, g‘oyaviymas‘uliyat, g‘oyaviy madaniyat, g‘oyaviy tarbiya, mafkuraviy ong, mafkuraviy tafakkur, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy faoliyat va hokazolarni qamrab oladi. Ijtimoiy taraqqiiyot — g‘oya va mafkuralar tarixidir. Yer yuzida dastlabki odamzod paydo bo‘lib, uning urug‘, jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro‘y bergan dastlabki davrlarda yoq ularni birlashtirib turadigan umumiiy g‘oya va mafkuraga ehtiyoj tug‘ildi.

Har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi [4,56]. Mafkura mana shu jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

G‘oyavamafkuralarga oid hodisalar, jarayonlar xilma-xil va ko‘pqirralidir. Shu sababli, g‘oyavamafkuralar tabiiy, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiiy fanlarning turlisohalarida o‘rganiladi. Tarbiya fanig‘oyavamafkuralarning nazariy muammolarini o‘rganadi. Shu o‘rinda “nazariya” so‘zining ma‘nosini ma, degan tabiiy savol tug‘iladi.

Nazariya—

jamiyattaraqqiiyot qonuniyatlarini mujassamlashtirgan amaliyotning mantiqan ilmiy umumlashtirilishidir.

Nazariya amaliyot - o‘zaro chambarchas bog‘liq hodisalar. Nazariya bami soliamaliyotning yo‘lini yoritib turuvchi kuchli mayoq bo‘lib, amaliyot bilan uzviy bog‘langan, amaliyotga xizmat qiladi hamda amaliyotdankelib chiqadi. **Amaliyotsiz nazariya - “cho‘loq”, nazariyasiz amaliyot “ko‘r”dir.**

Ijtimoiy fanlarning muhim tarkibiy qism bo'lgan, tarbiya
fani ham amaliyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib,
g'oyaviy mafkuraviy amaliyot taraqqiyotining yo'nalishlarini belgilab beradi.
U g'oyaviy mafkuraviy amaliyot xulosalarini tajribalarining mantiqan umumlashmasi,
sintezidir.

Tarbiya
fani hayot tarixiy taraqqiyot jarayonida ilgari surgan vazifalarni egizidagi xulosalarni talif
lariga aniqlik kiritdi, ularni boyitib rivojlantirmoqda.
G'oyaviy mafkuralar har bir jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi.

Tarbiya fani—
g'oyaviy mafkuralar rivojining umumiy qonunlari haqidagi fan bo'lib,
uning predmeti g'oyaviy mafkuralarning mohiyati, kelib chiqishi,
rivojlanish prinsiplari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarni tashkil etadi. Bugungi kunda
milliy mafkura turkumiga kiruvchi fanlar umumiy nom bilan tarbiya fani deb
yuritilmoqda.

Har bir jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar va islohotlar muhim ijtimoiy ahamiyat
ga ega. Bular jarayonlarga jahon, davlat va jamiyatlarning taraqqiyot talablari,
andazalarini va tamoyillarini uqtanib o'qish zarur. Bu, birtomondan, O'zbekis-
tondagi islohotlarning yo'nalishlarini va mezonlari,
qadriyatlarini va maqsadlarini aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan,
mamlakatimizdagi g'oyaviy mafkuralar qachon paydo bo'lgan, qanday rivojlangan,
qayoqqa qarab ketayapti, uning o'ziga xos jihatlari,
rivojlanishining shakli va ko'rinishlari qanday,
mezonlari bormi yoki dunyodagi mavjud milliy va umuminsoniy mazmundagi g'oyaviy
taraqqiyot o'zidan ketayaptimi, degan savollarga javob topish imkonini beradi.
Anashu muammolarni tarbiya fanining asosiy masalalarini tashkil etadi.

Tarbiya fani g'oyaviy mafkuralarga tegishli hodisalarni jarayonlarining muhim,
zaruriy,
umumiy tomonlarini o'rganish holda jamiyatlarning taraqqiyotining ob'ektiv qonunlarini
ushuntirib berish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-
madaniy maqsadlarini belgilash va mavjud ijtimoiy munosabatlarni bunyodkor g'oyaviy
mafkuralarini kishilar ongiga qalbiga singdirish yo'lib o'tib boshqarish mexanizmlarini oc-
hish, ularning rivojlanish istiqbollari ni ko'rsatib berish bilan shugullanadi.
Shunday qilib, Tarbiya fani ga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Tarbiya fani —
ijtimoiy hodisa bo'lmish g'oyaviy mafkuralarning kelib chiqishi, shakllanishi, rivojlanis-
hi, faoliyat ko'rsatishining umumiy
qonunlarini o'rganuvchi nazariy va amaliy jamiyatga molik bo'lgan fan.

Jamiyat mafkurasiz bo'lmaydi. Chunki har bir davlat mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lini tanlab olar ekan, o'z taraqqiyot dasturi, qarashi, amalga oshirish tamoyillari, kontseptsiyasiga ega bo'lmasdan o'z istiqbolini aniq ko'ra olmaydi. Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

I.2. Mafkurviy immunitet tushunchasi, mohiyati va mazmuni.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning mafkurasi turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishniko'zlagan mamlakatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi. O'zbekiston xalqining milliy mafkurasi aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtidoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Mafkura (arab. - fikrlar majmui, nuqai nazarlar, e'tiqodlar tizimi) – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Mafkura (arab. «mafkura» – fikrlar, nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui.

Mafkura keng ma'noda ijtimoiy borliqning jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy in'kosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Milliy istiqlol mafkurasi – bu istiqloлга erishilgandan keyin shakllangan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini va olib borilayotgan ham ichki ham tashqi siyosatni himoya qilib qo'llab-quvvatlaydigan qarashlar, nazariyalar majmuidir.

Milliy mafkura — muayyan millatning etnoijtimoiy birligi sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g‘oyalar va qarashlar tizimi. Ko‘p hollarda milliy mafkurani bitta millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunilmaydi, u muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasi ma’nosini ham anglatadi. Chunki "milliy" sifati "millat" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, faqat muayyan etnik birlikni emas, balki muayyan "jamiyat" yoki "davlat" ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Milliy mafkura tushunchasi ham O‘zbekistonda yashab, faoliyat ko‘rsatayotgan barcha millat vakillariga tegishlidir. Milliy mafkuraning o‘zagini O‘zbekistondagi turli millat va elat, din va e’tiqod vakillarini mamlakatimizda ozod va obod vatan barpo etish uchun birlashtirish, xalqlarni o‘zaro hurmat va hamkorlikka chorlash, olijanob maqsadlarni ko‘zlash kabi umuminsoniy tamoyillarga aylangan g‘oyalar tashkil etadi. Milliy mafkura o‘zligimizni, muqaddas an’analарimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni ifoda etadi. Milliy mafkura har qanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan xolidir. U jamiyatimizdagi har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qati’y nazar, ularning barchasini yagona maqsad atrofida birlashtiradigan; xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni buyuk istiqbol sari chorlaydigan ma’naviy omildir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning mafkuraga shunday fikrlari mavjud: “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo‘lgan zararli ta’sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz takdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘rishimiz shart”[3]. Milliy mafkura xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo‘li va maqsadlarini aniqlaydigan charog‘on etadigan mayoqdir.

Mafkuratushunchasivauningfalsafiytavsifi.

Ma’lumki,

harqandayg‘oyaamalgaoshirishusulvavositalaritizimigaegabo‘lmasa, shunchakiaytilganfikrtarzidaqolibketishimumkin.

Demak,

harqandayg‘oyao‘ziningamalgaoshirishusulvavositalarigaegabo‘lgandaginauijtimoiy hayotningbarchajabhalarigakiribboradivao‘zligininamoyonetadi.

“Mafkura” arabchadano‘zbektiligakiribkelganso‘zbo‘lib, “fikryuritish” “tafakkur”, “e’tiqodvamaslaklartizimi”[44]deganma‘nolarnianglatganholdainsonlar ningkundalikhayotidajamiyatdagimuayyansiyosiy, xususiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlarvag‘oyalarmajmui, deganma‘nolarniifodalashuchunishlatiladi. Mafkuraningkundalikhayotdaishlatiladig anoddiy–sodda tushunchasi, uningtubfalsafiy mohiyatiniochibberolmasligi,

tabiiydir.

Shuninguchunhammafkurashunosfaylasufolimlarungaquyidagichata'rifberadilar.

Bugun yoshlarda mustaqillik tufayli «or», «andisha», «nomus», «vijdon», «insof», «g'urur», kabitushunchalarning haqiqiy ma'nosini anglab etmoqdalar.

Or - bu nomunosib yoki epko'rilmaganishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Bundan tashqari,o'z o'rnidaxazar qilishyoki bo'lmasa,obro'-e'tibor,faxrlanishma'nolarini ham bildirishi mumkin[26,27].

Andisha-bu oqibatnio'ylabyoki yuz-xotirqilibyuritilgan mulohaza,ehtiyotkorlik hissidir.Andishaliinson deganda,oqibatnio'ylab ish qiladigan, yuzxotirni biladigan, ornomusli, sharmhayoli, iboli odamni tushunamiz.

Nomus-bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'ularini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslikma'nosini ham ifodalaydi.Odatda, nomusli odam ma'naviy qadriyatni moddiy boylikka alishishnio'ziga epko'rmaydi.Qonun taqiqlay olmagan narsalarni goho nomus taqiqlay ladi, degan naql hambor xalqimizda.

Vijdon - bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun oila, jamoat, jamiyatva Vatan, millat oldida ma'naviy mas'uliyat his etishidir.Vijdon tug'maxislatdeyuvchilar hambor.Vijdon - kishilarning yashab turgan sharoitiga olgan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq, deb hisoblovchilar ham mavjud.Vijdon ko'p yoki o'z bilimlilikka, boy yoki kambag'al bo'lishlikka, oddiylik yoki mashhurlik bilangina bog'liq emas.

Insof - bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik,barobarlik,tenglik, sofdillik va haqiqatgo'ylikdir. O'zganio'z o'rniga va shuningdek, o'zo'rnigao'zgani xayolan qo'yib ko'rish ham insofga kiradi. To'q ochni, boykambag'alni, baxtli baxtsizni, tolei baland tolei zabunni, omadli omadsizni, sog'lom bemorni o'zo'rniga qo'yib ko'rolsa, va aksincha, ham xuddi shunday bo'lsa, insoflilar safi kengayib boradi.Insof tushunchasi sharq falsafasida quyidagicha talqin etiladi.

Insof-bu kishining ijtimoiy axloqme'yori nuqtai nazaridano'z xulq-odobini tartibga solishi va axloqiy baholashidir.

Insof vijdonliodamning yoki ma'lumjamoatning jamiyatgayoki boshqa kishilarga nisbatan o'z xulq-atvori uchun ma'naviy javobgarlik hissidir.Agarkishi biror ishni to'g'ri bajarsa, unda ichki qoniqish paydo bo'ladi, vijdon pok bo'ladi, atayin noto'g'ri bajarsa, insofdan chiqqan bo'ladi. Insof kishini biror ishni qilishgaundasa yoki qilishdan tortsa, bunda u qalb amri tarzidabo'ladi.Xullas,insofkishining jamiyatoldida, tevarak-atrofidagi kishilar oldida o'z xatti-harakati bilanma'naviy mas'uliyatini his etishining ifodasidir.

Gurur- ona tilimiz asrlar bo'yi xalqimiz tomonidan zargarona sayqal berilib, shunday mukammalqilib yaratilganki, u orqali har qanday ma'no va tushunchalarni, ularning eng nozik va haririjhatlarigacha aniq va tiniq ifodalash mumkin. Ya'ni necha ming yillar davomida xalqimiz ongito'lishib boravergan, unda hosil bo'lgan tushunchalarni o'z tub so'zlarimiz bilan ham, o'rniida jahontillariga oid so'zlar bilan ham, yangi-yangi so'zlar yaratish vositasi bilan ham ifodilangan. Tilimizdagig'urur, faxr va iftixor so'zlarini olib ko'raylik. Bular bir-birigayaqin ma'nolarni anglatsada, ayni bir paytda, bir-biridan muayyan darajadafarqlanuvchi tushunchalarni ham bildiradi [26,28].

Inson o'z kuchiga ishongan va bu bilan faxrlana olgan taqdiridagina biror narsaga erisha oladi. O'zqadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, yanada sabotli qiladi. Kishi uchun o'zqobiliyatidan ortiq darajada g'ururlanishi ham, o'z-o'zini yerga urishi ham yaramaydi. O'z-o'zligicha qola bilgan odamning g'ururi bus-butundir.

O'ziga ortiqcha bino qo'ymoq, gerdaymoq, kekkaymoq, dimog'dorlik- bular takabburlikka kiradi. Mana shu yuqorida sanab o'tilgan har bir inson xislat va fazilatlari mafkuraviy immunitetining mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Uning shakllanishi va rivojlanishida xizmat qiladi.

Mafkuraningtasnifi. Mafkuraningtasnifi¹debturlidavrlardava hozirgi kundamavjud bo'lgan mafkuralarning o'zigaxos belgilari, xususiyatlari, xususan, maqsad-muddaolari, usulvavositlari, harakatlantiruvchi kuchlarivata'sir-oqibatlariga qarabturlarga, turkumlarga ajratishga aytiladi.

Mafkuraning asosiy kategoriyalari: Kategoriya - (yunoncha: kategoriya – "ko'rsatma", "dalil", "tushuncha") pedagogikada pedagogik jarayonlar xususiyatlarini, mohiyat-mazmunini, shaxs va jamiyat, shaxs va guruh, shaxs va jamoa o'rtasidagi, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik, iqtisodiy-ekologik va h.klar munosabatlarni aks ettiruvchiasosiy tushunchadir. Kategoriya bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo'ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqni, tevarak-atrofni, ijtimoiy hayotda sodir bolayotgan voqea-hodisalarni o'rganadi. Insoniyat tarixida qancha ijtimoiy-siyosiy kuch, qancha millatlar yaratilgan, shuncha xilma-xil mafkuralar yaratilgan. Hozirgi davrda ham mafkuralarining turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ulardiniy, dunyoviy, milliy, siyosiy va shukabildir.

Hozirgi paytda aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlarining umum insoniy qadriyatlarini ardarajasigacha ko'tarilgan erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy bagrikenglik kabi g'oyalarni tarannum etuvchi mafkuralar yaratayotmoqda.

¹ "Tasnif" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "tanlab olish; turlarga ajratish", degan ma'nolarni anglatadi.

ehtiyojlarini boshqalar hisobiga qondirishni, bosqinchilik vatalonchilikni yoqlovchi tajovuzkor (ekstremistik) mafkuralar ham uchraydi. Farazl maqsadlarni jozibali g‘oyalarni ko‘higa yashirib, odamlar ongiga qalbida hukmron bo‘lishga intiladigan **shovinizm** va **irqchilik**, **fashizm** va **kommunizm**, **diniy aqidaparastlik** kabi mafkurashakllari ham bor.

Shovinizm (frans. saiushte, Napoleon I bosqinchilik siyosatining muxlisi fransuz askari N. Shoven (Spailchop) nomidan) — millatchilikning o‘ta agressiv shakli. O‘zga millatlarni kamsitish, tahqirlash, o‘z millatini boshqa millatdan ustun qo‘yish, milliy kalondimog‘lik, milliy xudbinlik illatlarini o‘zida mujassam etadi. Shovinistlar g‘oyaviy nazariy jihatdan milliy manfaatlar va ustuvorlikka xizmat qilib, o‘z g‘oyalarini tazyiq va zo‘ravonlik orqali amalga oshiradi. **Shovinizm** atamasi XIX-asrning 30-yillarida Fransiyada vujudga keldi. **Shovinizm** biror boshqa millatning tarixiy taraqqiyot yutuqlari, insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, jahon tarixidagi o‘rni, milliy, ma‘naviy va madaniy qadriyatlarini poymol qilishga harakat qilib, ayrim jihatlari bilan natsizm va fashizmga ham o‘xshab ketadi. Shovinizm ko‘p millatli davlatlarda ko‘pincha bir millatning ustuvorligiga, cheksiz imtiyozlarga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Shovinizm XX asrda dunyoning turli davlatlari va mintaqalarida o‘zining mudhish maqsadlarini amalga oshirdi.

Irqchilik - irqiy kamsitish siyosati. Inson irqlarining jismoniy va ruhiy jihatdan har xilligi, irqiy tafovutlarning jamiyat tarixi va madaniyatiga hal qiluvchi ta‘siri, odamlarning azaldan oliy va past irq larga ajratilganligi haqidagi qoidalarga asoslanadi. Shuda‘volarga ko‘ra, oliy irq lara go‘yo boshqa irq lara ustidan hukmronlik qilishga da‘vat etilgan, sivilizatsiyaning birdan-bir bunyodkorlaridir, past irq lara esa yuksak madaniyatni yaratishga va uni hatto o‘zlashtirishga ham qobiliyatsizdir.

Fransuz J.A. Gobino XIX asr o‘rtalarida birinchi bor irqchilik g‘oyasini surib, oriylarni "oliy irq" deb e‘lon qiladi. Irqchilik fashizmning rasmiy mafkurasiga aylangan edi. Irqiy kamsitish, kishilarning biron-bir guruhini irqiy va etnik alomatiga ko‘ra majburan ajratish hamda aparteidni oqlashda irqchilikdan foydalaniladi. Irqchilik sintoizm bilan hamohang irqchilik xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan bir qancha hujjatlarda, jumladan, irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyada keskin qoralangan. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil 31 avgustda mazkur Konvensiyaga qo‘shilgan [46].

Fashizm (ital. fassismo — tuda, birlashish) — totalitar tipdagi siyosiy diktaturaga asoslangan hokimiyatning siyosiy konsepsiyasi. Bunda faqat yuqoridan pastga qarab buyruq beriladi. Fashizm demokratiyani qaramaqarshisi va uni inkor etish hisoblanadi, u hokimiyatning bo‘linishiga yo‘l qo‘ymaydi. Jahon tarixida

fashizmning bir necha ko‘rinishlari bo‘lgan. Jumladan, Italiyada totalitar rejim hokimiyati, Germaniyada natsistlar Fashizmi, Portugaliyada harbiysiyosiy Fashizm, Ispaniyada harbiy otryadlar Fashizmning har qanday ko‘rinishi demokratiya tartibotlari va qadriyatlarini hech qachon e‘tiborga olmaydi, bunday tizimda inson qadri, erkinligi, huquqlari poymol qilinadi. Hokimiyatning jamiyat hayotining barcha jihatlariga haddan tashqari aralashuvi natijasida hamma sohalarni qattiq nazoratga oluvchi totalitar siyosiy partiya shakllanadi va udavlatmonopol tashkilotiga aylanadi. Fashizm ana shunday tashkilotga va "dohiy"ning e‘tiroz bildirib bo‘lmaydigan obro‘e‘tiboriga tayanadi.

Fashistik rejim inson manfaati, inson omili bilan aslo hisoblashmaydigan yovuz rejim bo‘lib, barcha xalqlarni, shu jumladan, o‘z xalqini ham azob uqubatga qo‘yadi. Dinsizlik, umuman dinga dushmanlarcha munosabatda bo‘lish; huquqiy totalitarizmni barpo etish; partiya yakka hukmronligini o‘rnatish, bunday sharoitda kuchayadigan korrupsiya va axloqiy buzilishlar; millatchilik va jangari shovinizm, safsatabozlik, laganbardorlik, despotiyani avj oldirish, fuqarolarni, butun aholini qo‘rquv ostida saqlash, inson ongi va tafakkurini bo‘ysunish ruhida tarbiyalash; xurfiylik, erkinlikka intiluvchilarga nisbatan terror o‘tkazish Fashizmni tavsiflovchi xususiyatlardir. Demokratik tartiblar bo‘sh bo‘lgan sharoitda fashistik tipdagi harakatlar rivojlanib, Fashizmning jiddiy xavfga aylanish imkoniyati saqlanib qoladi [46].

Kommunizm (lotincha: *communis* — umumiy) — xususiy mulkchilikni inkor qilishga asoslangan turli karashlarning umumiy nomi (ibtidoiy kommunizm, xayoliy kommunizm, “kazarma” kommunizmi va boshqalar). Unga ko‘ra, yagona umumiy (ijtimoiy) mulk jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining asosini tashqil qiladi. Bu g‘oya “ideal jamiyat” nomi bilan Platon, keyinroq T. Mor, Tommaso Campanella, Sh. Fyurxe va boshqalarning asarlarida ilgari surildi, Kommunizm yoki kommunistik jamiyat nomi bilan 19—20-asrlarda Karl Marx, Friedrich Engels va Vladimir Lenin asarlarida nazariy ifodasini topdi. Markscha tarixiy jarayon haqidagi qarashga binoan, Kommunizm — kapitalizm o‘rnini egallaydigan va o‘z taraqqiyotida 2 bosqich (faza) — sotsializm deb ataladigan quyi bosqich hamda to‘la kommunizm deb ataladigan yuqori bosqichni bosib o‘tadigan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadir.

Kommunizm nazariyotchilari bu ikki bosqichni o‘ziga xos jihatlariga hamda umumiy tomonlari mavjudligini ko‘rsatishga urinishgan. Umumiy tomoni iqtisodiy jihatdan yagona ijtimoiy mulkka asoslanganligi, o‘ziga xos tomoni esa — mehnat taqsimoti tamoyili bilan belgilanadi, deb uqtirishgan. Chunonchi, ular kommunizmga har kimdan qobiliyatiga yarasha, har kimga ehtiyojiga yarasha tamoyili amal qiladi, kommunizmga muhim ijtimoiy tafovutlar bo‘lmaydi, hamma

teng bo'ladi, davlat o'z vazifasini bajarib bo'ladi va barham topadi, deb hisoblashgan [46].

Kommunizm g'oyasining asosida tarixni faqat materialistik tushunish, formatsiyaviy qarash, sinfiylik va partiyaviylik tamoyillariga asoslanish, proletariat manfaatlarinigina himoya qilish kabilar yotadi. Jamiyat taraqqiyoti qonunlariga, inson erkinligi, mustaqillik va demokratiya tamoyillariga zid bo'lgan bu g'oyalar sobiq SSSR hududida, "sotsialistik lager" deb atalgan jahon sotsialistik sistemasi davlatlarida tatbiq qilindi.

XX-asr20-yillarida zo'rlik yo'li bilan proletariat (amalda partiya)ning ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan diktaturasi o'rnatildi. Rivojlanish va taraqqiyotning xilma-xilligi, turli xalqlar va mamlakatlarga xos milliy ma'naviy xususiyatlarning mavjudligi inkor etildi. Dunyo mamlakatlari va xalqlarining yagona kommunistik jamiyatga borishini asoslashga harakat qilindi. Birok, kommunizmning "erkinlik", "tenglik" to'g'ri-sidagi shiorlari soxta va asossiz ekanligi ma'lum bo'ldi. Hozirgi kunda ayrim davlatlar sotsializmni bozor munosabatlari bilan bog'lashga harakat qilmoqda va kommunistik qarashlar o'z xususiyatlarini hisobga olgan holda yangicha yondoshmoqda. Biz yuqorida qayd etgan, mafkura shakllari bular qachonlardir davlatlarni boshqa-rishda bosh g'oya bo'lishgan bo'lsada, bugungi kunda bunday mafkuralarga qarshi tura oladigan bizning milliy mafkuramiz vujudga kelgan va rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy kuchlar manfaatini ifoda etishiga ko'ramafkuralarsinfiy, **milliy, umumxalq va umuminsoniy** mafkuralarga bo'linadi.

Agar jamiyatdagi turli sinf va guruhlar (masalan, ishchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, ziyolilar va x.k.) ning ham o'z ehtiyojlari, maqsad muddaolari bo'lishi tabiiy. Mana shu qarshilarni ifoda etadigan mafkuralar ham bo'ladi. Agar biron-bir guruhning manfaatlari boshqa qatlamlar ehtiyojlariga qarama-qarshiqo'yilsa, jamiyatda nizo va ziddiyatlar kuchayadi, ijtimoiy hamkorlik tamoyil-lariga putur etadi.

Tarbiya kattalar(o'qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko'p tarqalgan tendensiyadir. Mafkura mana shu tarbiya negizida dunyoga keladi, shakllanadi va rivojlanadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo'lgan obraz - «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlaribo'lib hisoblanadi. Milliy mafkuraxalqning tub manfaatlarini ifoda etib, oliy janob maqsadlarni ko'zlasa, boshqaxalqlarni o'zarohurmat va hamkorlikkachorlasa, millatni taraqqiyotsariyetaklaydi, uning o'zligini anglashigavajahon ham jamiyatidamunosibo'rine gallashiga olibboradi.

Agarmilliy mafkurafaqatshumillatniko'klargako'tarib, boshqaxalqlargaqarama-qarshitursa, turlifalokat, urushlarnichiqarishibilanbirga, shumillatninghamtanazzuligasababbo'ladi.

Shu o'rinda Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, "Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'libchiqadi"-deb, ta'kidlaydi [19, 5].

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida yuksak ma'naviyva axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etishga katta e'tibor qaratiladi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarish lozimbo'ladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakalikadrn tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.

4. Ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyatolib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.

5. Ilg'orpedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.

7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish.


8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.

9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

10. Oila, ta'lim muassasasi mahalla o'rtasidagi munosabatlarni uzviylik va izchilik asosida tashkil etish;

Mafkuralarning mazmuni va shakllari. Har bir narsa hodisa mazmun va shaklga ega bo'lganidek, har qanday mafkuraning ham mazmun va shakli mavjud.

Mafkuraning mazmuni deb, uning o'ziga xos sifati xususiyatlari, muhim belgilari, elementlarining yigindisiga aytiladi. Masalan, milliy mafkuraning mazmuni inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuygular, go'zal va xayotiy g'oyalar; millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqodning manbai bo'lish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanish kabilardan iborat bo'lsa, uning shaklini liberal demokratik ko'rinishda o'zini namoyon qilishi tashkil etadi. Demak, mafkuraning shakli bu uning ichki va tashqi tuzilishini o'zida ifodalovchi strukturasi, ya'ni mavjudlik usulidir. SHunga ko'ra mafkuraning quyidagi: **anarxiya, monarxiya, totalitarizm, liberalizm, demokratiya** kabi shakllari mavjuddir.



Anarxizm (yun. anarchia – hokimiyatsizlik, beboshlik) – rahbar sifatida faqat alohida shaxsning xohish-irodasinagina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi jamiyat to‘g‘risidagi ta’limot. Antik dunyo zamonidayoq anarxiyaga xos fikr yuritish alomatlari bo‘lgan, qadimgi xristianlikda diniy shaklda, keyinchalik o‘rta asrlar mazhablarida ham uchraydi. Lekin ilmiy nazariya sifatida anarxizm keyinroq juldga kelgan. Nemis faylasufi K. Shmidt (Shtirner), fransuz olimi P. Prudon, rus olimi M. Bakuninglari anarxizmning nazariyotchilari hisoblanadi. Anarxizm ba’zi o‘rinlarda liberalizm bilan chatishib ketadi, har qanday davlat hokimiyatini yo‘qotishni va ishlab chiqaruvchilar uyushmalarining federatsiyasini tuzishni yoqlaydi.

Totalitarizm (lot. totalis — yaxlit, to‘liq) — davlat boshqaruv shakllaridan biri (totalitar davlat). Totalitarizm jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlatning yalpi, to‘la (total) nazorati o‘rnatiladi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar tugatiladi, bir shaxs, ijtimoiy guruhning (mas, harbiylarning yoki bir partiyaning) yakkahokimligiga so‘zsiz bo‘ysuniladi, muholafat va o‘zgacha fikrlovchilar qatag‘on qilinadi (mas, XX-asrning 20-yillari oxiridan boshlab fashistlar Italiyasidagi, natsistlar Germaniyasidagi Totalitarizmning turli shakllari, SSSRdagi kommunistik rejim, Ispaniyadagi frankizm va boshqalar); 2) etatizm, avtoritarizmni oqlovchi siyosiy tafakkur yo‘nalishi. XX-asrning 20-yillaridan Totalitarizm Germaniya va Italiyadagi fashistlarning rasmiy mafkurasiga aylangan [46].

Demokratiya — (qadimgi yunoncha: δημοκρατία — „xalq hokimiyati“) — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy talablari ko‘pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo‘linishi, davlat boshlig‘i va vakolatli organlarning saylab qo‘yilishidir [46].

Harqanday qarashlar yakka holda mukammalikka erisha olmaydi. Uboshqalar bilan aloqada, ularning yutuqlaridan foydalangan holda mazmunan boyib boradi. Xuddi shuningdek, mafkuraviy immunitet ham hozirgi kunimizda umum-bashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma’lumotlariga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanishi qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanadi, o‘zi ham ijtimoiy fikrlar sifatida rivojlanib, insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi.

Mafkurayakkahokimligibo'lganjamiyatningesakelajagiyo'q.
HozirgikundamustaqilO'zbekiston
a'zodigahuquqiydemokratikjamiyatqurishnimaqsadqilibqo'ygan.O'zbekistonRespu
blikasiKonstitutsiyasining34-
moddasidaO'zbekistonRespublikasifuqarolarikasabauyushmalariga,
siyosiypartiyalargavaboshqajamoatbirlashmalariga uyushish,
ommaviyharakatlardaishtirokqilishhuquqigaegadirlar. Siyosiypartiyalarda,
jamoatbirlashmalarida, ommaviyharakatlarda,
shuningdek,hokimiyatvakillikorganlaridao'zchiliknitashkiletuvchishaxslarninghuq
uqlari, erkinliklarivaqadrqimmatinihechkimkamsitishimumkinemas", -
debyozibqo'yilgan.

Harqandaydemokratikjamiyattotalitartuzumgavauningmustabidmafkurasiga
tubdanqarama-
qarshidir.Demokratikjamiyatdahechqandaymafkuradavlatmafkurasisifatidao'rnatili
shimumkinemas.ButamoyilO'zbekistondahamqonunbilanbelgilabqo'yilgan[37,272
].

Imom G'azzoliyning quyidagi«**Ollohnı anglashdan avval o'zni anglamoq joiz**» fikridan albatta shunday xulosa qilish lozimki, milliy mafkura va uning mazmun mohiyati inson o'zini o'zi anglashining samarasi ekanligi ta'kidlagan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytishimiz kerakki, har bir xalq o'zining kimligini bilishda, turli xil yod qarashlar va mafkuralarga qarshi turishida mafkuraviy immunitet lozim.

Talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni ravnaqini belgilaydigan omillar:

a) Har bir millatning o'z mustaqilligi, tili va hududining mavjudligini tushunish.

b) Tarixi, adabiy merosi va qadriyatlari, milliy ana'nalarga sodiqlik ruhida skallantirish;

c) Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni turli xil tahdidlardan xoli, sog'lom ma'naviy ruhda tarbiyalash;Bu omillar talabalardamilliyoz'likni anglash degan tushunchaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliyoz'likni anglash tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Millatlararo totuvlikning mazmun mohiyatini tushunib yetish.
- Milliy qadriyatlar va an'analarga sodiqlik.
- Milliy manfaatlarni tushunib yetish.
- Milliy mustaqillik egallagan yurtimizning taraqqiyotga intilish.
- Vatanparvarlik.

Talabalarda milliy oz'liginianglash shaxsning milliy oz'ligini anglash bilan uzviy bog'liq:

Shaxs milliy oz'ligini anglashi quyidagilardan iborat.

- Millatning biron bir (etnos)ga mansubligini anglab etish.
- Mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rnini tushunish.
- Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
- Milliy ehtiyojlar va manfaatlarni anglash, uning rivojlanish yo‘llarini bilish.
- Milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

Aslida milliy o‘z-o‘zini anglash millatning moddiy hamda ma’naviy manfaatlarini himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni «harakat»ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda milliy o‘z-o‘zini anglash omili millatni jipslashtiradi va uni umummaqsadlar yo‘lida harakatga keltiradi. “Eng muhim vazifamiz mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iboratdir” [24,92]. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish, avvalambor, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o‘zida mujassam etgan.

Milliy mafkura atrofida jipslasha olishi, o‘zini xalq, millatning ajralmas qismi ekanligi anglab etishiga ham bog‘liq. Zero, buyuk bobokolonimiz Amir Temur o‘git berganlaridek: “Birliksiz kuch bo‘lmas” binobarin, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” ko‘rishdek, ulug‘ish avvalo, o‘zlikni anglamagan joyda amalga oshmaydi. Milliy birligida insonni o‘zlikni anglash omili alohida o‘ringa ega.

Shu o‘rinda xitoylik faylasufi ShanYanning “Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak odamlarni og‘ir mehnatga majburlash oson. Aqlli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldir” [24,92] degan hikmatli so‘zli o‘rinlidir. Demak, mafkuraviy immununitet bilimli, dunyoqarashi keng insonlarda mukammal darajada shakllanadi va uni hech qanday ta’sirlar buka olmaydi.

Monografiyada mafkuraviy immunitet tushunchasi mafkuraviy e‘tiqod so‘zi bilan ham izohlash mumkinligi haqida aytib o‘tigan. Mafkuraviy e‘tiqod (arab - ishonmoq, imon, amin bo‘lmoq) - inson faoliyati uchun ma’naviy asos, yo‘l-yo‘riq va mo‘ljallab xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, g‘oya va tasavvurlar ifodasi bo‘lgan tushuncha.

Talabalarda mafkuraviy immunitet tushunchalarini shakllanishida ishonch va e‘tiqodga aylangandagina eskilik sarqitlarini supurib tashlashlagan mafkuraviy immunitet bo‘lishi lozim. Jamiyatda g‘oyaning e‘tiqodga aylanishi uning amaliyotga o‘tishidagi muhim bosqichdir. Shaxs e‘tiqodiga aylangan g‘oyani ro‘yobga chiqarish uchun harakat qilaboshlaydi. E‘tiqod qanchalik kuchli bo‘lsa, uni amalga oshirish uchun shunchalik ehtiros bilan harakat qiladi. Kuchli e‘tiqod

yoʻlida shaxs bilimini, kuchini, boyliklarini, hatto hayotini ham ayamaydi. Tarixiy shaxslarimiz Toʻmaris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabilar shular jumlasidandir. Mafkuraviy eʼtiqodning otasi bilim, onasi his-tuygʻudir. Ular hamohang boʻlmasa, mafkuraviy immunitet ham boʻlmaydi.



1.3 Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning tarixiy ildizlari.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda koʻplab mafkuralar yaratilgan, behisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar oʻz gʻoyalari va taʼlimotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun harakat qilgan. Biz har qanday

mafkurani g'oyalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik kerakki, biror bir mafkuraning mohiyatini anglab etish uchun faqat uning tarkibidagi g'oyalarni tahlil qilishning o'zi etarli emas. O'tmishda turli kuchlar va guruhlar o'z g'arazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g'oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham o'z kirdikorlarini ezgu g'oyalar bilan niqoblashga uringan. Demak, mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g'oyalari vositasida emas, shu g'oyalarga erishish usullari va vositalari, umume'tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi va tarixiy ildizlari orqali ham namoyon bo'ladi. O'zining mudhish talab-ehtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko'zlab harakat etuvchi mafkuralar halokatga mahkumdirlar. Mafkuralar, ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Bugungi kunda talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda haqida bilim, ko'nikma, malaka va dunoqarashlarini shakllantirishda biz albatta mafkuraviy qarashlar tarixi kengroq bilmog'imiz lozim.

Insoniyat tarixida g'oya va mafkuralar qarashlarning namoyon bo'lishi bosqichlari.

Insoniyat tarixidagi ilk mafkurasi yashahuchun kurash go'yalaridan iborat bo'lgan. Keyinroq esa odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardo'sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giranman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700yil muqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasi edi.

Zardushtiylik barcha insonlar uchun qimmatli, umuminsoniy qadriyat hisoblanmish erkinlik, tinchlik, do'stlik, hamkorlik g'oyalarini e'zozlaydi, ulardan ilhomlanadi. Shu o'rinda zardusht o'g'lining quyidagi so'zlari fikrlarimizga yaqqol misol bo'ladi. "Men davlatmandlik, qashshoqlik va hukmfarmonlik yo'llaridan o'tdim. Davlatmand bo'lgan chog'imda saxovat qildim, qo'lim ochiq bo'ldi; taxtga o'tirganda kamtar va shavqatli bo'ldim. Tinchlikni saqlashjang qilmoqdan afzal deb bildim. Kek saqlamoqdan ko'ra, do'stlik va birodarlikda bo'lmoq behroqdir deb bildim. Xotirjam bo'lmoq va g'azabdan saqlanmoq xayrlidir" deb qaadim.

Bu o'rinda o'z-o'zidan mantiqiy savol tug'iladi: "Zardushtiylikning ko'plab mamlakatlarga yoyilishi, u yerdagi xalqlarning e'tiqodiga aylanishi va asrlar davomida o'zining mavqeyini yo'qotmasdan yashab kelganligining sababi nimada?"

Buning asosiy sababi shundaki, zardushtiylikda barcha davrlarda inchinun hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hamisha dolzarb bo'lib kelgan ezgulik, yovuzlikni barham toptirish g'oyasi, ma'naviyat ideali ilgari suriladi va g'oya ayni paytda mafkura vazifasini o'taydi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (mil. av. 551-479) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli kamolatga etishuvi mumkin deb, hisoblaydi. Bunday «sharqona demokratiya»ning tamoyillarini o'zida aks ettirgan g'oyalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, sharq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgani shubhasiz.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to'g'risidagi buddizm dinining asoschisi Sidxartxa Gautama qarashlari muhim o'rin tutadi. Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashtiradi. Hayot mazmunan tug'ilish, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Inson beshta ahloqiy talabga amal qilishi lozim ekanligi buddizmda ta'kidlanadi: har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'irlik qilishdan, histuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi kerak. S.Gautama quyidagi 8 ta ongli harakatni ilgari suradi:

- 1) E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi.
- 2) Maqsad sari qat'iy harakat qilishi.
- 3) To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi.
- 4) To'g'ri fe'l-atvor bo'lishi.

- 5) To'g'ri turmush tarzi bo'lishi.
- 6) Kuch-g'ayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi.
- 7) Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi
- 8) Diqqat-e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi[29,77].

Yunon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilgan shoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda. Shu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati g'arb sivilizatsiyasi va Sharq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Yunon-Rim madaniyati, ilmfani, falsafiy tafakkur dunyosi Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 yy.) bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik – bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi, deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Aristotelshogirdi Aleksandr Makedonskiy Osiyoni mahv etgach, unga «Avesto» kitobini yuboradi. Alloma muqaddas kitobni chuqur o'rgangan. Yunon faylasufi va qomusiy olimi Arastu (Aristotel, mil. av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Aflotun (Platon, mil. av. 427-348 yy.) g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqealar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi. Suqrotning shogirdi Aflotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi - ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi.

Islomning asosiy aqidasi — „Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli“. Islom ilohiyotining ilk shakli -kalom bo'lib, 8-asrda Arab xalifaligida vujudg'ay kelgan. Mutakallimlar Islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar.

Islom dini 5 “asos” yoki “ustun” (arkon ad-din al-islomiy)ga ega:

- **Kalimai shahodat;**
- **Namoz o'qish;**
- **Ro'za tutish;**
- **Zakot berish;**
- **Imkoniyat topilsa haj qilish.**

Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan.

Islom mafkurasining ezguligi shundaki, u insonni o‘qib o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglashga chaqiradi. «Qur‘on karim» da «ilm» so‘zidan olingan «alima» (bilmoq) so‘zining 750 marotiba qayta – qayta kelishi ham bejiz emas. Ta’limotning markazida inson turadi. «Qur‘oni Karim» ning juda ko‘p oyatlarida insonni aziz va mukarram qilib yaratilganligi, unga yer va osmondagi barcha unsurlar buysundirib ko‘yilganligi alohida uqtirib o‘tilgan.

Islom mafkurasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, «Qur‘oni karim» islomga xos bo‘lgan barcha g‘oyalarni, qarashlarni o‘zida ifoda etgan eng asosiy manba sifatida odob – axloq, ota – ona va qarindosh – uruglarga hurmat, miskinlarga muruvvat, yetim – yesirlarga xayr – saxovat, o‘zgalar haqqiga xiyonat etmaslik va do‘stlik, birodarlik hamda o‘zaro hamkorlik singari ezgu g‘oyalar mujassamlashgan. Islom mafkurasini xalifalik davlatining butun bir maqsadi, ijtimoiy – siyosiy g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan mafkura sifatida, nafaqat arablar orasida balki, butun musulmon olamida yangi sivilizatsiyaga asos soldi.

Islom mafkurasining rivojlanishiga Movarounnahrda yetishibchiqqan allomalar katta hissa qo‘shdi. Jumladan, Imom Buxoriy kitob holiga keltirgan hadislar to‘plami — "Al-Jomi‘ as-Sahih" islom dinida Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Buxoriy va uning safdoshlari islom ilohiyotining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha muhim tadqiqotlar qildilar. Jumladan, Islom nazariyotchiligidagi yuqori baholanadigan „Ilal ashshariat va Xatm ul-Asliyyot“ risolasini ta’rif etgan.

Hakim Termiziy, Islom huquqshunosligini o‘rganishning asosiy qo‘llanmasi hisoblangan, "Hidoya"ning muallifi Burhoniddin Marg‘inoniy, islom aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan Imom Moturidiy, buyuk faqih Abu Lays Samarqandiy, musulmon dunyosining eng e‘zozli muxaddislaridan Iso Termiziy, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan.

Zamaxshariy, tasavvufda o‘ziga xos iz qoldirgan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mahdumi A‘zam, Najmiddin Kubro, So‘fi Olloyor, Xo‘ja Ahror, Abduxoliq G‘ijduvoni va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon e‘tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg‘unlash-tirganliklari tufayli O‘rta Osiyoda madaniy hayotning qator sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi.

Islomning insoniyat tamadduni tarixidagi ahamiyatini ommaga tushuntirishda, Turon zaminida yetishib chiqib islomiy ilmlar xazinasini boyitgan ulug‘ allomalarning merosini xalqqa yetkazishda Eshon Boboxon Abdumajidxon o‘g‘li, mufti Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon, Alixonto‘ra Sog‘uniy, marhum shayxlar Ismoil Maxdum (1893 — 1976), Abdug‘ani Abdullo (1928-1999) va Yusufxon Shokirov (1926-2000)larning xizmati kattadir.

XXasr oxirlaridan boshlab mamlakatimizda islom bo'yicha ob'yektiv tadqiqotlar olib borish imkoniyati tug'ildi. O'zbekistonlik olimlar Islom manbashunosligi, Qur'on tarjimai va tafsiri, Islomdagi mazhablar, oqimlar, mashhur muhaddis va faqihlar, xalqaro Islom tashkilotlari, diniy bag'rikenglik, diniy ekstremizmga oid bir qancha asarlar yozdilar (marhum M. A. Usmonov, shuningdek, N. Ibrohimov, H. Karomatov, A. Mansurov, A. Hasanov, Z. Husniddinov, Z. Islomov, U. Uvatov, B. Eshonjonov, B. Abduhalimov, A. Juzjoni, A. Mo'minov, A. Azimov, R. Obidov va boshqalar)[42].

Islom ta'limoti asrlar davomida shakllandi va taraqqiy etdi. Ezgu g'oyalar bilan yog'rilgan bu ta'limot ko'plab xalqlarning diniy qadriyatlariga aylandi. Agar uni diniy ta'limot sifatida eng so'ngi va eng mukammal ta'limot deb qaraydigan bo'lsak, uning bugungi kungacha odamlar hayotida va jamiyat taraqqiyotida qanchadan – qancha ezgu amallarning ilhomchisi va targibotchisi bo'lganligini anglaymiz.

Mafkuraviy immunitet haqidagi fikrlar Sharqda, ya'ni Turon zaminda esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), SHarq Aristoteli deb nom olgan Abu Nasr Forobiy (873-990 yy.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar.

Ilk o'rta asrlarda asos solingan Ma'mun akademiyasi butun sharq va g'arb olamida shuhrat qozongani barchamizga ma'lum. Xalqimiz tarixida o'chmasiz qoldirgan Abu Rayxon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning asarlarida ham mafkura masalalari keng oritib berilgan.

Tasavvuf ilmining yirik namoyondalari Ahmad Yassaviy(1041–1166 yy.). Najmiddin Qubro (1145–1221 yy.) Naqshbandiya (Xojagon) tariqati asoschilaridan Abduxoliq G'ijduvoni (1270 y. vafot etgan, Bahouddin Naqshband (1318–1389 yy.) Mavlaviya tariqati asoschisi Jololiddin Rumi (1207–1273 yy.)ning qarashlarida, shu bilan birgalikda el – yurt ozodligini o'z hayotidan ham ustun

qo‘ygan Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi mardlik va jasorat timsoli bo‘lgan bobolarimiz ham milliy g‘rur, ifixor, vatanparvarlik timsoli sifatida xalqimizning iftixoriga aylangan. El – yurt ozodligini o‘z hayotidan ham ustun qo‘ygan Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi mardlik va jasorat timsoli bo‘lgan bobolarimiz butun xalqimizning iftixoriga aylangan[6].

Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o‘z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she‘rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma‘rifatsizlikka qarshi kurash g‘oyalarini ulug‘laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma‘rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlarida o‘z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o‘zi ham qator bunyodkorlik ishlariga boshqosh bo‘lgan.

Ko‘hna Turon o‘z boshidan o‘tkazgan tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g‘oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi sultonlar qatoridano‘rin olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo‘lsa-da, asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik bo‘lgan. Jumladan, u “Temur tuzuklari”da: “Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarni etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko‘rsatma beradi. Shu orinda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Amir Temur o‘z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo‘ladi, degan fikrlari nihoyatda o‘rinlidir.

Ga‘rb uygonish davrida yashagan N.Makiavelli (1469–1527 yy.), Tomas Mor (1478–1535 yy.), Jordano Bruno (1548–1600 yy.) fikrlari va ta’limotlarida ham mafkuraviy qarashlari bayon etilgan.

Yangi davr G‘arb bunyodkor g‘oyalari va ta’limotlari F.Bekon (1561–1626), R.Dekart (1596–1650), T.Gobbs (1588–1679), D.Look (1632–1704), B.Spinoza (1632–1677), G.Leybnits (1646–1716). Dj.Berkli (1685–1753), D.YUm (1711–1776), A.Volter (1694–1778), P.Golbax (1723–1789). Nemis klassik falsafasining namoyondalari: I.Kant (1724–1804) asarlarida bayon qilingan.

XVIII-XIX asr mafkuraviy qarashlari Nodira (1792–1843), Uvaysiy (1789–1850), Dilshod (1800–1906). A.Donish (1827–1897), Berdaq (1827–1900), Furqat (1850–1903), Avaz O‘tar (1884–1919) asarlarida ham bayon qilingan.

XX asr taraqqiyparvarlari bo‘lmish M.Behbudiy (1879–1919), M.Abdurashidxonov (1878–1931), A.Fitrat (1886–1937), A.Avloniy (1878–1934) qarashlarida ham mafkura va mafkuraviy qarashlar masalalari keng yoritilgan.

Hind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandi (1869–1948) o‘z ma’naviyati, g‘oyalari va ilg‘or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylangan. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o‘zaro do‘stligini mustahkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir-biriga bog‘lashga harakat qildi. Unga xalq «Mahatma» - «Buyuk qalb» deb nom bergani ham shundan bo‘lsa, ajab emas. R.Tagor fikriga ko‘ra: «Gandi muvaffaqiyatining siri uning jo‘shqin ma’naviy kuchida va behad darajada o‘z manfaatlaridan voz kechishidadir. U o‘zining olihimmatligi bilan noyobdir. Gandi hayotining o‘zi fidoyilik timsolidir».

Mafkuraviy va ma’naviy tahdidlarning asl maqsadi nima ekanligi va ularning ma’naviy hayot uchun qanday xavflar keltirib chiqarishi ustida gapirib O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning shunday fikrlarni aytib o‘tgan edilar: «Agarki masalaga amaliy ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj-bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyatlarga, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiytaraqqiyotga chorlaydigan, shu yo‘ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo‘lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglaydi[30,14].

Milliy mafkurasiz jamiyat ma’naviyat hayotini yuksalib borish zamini bo‘lish bilan birga u ma’naviyatimizni ezgu maqsadlar yo‘lida yengilmas kuchga aylanishini ta’minlab beradi. Milliy g‘oyasiz va yuksak ma’naviyatsiz odamlar, jamiyat va davlat yo‘lini yo‘qotadi.

Milliy mafkura jamiyatni yuksaltirish va ma’naviyyetuklikka erishishi yo‘lidagi, jamiyat a‘zolarini oliy maqsadlar sari yetaklab boruvchi bayroq misolidir. Milliy mafkuraxalqni, millatni birlashtiradi. Jamiyatning har bir a‘zosini ma’naviy kamolotga erishishini ta’minlab beradi. Mafkuraviy immunitetjamiyatning har bir a‘zosini yuksak ma’naviyat belgilaridan hisoblangan vatanparvarlik, fidoyilik singari fazilatlarini shakllantirib beradi. Ularni Ozod va obod Vatanni yaratish yo‘liga safarbar etadi. Mafkuraviy immunitetma’naviy hayotini yuksaltirish yo‘lidagi olijanob vazifalarni bajarish bilan birga jamiyatning har bir a‘zosida ertangi farovon hayotimizga ishonchni shakllantirib beradi.

Yuksak ma’naviyatni shakllantirish yo‘lida, mamlakatimiz kuch-qudratini oshirish yo‘lidagi xizmat qiladigan milliy g‘oya haqida to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edilar: «... u Vatanimizning shonli o‘timishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish,

shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan mafkura bo'lishi kerak»[32,92].

Milliy mafura jamiyatimiz a'zolarini bosh g'oyasi bo'lgan Ozod va obod Vatanni yaratish, erkin va farovon yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalab boradi. Ma'naviyat doimo har bir shaxsning, butun jamiyatning e'tiqod va qadriyatlariga aylangan g'oyalari, me'yorlari va omillaridandir. Ma'naviyat xalqimizning boy madaniy merosida qadimdan shakllanib kelgan urf-odatlar va an'analarida o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda tarixiy ildizlariga ega milliy mafkurama'naviy hayotni yuksaltirishga xizmat qiladigan fazilatlarni shakllantirib berish bilan birga turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o'rtasidagi hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo'lidagi jipslashuvni ta'minlab berishga xizmat qiladi. Milliy mafkura O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidan, e'tiqodidan jinsidan qat'iy nazar barcha O'zbekistonliklarning manfaatlarini ifodalay bilishi kerak. Mafkuraviy immunitet har bir shaxsning o'zligini erkin namoyon etishga, ma'naviy kamolotga erishish yo'lida shart-sharoit bo'lib xizmat qilishi lozim. Mafkuraviy immunitetjamiyatning ma'naviy hayotini yuksalishiga to'siq bo'luvchi turli illatlarni oldini olishda katta ahamiyatga egadir. Mafkuraviy immunitetning jamiyat hayotini yuksaltirishga xizmat qiladigan yetuk avlodni tarbiyalab berishdagi o'rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun ham mafkuraviy immunitetning asosiy vazifalaridan biri barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalashdir.

Mafkuraviy immunitetjamiyatning har bir a'zosini yovuz g'oyalar ta'siriga tushib qolishdan asrab qolish bilan birga ularni sog'lom fikrlashga ulg'ayib kelayotgan avlodning, talabalarinio'z xalqi va Vatani ravnaqi yo'lida xizmat qilishini ta'minlab beradi. Bugungi kunda jamiyat a'zolarinin ayniqsa O'zbekistonning kelajagi bo'lgan talabalarni ongi va qalbini zaharlashga intilayotgan, jamiyatimizning ma'naviy hayotini parokandalik holatiga tushirishga harakat qilayotgan ma'naviytahdidlar mavjuddir. Manashundayma'naviy tahdidlarni oldini olishda mafkuraviy immunitetning katta rol o'ynaydi. Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavfostida qolayotganini kuzatish mumkin. Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan topishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”2017yil7fevraldagi ПФ-49-47-sonfarmonidagiustuvor yo‘nalishlarning birinchisi Davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat boshqaruvi sohasini erkinlashtirish borasida institutsional, funksional va tizimli o‘zgarishlar mohiyati, O‘zbekistonda davlat hokimiyatining bo‘linishi tamoyili va huquqiy asoslari,O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, davlatning strategik dasturlarini qabul qilishda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimi va vakolatlari haqida keng va batavsil yoritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,yoshlarda milliy mafkuraning mazmun mohiyatini to‘liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirishni eng muhim vazifa sifatida belgilab olmog‘imiz lozim.Bu yo‘lda albatta tinmay izlanib, tadqiqotlar olib borib, azaliy qadriyatlarimizni mujassamlashtirgan milliy mafkurani ishlab chiqmog‘imiz darkor . Har qanday jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ilm-fanning rivojisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, ilm va ma‘rifat moddiy va ma‘naviy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida jamiyatning bugungi kunini va kelgusidagi istiqbollari belgilab beruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyoning boshqa mintaqalarida kuzatilayotgan “pandemiyaning navbatdagi to‘lqini” va u bilan bog‘liq xavf-xatarlar hammamizni yanada hushyor va ogoh bo‘lishga undamoqda. Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining “Tiriklik hikmatini sog‘liqda, deb bilgin”, degan chuqur ma'noli so‘zlari naqadar to‘g‘ri ekanini hayotning o‘zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda.

O‘tgan davr mobaynida eski tuzumdan og‘ir meros bo‘lib qolgan illatlar, el yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko‘hna an‘ana va qadriyatlarini, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma‘naviy yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan olijanob maqsad, hal qiluvchi mezon deb qarab, shu asosda ish olib borish doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda. Shundaysharoitda albatta xalqimizongida mafkuraviy immunitet tushunchasi bo‘lmo‘g‘ikerak.Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotadi.

Bugungi kunda tarixiy ildizlariga ega milliy mafkura ma‘naviy hayotni yuksaltirishga xizmat qiladigan fazilatlarni shakllantirib berish bilan birga turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o‘rtasidagi hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo‘lidagi jipslashuvni ta‘minlab berishga xizmat qiladi. Milliy mafkura O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidan, e‘tiqodidan jinsidan qat’iy nazar barcha O‘zbekistonliklarning manfaatlarini

ifodalay bilishi kerak. Ma'furaviy immunitet jamiyatning ma'naviy hayotini yuksalishiga to'siq bo'luvchi turli illatlarni oldini olishda katta ahamiyatga egadir. Ma'furaviy immunitetning jamiyat hayotini yuksaltirishga xizmat qiladigan yetuk avlodni tarbiyalab berishdagi o'rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun ham ma'furaviy immunitetning asosiy vazifalaridan biri barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalashdir. Ma'furaviy immunitet har bir shaxsning o'zligini erkin namoyon etishga, ma'naviy kamolotga erishish yo'lida shart-sharoit bo'lib xizmat qilishi lozim.

II BOB. TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONI

II.1 Ma'furaviy immunitetni shakllantirishning qonuniyatlari va tamoyillari.

Insoniyat tarixi ma'naviyat- insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan talabalarni tarbiyalashda ma'furaviy immunitet roli beqiyosdur. Mana shu ma'furaviy immunitetning jamiyatga xizmat qiladigan, yoshlarda shakllanishida asos bo'ladigan qonuniyatlari, tamoyillari bo'lmog'i lozim.

Prezidentning Oliy Majlisga 2020 yil 29 yanvarda qilgan Murojaatnomasida, O'zbekiston talabalarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berar ekan, uning yechimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar ko'p ekanligini ta'kidlaydi. Ma'furaviy immunitetning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, eski ma'furani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo'q emas. Shu bois Prezident mamlakatimiz ma'furasining asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tdi: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning ma'furasi ezgulik,

odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, deydi Prezident.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitda milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, suiste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, talaba yoshlarongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ta'kidlagan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ma'naviyat va ma'rifat soha xodimlari bilan o'tkazilgan yig'ilishdaijtimoiy-ma'naviymuhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda, jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayapti", - deb ta'kidlaydi.

Ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalarni yanada chuqurroq o'rganib, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini kuchaytirishimiz lozim. Bunda albatta mafkuraviy immunitetning o'ziga xos qonuniyatlari va prinsiplari bo'lmog'i lozim.

«**Mafkuraviy immunitet**» tushunchasini quyidagicha ta'rif berish mumkin: Harqanday kasallikning oldini olishda insonorganizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz bo'lajak o'qituvchilarimiz, farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirib, ularning **mafkuraviy immunitetini** ozuqlantirimog'miz darkor.

«**Mafkuraviy immunitet**» - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotgan, belgilaydigan ma'naviymezon hamdir. Mafkuraviy immunitetning yurtimizda yashovchi har bir fuqaroda mavjud bo'lishi quyidagi **umuminsoniy tamoyillarga** asoslanadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanganligi.

2. Umumbashariy tamoyillar va milliy manfaatlariga mos bo'lishi.

3. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'g'itlariga sodiqligi;

4. Bu milliy mafkuramizning chuqur tarixiy va boy ma'naviyasosga ega ekanligi;

3. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodida aks etganligi.

4. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini yo'lida barchani safarbar etishni ta'minlashga xizmat qilishi;

5. Jamiyat a'zolarini maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, ertangi kunga bo'lgan ishonchi ta'minlashi.

6. Millati va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona -Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini shakllantirish;

7. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l tanlay olishligi;

“Mafkuraviy immunitet” shakllanishida ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalar, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi bilan birgalikda mafkuraviy tarbiya tamoyillarga e'tibor qaratmog'imiz darkor.

Shuorinda, ezgulik, ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalar, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi bilan birgalikda mafkuraviy tarbiya tamoyillarini o'zida mujasammalshtirgantarbiya faniga izoh bersak.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi [47,190]. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. “Tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”[2].

Pedagogika faniga doir adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va talabalar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun

ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tarbiya tor ma'noda shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiyma'naviy sifatlari qaror topishini ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb eta oladi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Tarbiyaviy ishlar zahirida yosh avlodda, bo'lajak tarbiyachilarda mafkurviy immunitet shakllanadi va rivojlanadi.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotininghar bir bosqichida turlicha izohlab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'lib va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarashlar shakllangan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbotlab berdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.

Sho'ro davridagi pedagogikada har qanday odamni tarbiya orqali istalgan ijtimoiy qiyofaga solish mumkindigan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga ortiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyaga berilishi yoki berilmaslik xususiyatlarini hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da, olomon tarzida qarashlar vujudga keldi. Bu hol tarbiyaning samarasiz bo'lishiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy ob'yekti bo'lmish shaxs va uning

o'zigaxoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga boribtaqaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyava unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda esa g'ayriilmiy, sinfiy, partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliy jihatlari e'tibor qaratilib rivojlanishi uchun zamin yaratildi. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganila boshlandi va bugungi kunda izchillik bilan davom ettirilmoqda. Natijada, milliy pedagogika fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berishga ham barham berildi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi. Tarbiya insonda odamiylik ezgulik g'oyalarini shakllantiruvchi bosh omildir.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablar ham qo'yilmoqda. Ushbu talablarni bartaraf etish uchun O'zbekistonda "Tarbiya" fani konsepsiyasi ishlab chiqilib, ta'lim-tarbiya sohasidagi mavjud muammolarni hal etishga yo'naltirildi. Konsepsiyada yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlar belgilab berildi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

YOsh avlodni qat'iy e'tiqod ruhida tarbiylash, yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zararli odatlarga qarshi kurasha oladigan ta'lim-tarbiyani shakllantirish dolzarb muammolardan biridir.

Bo'lajak tarbiyachilar ongi va qalbiga milliy mafkura g'oyalarini singdirish ularning ma'naviyatini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini shakllantirish va rivojlantirish, insoniyat hayotiga katta xavf solayotgan ofatlarning mavjudligi anglab, ta'lim-tarbiya masalasini birinchi o'ringa qo'yishimiz lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev 2020 yil Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida quyidagi fikrni bildirdi:

“Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi[11].

Bo‘lajak tarbiyachilarmizni mafkuraviy immunitetini ozuqlantirishda, xavf-xatarlar, tahdidlar, ma’naviyatni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday salbiy ta’sirlarga qarshi kurasha oladigan **mafkuraviy immuniteti mustahkam** kuchli shaxslarni shakllantirishda bir qator fanlarni ixchallashtirib, tarbiya fani joriy etilishi ayni muddao bo‘ldi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyundagi 422-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorda umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlari o‘rnida yagona Tarbiya fani joriy etildi. Bu fanning o‘qitilishida esa, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning ta’limdagi tajribalari o‘rganildi, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar

tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish, buning natijasi o'laroq, oila-jamiat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

Bu, o'z o'rnida, O'zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

Har qanday mafkuraviy jamiyatda yangi paydo bo'lgan ijtimoiy siyosiy kuchlarning talab-ehtiyojlari, maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g'oyaviy tizim sifatida vujudga keladi va, asosan, quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi: muayyan g'oyani odamlarning ongiga va ruhiyatiga singdirish, aholining turli guruhlarini birlashtirish, ko'zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish ularni ma'naviyruhiy rag'batlantirish aholini, ayniqsa, yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish, boshqa mafkuraviy va g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilish. Mafkura muayyan falsafiy, diniy ta'limotlar asosida yaratiladi, ma'lum ilmiy qarashlar, axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkura o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra, jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, davlatning jahondagi obro' va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin. Yuksak maqsadlar, bunyodkor g'oyalarga asoslangan bo'ladi

Mafkura ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'ladi, ma'naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug'vor ishlarga safarbar etadi. Ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g'oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkura bunyodkorlik xususiyatiga ega bo'ladi. Hukmronlik, mustabidlik, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik g'oyalari asosida shakllangan, millat va xalqlarni asoratga soladigan mafkura vayronkorlik xususiyatiga egadir.

Demak mafkuraviy immunitetni shakllanishida, rivojlanishida, ozuqlanishida tarbiya fanning o'ni beqiyosdir. Obodli pedagog va o'qituvchilarni tabiyalashda albatta, tarbiya fanining qirralarini mukammal o'rganmoq hamda bilimlarni puxta egallamoq lozim. Zero, XV asrda yashagan ulug' mutaffakir bobomiz Hazrat Alisher Navoiy tarbiya, odob haqida, "Odob— bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarning obro'sini tushurmaslikdir",

“Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir”, degan fikrlari bejizga emas[18, 290].

Tarbiya fani demak, talabalarda salbiy oqibatlar domiga tushib qolmasligi uchun qilinadigan ishlarimizning mazmun–mohiyatini va maqsad – vazifalarini yangidan belgilab olish zarurligini, hayotimizning turli jabhalariga texnika – texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari kirib kelishi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ayniqsa axborot almashinuvining chegara bilmasligi va vaqt tanlamasligi, **“INTERNET”** ning global tarmog‘idan turli xil kerakli va keraksiz axborotlarni tarqatishga bo‘lgan urinishlar ushbu sohada ishlarni modernizatsiya etishni taqozo qilmoqda. Modernizatsiyalashda esa ta‘lim mazmuni bo‘yicha multimediyali texnologiyalar va dasturiy o‘quv – metodik majmualar ishlab chiqish hamda ulardan amalda foydalanish bo‘yicha qonun, qoida, mezon, tamoyil va nazorat ishlari mavjudligiga e‘tibor qaratilmoqda.

Talaba yoshlar mafkuraviy tarbiyasi rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarini yaratishi, ular ongiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yot g‘oyalarni va ta‘sirlarni falsafiy, ijtimoiy, pedagogik–psixologik, ilmiy–nazariy, ilmiy–amaliy jihatdan o‘rganish va erishilgan natijalar asosida talabalarda mafkuraviy immunitetni axborot texnologiyalari yordamida shakllantirish tushuntirish ham bugungi kunda juda dolzarbligicha qolmoqda. Bu talaba yoshlar ma‘naviy tarbiyasini axborot texnologiyalar yordamida takomillashtirish muammosini hal etilishi, ushbu sohaning o‘ta dolzarb muammosi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. “Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli umumta‘lim maktablarida “Tarbiya” fanini joriy etmoqdamiz.

Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi sifatida bugungi kunda ham o‘zining qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur”.

Tarbiya fanlarida talabalarining mafkuraviy immunitetini muntazam ravishda mustahkamlab borishni o‘ylagan holda ularning g‘oyaviy–siyosiy, ma‘naviy–ma‘rifiy tarbiyasini mavjud tahdidlar va xavf–xatarlarga qarshi kurasha oladigan imkoniyatni kafolotlovchi ma‘naviy–ma‘rifiy tarbiyasini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o‘ta muhim. Ushbu jarayonni qadimiy nodir qo‘lyozmalar va yodgorliklar, ota–bobolarimiz yaratgan boy tarixiy–ma‘naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyat kabi mafkuraviy

immunitet kategoriyalaridan foydalanib amalga oshirish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Bunda zardushtiylar ta'limoti bo'lmish "Avesto"da, ulug' donishmand–mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug'bek, YUsof Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad YAssaviy, Naqishbandiy, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Valiy, Imom al – Buxoriy, Az – Zamaxshariy va boshqa shu kabi mutafakkirlar asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ularda mazkur muammo echimini hal etishga oid boy ilmiy meros bor.

Talabalarining mafkuraviy immunitetini takomillashtirish texnologiyasini aynan axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish bugungi kundagi muhim dasturlardan biri besh tashabbus doirasida ham o'rgatilmoqda va ilmiy tadqiqot mavzularida yoritilmoqda.

Bugungi kunda barcha ta'lim bo'g'inlarida tarbiya fanining joriy etilishi, konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashdagi asosiy prinsiplar quyidagilar;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibliigi.

Tarbiya fanini bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning mafkuraviy tarbiyasini olib borishning pedagogik va psixologik jihatlari aniqlab, ularga mos ilmiy –nazariy asoslari yaratildi. Talabalarga mafkuraviy tarbiya berishni axborotlashtirishning ilmiy – nazariy asoslari va ularni joriy etishning bosqichlari ishlab chiqildi. Talabalar mafkuraviy tarbiyasi va ularning axborot-kommunikatsion texnologiyasi asoslarini ishlab chiqish bo'lajak mutaxassislarni milliy mentalitetga sodiq, mafkuraviy immuniteti kuchli, intellektual, salohiyati keng qamrovli va kasbiy – ma'naviy etuk qilib tarbiyalashga mustahkam didaktik asos bo'ldi.

Tarbiya faning joriy etilishi bo'lajak mutaxassislarni zamon talabi asosida va raqobatbardosh etib tayyorlashda ta'sirchan metodlar, universal didaktik vositalar, ilg'or texnologiyalar, ishonchli va mukammal axborot-kommunikatsion texnologiyani yaratishga va ulardan amaliy faoliyatda keng foydalanishga imkoniyatlar yaratdi. Bo'lajako'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga integrativ yondashuv texnologiyasi yaratildi.

Milliy g'oya, mafkura, mafkuraviy immunitet tushunchasi va atamalari pedagogika turkumidagi fanlar mazmunini boyitishga xizmat qildi va ulardan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "Dinshunoslik " kabi fanlarni birlashtirib "Tarbiya" fani doirasida o'qitish orqali talabalarga ma'naviy – axloqiy tarbiyani yuksaltirishda xizmat qiladi.

Ayni paytda dunyoda globallashuv zamon shiddat bilan rivojlanmoqda va tabiiyki unga mos ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot ham o'zining yangi sifat bosqichiga o'tmoqda va bu borada davlatimiz rahbariyati barkamol avlodni yuksak ma'naviy-intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga kuchli e'tibor bermiqda.

Ma'lumki, siyosiy barqarorlik bo'lmasa mamlakat o'z oldiga qo'ygan tarixiy va istiqbolli vazifalarni amalga oshira olmaydi. Bu borada mavjud salbiy ta'sirlarga bog'liq har bir ijtimoiy hodisaning u yoki bu darajada milliy xavfsizligimizga taxdid solish xavfi har doim ham mavjud.

Salbiy tahdidlar va xavf-xatarlarga qarshi kurasha oladigan yoshlarni tarbiyalash muammosi hozirda ijtimoiy muammo hisoblanadi. SHu sababli milliy ma'naviyatga xavf tug'diruvchi omillar mavjudligini doimo his qilgan holda yosh avlod tarbiyasiga ta'sir etadigan turli tahdidlar oldini olishga oid omillarga e'tibor qaratish zarur. Buning uchun talabalarni tashqi salbiy holatlar hamda ularning o'zaro aloqadorligi haqida batafsil ma'lumotlar bilan ta'minlash lozim. Ammo yuqorida qayd etilgan yot va zararli g'oyalar hamda ularga tegishli ma'lumotlar ko'lami shu darajada ko'pki, uni birgina o'qituvchining esda saqlab qolishi va ulardan talabalarga mafkuraviy immunitetini ozuqlantira oladigan tarbiya berishda katta qiyinchiliklarni tug'diradi.Tariya fani O'zbekistonda uchinchi Renesans davrida talabalarning talabalarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning asosi bolib xizmat qiladi.

Tarbiya fani Talabalarning mafkuraviy immunitetini tarbiyalashda ma'lumotlar va ma'naviy-immunologik tarbiyaning metodologik asoslarini amaliy faoliyatga joriy etishga oid didaktik materiallardan muammo echimini hal qilishda kerakli manba sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar, olmosdanbo'lur o'tkur.

Fikrning oyinasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir qo'lurbenur [19].

Bunday sharoitda,ya'ni amaldagi mafkuradan voz kechilgan, yangi mafkuraning konseptual tamoyillari hali ishlab chiqilmagan bir sharoitda izchil oilaviy tarbiya ko'rmagan,o'zligini anglab olishga ulgurmagan ayrim yoshlarimiz ongida mafkuraviy bo'shliq (vakuum) hukm surardi.Bunday yoshlarni begona mafkuralar ta'siridan himoyalash ham dolzarb vazifabo'lib qoldi. Chunki,

mustaqillik arafasida (oshikoralik davrida) va mustaqillikning ilk davrlarida turli ekstremistik oqimlar, diniy aqidaparastlar, diniy-konfessional yo‘nalishdagi missionerlik tashkilotlari mafkuraviy qadriyatlari shakllanmagan soddadil yoshlarimizni, ularning fikru-zikrini o‘zlarining millatni deformatsiya qiluvchi g‘oyalariga xizmat qildirish maqsadida buzg‘unchi kuchlar safiga qo‘shib olishga shay turishardi. Bismamlakatimiz mafkuraviy mustaqilligini saqlashga, mamlakatda barqaror tinchlikni ta‘minlashga qarshi qaratilgan katta xavf edi. Ayniqsa, ko‘p millatlar va elat vakillari yashaydigan, turli din va diniy konfessiyalarga e‘tiqod qiladigan aholi yashaydigan bizning yurtimizda millatlararo, dinlararo mojarolar boshlanib ketish xavfi keskinlashishi mumkin edi.

Sobiq Sovet davrida musulmonchilik an‘analaridan ham birmuncha begonalashib qolgan edi. Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi bilan mamlakatimizda diniy e‘tiqod erkinligiga keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, dinga, diniy tashkilotlarga keng yo‘l ochib berildi. Buyuk hajga borish uchun keng imkoniyatlar berildi. Din bu dunyoning o‘tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo‘lishga va harom yo‘llardan uzoq yurishga, yaxshi bo‘lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz.

Dinga bunday demokratik yondashuvni o‘sha davrda hamma ham to‘g‘ri qabul qilavermasdi. Yurtimizda e‘tiqod erkinligi qaror topishi bilan xalqimiz emin-erkin ibodatlarini davom ettira boshlashdi, ammo, an‘anaviy diniy ibodatlar bilan fundamentalistik g‘oyalarni ajrata olmaydigan ba‘zi yoshlar va hatto ayrim soddadil kattalar ham dinni bir yoqlama tushuna boshladi. Bunday kishilar ongiga diniy qadriyatlar sifatida turli xil diniy aqidaparastlik g‘oyalari bilan mutaassiblashgan oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalarning tamoyillari ham suqilib kira boshladi. Ayniqsa, arab mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan fundamentalistik kuchlar vahobiylik g‘oyalarini, Turkiyadan diniy ma‘rifatparvarlik shiori ostida nurchilarning siyosiy hokimiyatni egallashga chaqiruvchi g‘oyalari, dinni siyosiy lashtirib talqin etuvchi hizbut-tahrirchilar harakati hamda ular bilan til biriktirgan mahalliy oppozitsion guruhlarining faoliyati ham kuchaya boshladi. Bunday vaziyatda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining konseptual asoslarini ishlab chiqish hayotiy zaruriyatga aylangandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021yil 29yanvada Oliy majlisga qilgan Murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan, ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”[11], degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni nazarda tutib;

Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta‘lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma‘naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Uchinchidan, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bu vazifalarning mazmun mohiyatida milliy manfaatlar, milliy istiqlol, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va milliy mentalitet masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Shu asosida xalqni milliy manfaatlar himoyasi yo'lida birlashtirish uchun xalqning mafkuraviy konsepsiyasini ishlab chiqish lozim.

Bu konsepsiya mustaqillikning ilk kunlardan boshlab milliy mafkuraning konseptual asoslarini ishlab chiqish lozimligiga alohida e'tibor berib, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingan kunning bir yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali majlisda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlantirish nazarda tutilgandi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilishi mumkin emas degan konstitutsiyaviy qoida bizning oldimizga milliy mafkuramizni yaratish vazifasini dolzarb qilib qoygan edi. Milliy mafkura xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qilishini lozim. Milliy mafkurabugungi kunda ham nihoyatda dolzarb masala.

Mustaqillikning ilk kunlarida birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri Erkin A'zamov bilan suhbatda milliy mafkura masalasi bosh mavzu sifatida muhokama qilgan edi. Bu suhbatda mafkuraning mohiyati, uning asosiy vazifalari, totalitar mafkuraning oqibatlari, jahondagi mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy poligonning har qanday harbiy poligonlardan xatarli ekanligini ta'kidlagan edi. Milliy mafkuraning xususiyatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelish sabablari, mafkuraviy immunitet va uning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish yo'llari, mafkurasizlik, mafkuraviy nigilizm va boshqa masalalar bu suhbatda muhokama qilingan edi. Shunday suhbatlar va fikrlari O'zbekiston Respublikasida mafkuraviy immunitetning mazmun mohiyatini, qonuniyalari va tamoyillarining vujudga kelishida, rivojlanishiga xizmat qildi.

Bu milliy mafkuraning tarkibida millit tariya, milliy qadriyat, milliy an'ana, milliy g'urur, urf-odatlarga bo'lgan masalaning shakllanishga turtki bo'ldi.

MAFKURAVIY TARBIYA - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Ma'naviy tahdidlarni oldini olishda yuksak ma'naviyatga erishish yo'lida milliy mafkuraning tutayotgan o'rnini va bajarayotgan vazifalarini quyidagilarda ko'rib o'tsak bo'ladi.

-Jamiyat a'zolarining dunyoqarashlarini boyitish, ularga chuqur bilim berish, tafakkur erkinligini shakllantirib borish;

-O'zbekistonning har bir fuqarosini Oliy maqsadlarga eltuvchi taraqqiyot modelini asoslash, yuksalish sari intilib borayotgan jamiyatimizda ma'naviy shaxs qanday bo'lishini ham mantiqiy, ham nazariy jihatdan asoslab berish;

- Milliy mafkura ma'naviy hayotni yuksaltirish yo'lida tarbiyaviy vazifalarni ham bajarib borib, u jamiyat a'zolarida axloqiy, huquqiy va estetik me'yorlarni yuksaltirib borishni ta'minlab beradi.

- Milliy mafkura milliy jipslikni ta'minlab berish bilan birga har bir millatning madaniy manfaatlarini ham himoya qiladi.

Milliy mafkura ma'naviy jihatdan etuk bo'lgan barkamol insonlarni voyaga etkazib borar ekan, u inson ma'naviyatiga xos ekanligini asoslab beradi. Bugungi jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan davrda Milliy g'oyaning oldiga muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifalar yuklatilmoqda.

Milliy mafkura hech qachon nazariy tafakkur natijasi bo'lib qolishi mumkin emas. U har bir shaxsning ma'naviy e'tiqodida, amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi bilan birga ma'naviy hayotni yuksaltiruvchi omil bo'lib qolishi kerak.

Milliy mafkura jamiyat a'zolarining ongi va qalbiga ma'naviy va tarbiyaviy ishlar birga, singib borish bilan birga, u kishilarda birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik, faollik, fidoyilik shakllarida namoyon bo'ladi.

Milliy mafkuraning ma'naviy hayotdagi ahamiyati onglilik, birlik va birdamlik shakllarida namoyon bo'ladi.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lmog'i zarur. Shundagina xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli davlatga aylanamiz.

Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz. Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz [11].

II.2 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish tizimi.

Mafkuraviy tizim – mafkuraviy ishlarniboshqarish,jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta’lim maktablari, professional ta’lim va oliy o‘quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, madaniy ma’rifiy uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlatirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo‘naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingibo‘sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san‘at, matbuot,radio, tv,kino, musiqa va h.k.), uslublari (tushuntirish, ishontirish, majbur qilish) va usullarinnig (alohida,jamoaviy, ommaviy) yaxlitbirbutun uyushmasi.Shuningdek,mafkuraviy tizim mafkuraviyta‘sir yo‘nalishlari (aqliy,axloqiy,huquqiy)va uning asosiy sohalari (mehnat, jismoniy,estetik, ekologik, jinsiy vah.k.) ham o‘ziga qamrab oladi.Mafkuraviy tizim bir butun yaxlit uyushma bo‘lib, doimiy o‘zgarib turadi. Ushbu tizim samaradorligiga mafkuraviy ta‘sir jarayonining uzluksizligi, tabaqalashganligiga, kompleks yondoshuvga bog‘liq.

Mafkuraviy ishlar ta‘sirchanligi, hozirjavobliginioshirishdaaholiturli tabaqalarining o‘ziga xos milliy, psixologik, regional, kasb-kor, yoshlik xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Mafkuraviy ta‘sir - Mafkuraviyjarayonninng eng muhim strukturaviy komponentlaridan biridir. Mafkuraviy ta‘sir ikki asosiy – to‘g‘ri,bevosita va o‘zaro aloqadorlikka asoslangan bilvosita shakllar yordamida amalga oshiriladi.Mafkuraviy ta‘sir samaradorligi mafkuraviy ta‘sir ob‘ekti va sub‘ektiga bog‘liqbo‘ladi. Chunonchi, mafkuraviy ta‘sir samaradorligimafkraviy ta‘sir o‘tkazilishilozimbo‘lgan kishilarning (ob‘ekt) ma‘lumot darajasi, madaniy saviyasiga bog‘liq bo‘lsa, o‘z navbatida mafkuraviy ta‘sir o‘tkazayotgan idoralar, tarbiyaviy muassasalar, targ‘ibot va tashviqotchilar(sub‘ekt) amalga oshirayotgan mafkuraviy tadbirlar mazmuni va shakliga, mafkura xodimlarining professional mahoratiga bog‘liqbo‘ladi.Mafkuraviy ta‘sir o‘tkazilishilozimbo‘lgan kishilarningma‘lumot darajasi, madaniy, axloqiy,huquqiy, siyosiy saviyasi qanchabaland bo‘lsa, mafkuraviy ta‘sir samaradorligi shunchayuqoribo‘ladi. O‘z navbatida, mafkuraviy ta‘sir samaradorligi uning ob‘ekti bilan sub‘ekti orasidagi o‘zaro aloqadorlik mexanizmining mustahkamligigabog‘liq. Bunday

o‘zaro aloqadorlik mexanizmining mazmunida bir- biriga o‘rgatish, bir- biridan o‘rganish, ustozshogird tizimini yo‘lga qo‘ymoq lozim.

Bunday holatdahir bir kishimafkuraviy ta‘sir doirasiga tushadi va o‘sha ta‘sir asosida faoliyat ko‘rsataboshlaydi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishtizimtarixiga nazar tashlar ekanmiz, bunda pedagogikaning o‘rni, tarbiya haqidagi g‘oyalar eramizdan oldingi VI asrda shakllanganligi haqida ma‘lumotlar mavjud.Keyingi davrlarda mafkuraviy immunitetning shaklla-nishida zardushtiylik ta‘limoti, uning muqaddas kitobi "Avesto"da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Qur ‘oni Karim va Hadisi Shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma‘naviyati, axloqi, e‘tiqodi har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo‘llari bayon qilingan. Boy ma‘naviyqadriyatlarimizga munosabatni belgilashdan maqsad, faqat ilmiy madaniy merosni o‘rganish emas, balki betakror xazinamizning ilmiy, amaliy tamoyillarini yangi davrga xizmat qiluvchi qirralarini, hikmatlarini ochish, ularni hayotga tatbiq qilishdan iborat ekanligini mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq belgilab berilgan edi. Mamlakatimizda ma‘naviyat sohasiga alohida e‘tibor berilishi milliy davlatchiligimizning, milliy mafkuramizning asosini mustahkam-lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning ilk kunlaridagi asarlarda g‘oya, mafkura,milliy mafkura, milliy mafkura, ma‘naviyat mafkuraviy immunitet atamalarining etimologiyalarini ochib berilgan. Mafkuraviy immunitet har kungi hayot sharoitlaridan kelib chiqishi bilan birga har bir fuqaroning, davlatning, millatning istiqbolidan kelib chiqishini ko‘rsatdi.Ma‘lumki,g‘oya - insonlarga kuchli ruhiy ta‘sir ko‘rsatuvchi, ularni harakatga keltiruvchi fikrdir.Fikr esa inson bilimlarining va dunyoqarashining mahsuli. Mafkura arabcha «mafkura» - nuqtayi-nazarlar va e‘tiqodlar tizimi, majmui sifatida jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmuidir.

Milliy mafkuraxalqimizning ma‘naviyilmiy mentaliteti, g‘oyalari asosida amalga oshirilayotgan ishlari, jarayonlarda tutayotgan yo‘li, davlatga, jamiyatga, olamga, o‘z-o‘ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iboratdir. Insonning ma‘naviyfaolligi amaliykasbiy faolligi bilan uyg‘unlashganda barkamollik sifatleri tabiiy shakllanadi, rivojlanadi. Aynan ana shu tushunchalarni to‘g‘ri anglashta’lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. Talabalarimizda bolalikdan boshlab sog‘lome‘tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma‘naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo‘lib ulg‘ayadi.Mafkuraviy immunitet tizimli ravishda shakllanib boradi.Uzviylik va ichillik asosida ta‘lim tarbiyaning davom etishi ham talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantiradi va rivojlantiradi. Mafkuraviy dunyoqarash va milliy mafkuralar shunday e‘tiqod asosida shakllanadi. Milliy istiqlool g‘oyasini

talabalarongi va qalbiga singdirishda milliy urf-odat va an'analarimizning, oila va mahallalarning, ayniqsa ta'lim-tarbiya beruvchi muassasalarning o'zi juda salmoqli bo'lib, bu ham pedagogika fani oldiga ulug'vor vazifalarni qo'yadi. Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish dars jarayonida turli usullar, vositalar va yo'llar bilan ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish lozimligini pedagogika belgilab beradi.

MAFKURAVIY TA'SIR

mafkuraviy jarayonning eng muhim strukturaviy komponentlaridan biridir.

Mafkuraviy ta'sir kiasosiy – to'g'ri, bevositavaro'zaro aloqadorlikka asoslangan bilvosita shakllari yordamida amalga oshiriladi. Mafkuraviy ta'sir samaradorligi uning ob'ektiga sub'ektiga bog'liq bo'ladi. CHunonchi, mafkuraviy ta'sir samaradorligi mafkuraviy ta'sir o'tkazilish lozim bo'lgan kishilarning (ob'ekt) ma'lumot darajasi, madaniy saviyasiga bog'liq bo'lsa, o'z navbatida mafkuraviy ta'sir o'tkazayotgan idoralar, tarbiyaviy muassasalar, targ'ibot va tashviqotchilar (sub'ekt) amalga oshirayotgan mafkuraviy tadbirlar mazmun va shakliga, mafkuraxodimlarining professional mahoratiga, ularning insoniy fazilatlariga, xislatlariga bog'liq bo'ladi.

2.3 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy g'oya va ma'naviyatning o'rni.

Jamiyatda yashovchi turli xil millat, elat, xalq, irq, diniy e'tiqod, ijtimoiy tabaqalar, sinf, partiya kabi uyushma, birlashma, tashkilot, jamoalarga mansub bo'lgan odamlar orasida, ularning shaxsiy hamda umumiy manfaatlarini ifodalovchi g'oya va mafkuralar tizimini yaratish, ularni hayotga tatbiq etish mafkuraviy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Al-xusis, mafkuraviy faoliyatsiz hech bir jamiyat yashay olmaydi, bu siz yashab kelayotgan jamiyatni tarixda ham, bugungi kunda ham hech kim uchratgan emas.

Jamiyatda kimlarning aql-idroki, tashabbusi, ilmiy-amaliy izlanishlari orqali yaratilgan fikr, g'oya, mafkura o'z-o'zidan tarqalib, kishilar ongiga avtomatik tarzda singib boravermaydi. Demak, muayyan g'oyaviy tamoyillar va ta'limotlar ishlab chiqilishining o'zi ularning kishilar faoliyatini belgilab beruvchi, unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy hodisaga aylanishi uchun etarli emas. Buning uchun ular kishilar orasida tarqalishi, odamlar ana shu g'oyalar ruhida tarbiyalanishi lozim. Aks holda, har qanday g'oya va mafkura qanchalik to'g'ri, jozibador bo'lmasin, muayyan hodisa sifatida tarix sahifasida qolib ketaveradi. Ayni paytda, har qanday g'oya va qarashlar tarqalishi uchun, eng avvalo, ular ishlab chiqilishi bilan birga,

targ'ib va tashviq etilishi zarur. Mafkuraviy faoliyat esa hamisha shakllangan g'oyaviy qarashlar, baholar va maqsadlar tizimini odamlarga etkazish, ularning ongiga singdirish borasidagi ishlarni amalga oshirish jarayonini anglatadi.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy go'ya va ma'naviyatning shakllanishida mafkuraviy faoliyat biron-bir g'oyani amalga oshirish, uni aholi ongi va qalbiga singdirish, muayyan g'oyaviy qarashlar tizimini shakllantirish, uning amaliyotini ta'minlash, yot va begona mafkuralarga qarshi kurash bilan bog'liq chora-tadbirlar majmui shakllantirishda, u g'oyaviy qarashlar – bilimlar, baholar, maqsadlarni shakllantirish hamda ularni tarqatish, g'oyaviy tarbiyani amalga oshirish, mafkuraviy profilaktika va immunitetni shakllantirish jarayonini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy go'ya va ma'naviyat mafkuraviy faoliyat jarayonida quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Mafkuraviy faoliyat jarayoning keng ommani ezgu g'oyalar asosida tarbiyalash, ularning umumiy siyosiy va ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlarni amalga oshirishga qaratilganligi uning eng muhim xususiyatlaridan biri sanaladi.

2. Mafkuraviy faoliyatkeng ma'noda o'quv muassasalari, ta'lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyatini ham muayyan darajada qamrab olishi bilan o'zgacha xususiyat kasb etadi. Bunda muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar, shuningdek, OAV (gazeta-jurnallar, Internet, radio, TV) muhim o'rin tutadi.

3. Mafkuraviy faoliyat mafkuraviy ishlar muassasalarining keng tarmog'ining tashkil etilishi, ularning o'sishi va takomillashuvi bilan unga rahbarlik qilish jarayonining ham mukammallashib borishi, rahbarlik qilish san'atining yangi qirralarini topishga bo'lgan ehtiyojning kuchayib borishi bilan ham ayrica xususiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida 2006 yil 25 avgustdagi «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qaroriga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyati hamda tarkibiy tuzilishi qayta ko'rib chiqildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan va davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan "Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi" tashkil etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi shakllantirildi. Barcha viloyatlarda hokimlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari faoliyati yo'lga qo'yildi. Respublikamizdagi mahalla oqsoqollari va fuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchilari tizimi shakllantirildi.

4. Maʼfuraviy faoliyatning navbatdagi muhim xususiyatlaridan biri, uning hamisha konkret tarixiy mazmunga, maqsad-muddaoga ega boʻlganligi bilan ifodalanadi. Bu, eng avvalo, inson bilimlari, shu jumladan, maʼfurasining mazmun-mohiyati haqidagi bilimlarning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Maʼfura tizimidagi bilimlar toʻgʻri yoki notoʻgʻri, progressiv yoki reaksiyon mazmunga ega boʻlishi mumkin. Mazkur bilimlar oʻz navbatida ular asosida shakllanadigan baholarning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligiga zamin yaratadi. Shakllanadigan baholarda esa real yoki kutilayotgan hodisa, jarayonlarga mavjud ehtiyojlar, manfaatlardan kelib chiqib, oʻziga xos munosabat ifodalanadi. Bilimlar qanchalik chuqur boʻlsa, hosil qilingan baholarga ishonch shunchalik yuqori boʻladi. Shu maʼnoda, milliy gʻoya va maʼnaviyat negizida kishilarda ishonch, eʼtiqodning shakllanishiga xizmat qiladi. Baʼzida erishilgan bilimlar, ularga asoslangan baholarning mutlaq toʻgʻriligiga ishonch dogmatizmga aylanib ketishini, bu maʼfuraviy turgʻunlikni yuzaga keltirishini ham unutmaslik zarur.

5. Maʼfuraviy faoliyatning yana bir ajoyib xususiyati gʻoyaviy qarashlar doirasida belgilab olingan maqsadlarni bayon etishda istiqbolga, ertangi kunga ishonch tuygʻusini shakllantirishni koʻzlashi bilan belgilanadi.

6. Maʼfuraviy faoliyat gʻoyaviy qarashlarni tarqatish va unga mos tarbiyani amalga oshirishni ifodalash xususiyatiga ham ega boʻlib, maʼfuraviy qarashlarni tarqatish tizimi, mexanizmlari, usul va vositalari doimo takomillashib borishni taqozo etadi. "Odamzod baxti uchun hamma narsadan voz kechishga oʻrgatadigan ezgu gʻoyalarni kishilarga singdirish buyuk sanʼatdir", deb yozgan edi fransuz yozuvchisi **Stendal**. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maʼfuraviy faoliyat gʻoyaviy tarbiyani oʻzga-ruvchan voqelik va ijtimoiy guruhlariga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda doimiy takomillashtirib borishni anglatadi.

7. Maʼfuraviy faoliyatni tashkil etishda texnika va texnologiyalar, targʻibot va tashviqot olib borish usullarining rivojlanganlik darajasi ham oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda OAV maʼfuraviy faoliyatni amalga oshirishning muhim boʻgʻini hisoblanadi. Yaqin istiqbolda texnika va texnologiya rivoji odamlar ongiga taʼsir oʻtkazish, yaʼni maʼfuraviy faoliyatni tashkil etishning yangidan-yangi mexanizmlarini topishiga olib keladi, shu asosda maʼfuraviy faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish ishlarini muntazam ravishda takomillashtirib borishga keng yoʻl ochib beradi.

8. Maʼfuraviy faoliyat oʻzining mohiyat-mazmuniga koʻra oʻzgaruvchan xususiyatga ham egadir. Maʼfuraviy faoliyat stixiyali tarzda kechmaydi, balki ongli, tizimli va tadriijiy tarzda, biron bir aniq maqsadni koʻzlab, mavjud maʼfuraviy vaziyatdan kelib chiqqan holda olib boriladi.

Hozirgi kunda mafkuraviy faoliyat olib borishdan maqsad milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini xalq qalbi va ongiga singdirish ishlarini tashkil etishdan iborat.

Jumladan, bugungi kunda Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi bunga misol bo'la oladi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning Islom sivilizatsiyasi markazi: din, ilm va zamonaviylik uyg'unligi mavzusida so'zlagan nutqida yana bir bor millatning ma'naviyati va mafkurasi asosiy dolzarb masala ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Bugun bu yerga kelishimdan maqsad - muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma'naviyatga, ilmga undashini, otabobolarimiz bunga beqiyos hissa qo'shganini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko'rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish bugunning dolzarb mavzusidir. Bu yosh avlodda g'urur, g'ayrat uyg'otib, yangi taraqqiyot davriga undashi qayd etildi. Shu borada bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etish lozim.

Ko'pchilik o'ylaydi: nima uchun Prezident ikkita Renessansni esladi. Bu - g'oya, kelajakdagi maqsadimiz. Mamlakatimiz intilayotgan marralar uchun tariximizdan ruhiy kuch olishimiz kerak-ku! Bu markaz Uchinchi Renessans poydevoridan biri bo'lishiga umid qilamiz. Chunki u ilmiy, dunyoviy, zamonaviy markaz bo'ladi, - dedi davlatimiz rahbari.

Talabalarda milliy go'ya va ma'naviyatning negizida mafkuraviy immunitetni shakllantiriladi.

MAFKURAVIY IMMUNITET(lotincha immunitatis – biror narsadan ozod etish) — shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim.

Immunitet tibbiy tushuncha bo'lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuini ifodalaydi. Sodaroq qilib aytganda, immunitet - organizmning o'z-o'zini turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir.

Mafkuraviy immunitetning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin. Birinchidan, insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitet shakllantirib boriladi. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun alohida xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlik ta'minlanadi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi, bu bilimdir. Ammo, bilimlarning ham turi ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar.

SHunday ekan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zahirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o'z davrida yoshlarga murojaat qilib, "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et", deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur taratishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson, kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarni o'zlashtirishi lozim.

Ammo, bilimlar va qadriyatlar tizimining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalaridagi maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amri maholdir.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Buyuk davlat arbobi Indira Gandining "Bitta qiz bolani o'qitsangiz, butun oilani o'qitgan bo'lasiz" degan so'zlarida katta hayotiy haqiqat borligi ham ayni haqiqat. Albatta, bugungi kunda milliy mafkuraning va mafkuraviy immunitetning shakllanishida "Besh tashabbus" doirasida jamiyatimizda ayollarga va xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni kuchayganligidan dalolat.

Milliy g'oyaning mohiyatini to'liq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo'q emas. Shu bois Prezident mamlakatimiz mafkurasining asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tdi:

Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib

chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

– Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlkali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur.

Davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ta'kidladi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayapti.

Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ishini tanqidiy o'rganib chiqib, faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi aytili.

Prezidentimiz ushbu markazning "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quv muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish taklifini bildirdi. Yig'ilishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari belgilandi. Ma'lumki, hozirgi paytda ma'naviyat targ'iboti bilan o'nlab tashkilotlar shug'ullanadi. Lekin, ularning faoliyati aniq muvofiqlashtirilmayotgani, yagona tizimga birlashmagani sababli bir-birini takrorlash holatlari kuzatilmoqda. Bundan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi barcha hududiy kengashlarning, vazirlik, idora va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirib borishi belgilandi.

Markaz va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta'minoti keskin kuchaytiriladi. Uning faoliyati ilmiy tadqiqot va targ'ibot-tashviqot yo'nalishlarida qayta tashkil qilinadi. Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi, deydi xalqimiz. Lekin, ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi uzviylik hozircha bunday emas. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla – har biri alohida ish olib boryapti. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Barcha oliygoh va ularning filiallarida mavjud shtat birliklari doirasida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi joriy etilishi aytiladi. Mahallalardaijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. **“Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy”** tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirilishi ma'lum qilindi. Shuningdek, Toshkent shahar nuroniylarining tarbiyasi og'ir, ishsiz yoshlarga ko'maklashish bo'yicha tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

Hududlar markazida namunaviy loyiha asosida ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish, mahalliy byudjetlar hisobidan sohaga qo'shimcha shtatlar ajratish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Toshkent shahridagi “G'alaba bog'i” majmuasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar uchun harbiy tarix va ajdodlarimiz qahramonligini o'rganish bo'yicha ilmiy markazga aylantirish taklifi bildirildi. Yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

– Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Mutasaddilarga O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbek tilining davlat tili maqomini kuchaytirish, yurtimizda va xorijda uni o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan ko'rsatma berildi. Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shu ma'noda, Ma'naviyat va ma'rifat, “Taraqqiyot strategiyasi”, Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy “aql markazlari”ga aylanishi kerakligi ta'kidlandi.

Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida “Ijod” jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi qayd etildi. Kitobxonlik madaniyatini kengaytirish, kino san'atini izchil rivojlantirish, barcha telekanallar qoshidagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, teledasturlarning saviyasini oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

– Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir[10], – dedi Prezident.

Xulosa qilib aytganda, milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini kengaytirish, kino san’atini izchil rivojlantirish, o‘zbek tilining davlat tili maqomini kuchaytirish, yurtimizda va xorijda uni o‘rganish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari” mizni shakllantirish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o‘rgatish, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, hududlar markazida namunaviy loyiha asosida ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini barpo etish masalalari bugunning dolzarb masalasidir.

Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini barpo etish va faoliyatining natijasida mafkuraviy immunitet shakllanadi. "Immunitet" so‘zi lotincha «immunitas, immunitatus – qutulish, xalos, xoli bo‘lish» degan so‘zlaridan olingan bo‘lib, tibbiyot ilmidagi «organizmning o‘zidan irsiy jihatdan yot xususiyatlari bilan farq qiladigan, uning butunligiga va biologik o‘ziga xosligiga zarar yetkazadigan mikroorganizmlar (kasallik qo‘zg‘otuvchilar), zaharli moddalar va boshqalardan himoyalash reaksiyasi», – degan ma’noni anglatish uchun qo‘llaniladi. Immunitet tabiatda uchga bo‘linadi:

Birinchisi. Filogenetik immunitet — anatomik va fiziologik belgilar bilan ta’minlanib, nasldan-naslga o‘tadigan alohida himoya omillari yoki organizmning alohida rezistentligi. Bu omillar patogen agentlar bilan birinchi bo‘lib aloqa qiladi, shuning uchun ularning faoliyati hisobiga odam organizmining ko‘pgina yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarga chidamliligi ta’minlanadi.

Ikkinchisi. Tug‘ma immunitet (turga xos, tabiiy) — bir biologik turning ma’lum bir patogen agentga nisbatan chidamliligi bo‘lib, nasldan-naslga o‘tadi.

Uchinchisi. Oritirilgan immunitet — hayot davomida organizm immun sistemasining yot antigenlar bilan ta’sirlashuvi hisobiga yuzaga keladigan himoya bo‘lib, nasldan-naslga o‘tmaydi. Mafkuraviy immunitet ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog‘lom g‘oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.

Mafkuraviy immunitetning xususiyatlari va elementlari. Mafkuraviy immunitet quyidagi xususiyatlarga ega:

1.Odamdagi tabiiy immunitet tug'ma bo'lsa, uning mafkuraviy immuniteti tug'ma emas, balki hayoti davomida uning ongga ta'sir etuvchi vositalar orqali shakllantirib boriladigan immunitetdir.

2. Mafkuraviy immunitet doimiy va abadiy emas,balki o'zgaruvchan, ya'ni har bir avlod uchun o'ziga xos bo'lgan immunitetlar tizimi mavjud bo'lib, u davrlar o'zgarishi bilan o'zgarib turgan va shunday bo'laveradi.

3. Mafkuraviy immunitet tizimi shakllangandagina shaxs, elat, millat, xalqning mafkuraviy daxlsizligi ta'minlanib boriladi. Boshqacha qilib aytganda,shakllangan mafkuraviy immunitet xalqning mafkuraviy daxlsizligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ob'ektiv ilmiy bilimlar. Ilmiy bilimlarsiz mafkuraviy immunitetni shakllantirib bo'lmaydi,bo'lganda ham u mo'rt bo'lib,o'zining qarshilik qilish xususiyatini tezlikda yo'qotadi.

2. Xalqning real hayotini va uning kelajagini o'zida aks ettiruvchi qadriyatlar – moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimi. Bu tizimsiz mafkuraviy immunitet o'zining milliy negizidan ayriladi, aniqrog'i xalqning himoyaviy qobig'i ichiga tushadigan mafkuraviy qurt-qumursqalarga yo'l ochib beradi.

3. Mafkuraviy immunitetning yana bir elementi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy maqsadlar tizimi bilan ajralmasligidadir. Chunki, maqsad – faoliyatning fikran shakllantirilgan darajasidir,maqsad bevosita omil sifatida inson xatta-harakatlarini yo'naltiradi va tartibga soladi. Maqsad paydo bo'lgach, faoliyat ham samarali kecha boshlaydi. Demak, maqsad aniq bo'lsa mafkuraviy immunitet ham samarali ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ushbu elementlar birgalikda ishga tushirilmas ekan mafkuraviy immunitet sindirilishi va shu asosda g'oyaviy bo'shliq hosil qilinib,uning o'rniga boshqa yot g'oyalarning kerib kelishiga yo'l ochish mumkin. Buni eramizdan oldingi VI asrda yashab o'tgan faylasuf va harbiy qo'mondon Sun Szy ning quyidagi fikrlarida ko'rish mumkin.

- Siz raqib mamlakatdagi barcha yaxshi narsalarni buzing, ayniting;
- Raqib davlatdagi atoqli arboblarni sherik qilib olib, jinoyatga boshlang;
- Raqib davlat rahbariyatining obro'sini to'king, qulay paytda ularning jamoat oldida sharmandasini chiqaring;
- Bu ishda o'sha mamlakatdagi eng past, maraz odamlar bilan sheriklik qiling;
- Raqib mamlakat odamlari orasida kelishmovchilik, janjal chiqaring;
- Yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang;
- Hukumatni yaxshi ish yuritishiga har qanday yo'l bilan qarshilik ko'rsating;

- Raqib qo‘shinlarining ta‘minoti, tartibiga to‘siqlar qo‘ying, buzing;
- Askarlarini qo‘shiq va kuyga oshifta qilib, irodasiz qiling;
- Dushmaningizning an‘analarini qadrsizlantiring, xudolariga ishonchini sindiring;
- Buzuq ayollarni yuborib, ularni yanada kuchliroq ayniting;
- Raqib tomon haqida ma‘lumot olishga, bu ishda ular orasidan sheriklar topishga, ularga pul to‘lashda juda saxiy bo‘ling;
- Umuman pulni ham, va‘dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalarni beradi.

Shafqatsiz ekstremizm va terrorizmning tarqalishi butun dunyoda xavfsizlikka raxna solmoqda. Ujamiyat asoslarini vayron etadi, inson huquqlarining bosh tamoyillarini oyog‘osti qiladi.

Ushbu hodisalarga qarshi turish, O‘zbekistonning davlat xavfsizligi hamda tashqi siyosat strategiyasining eng muhim ustuvor yo‘nalishidir. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalq farovonligi uchun tinchlik va barqarorlikning ulkan ahamiyatini anglab yetgan mamlakatimiz ekstremizm hamda terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha munosib va samarali qarorlar ishlab chiqishga qaratilgan konstruktiv tashabbuslarni izchillik bilan ilgari surmoqda.

O‘tgan yilning noyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuidagi xalqaro konferensiyada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev forum qatnashchilari hamda dunyo jamoatchiligini xavfsizlikka tahdidlarni “o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish, bu sohadagi amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini ta‘kidlagan edi. Zotan, mintqa davlatlari terrorizm hamda diniy ekstremizm tahdidlariga birdek duch kelmoqda.

Davlatimiz rahbari xalqaro terrorchilik va ekstremizm asosida, boshqa omillar bilan bir qatorda, johillik hamda toqatsizlik ham yotganini BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasining yuksak minbaridan turib alohida aytib o‘tdi. Shu bois insonlar ongi uchun kurash asosiy vazifadir. Birinchi navbatda, yoshlar tafakkurini egallab olish talab qilinadi. Chunki ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq”, degan edi Shavkat Mirziyoyev.

BMTga a‘zo mamlakatlar vakillari O‘zbekistonning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, Bosh Assambleyaning “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatladi.

Aholisining 60 foizini yoshlar tashkil qiluvchi Markaziy Osiyo — eng yosh mintaqalardan biri. So‘nggi bir yarim yil ichida mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllanib ulgurgan bugungi kunga kelib, bu qadar hayotiy ahamiyatga molik masalalarni faqatgina birgalikdagi intilishlar, hamkorlikni kengaytirish hamda kuchaytirish orqali hal etish mumkinligini mintaqadagi barcha anglab yetdi. Yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi, kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida yagona strategiyaning ilgari surish ertamiz egalarining terrorizm va ekstremizm g‘oyalariga samarali qarshi turishiga xizmat qiladi.

Bu yerda yoshlarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish bo‘yicha vazifalar birinchi o‘ringa chiqadi. Yoshlar migratsiyasiga turtki bo‘layotgan ishsizlik, sifatli ta‘lim olish imkoniyatining cheklanganligi hamda o‘z navbatida, madaniyat va bilim darajasining pastligi ekstremistlarga qo‘l kelayotgan salbiy omillar bo‘lib, aynan shu holatlar yoshlarni himoyasiz ahvolga solib qo‘ymoqda.

Aniqki, yosh yigit-qizlar internet manbalaridan eng ko‘p ma‘lumot oluvchi qatlamdir hamda bundan terrorchilik tuzilmalari imkon qadar foydalanmoqda. Faol internet auditoriyasining tafakkuri va kayfiyatini o‘z g‘oyalariga bo‘ysundiryapti, yoshlarning qalbiga qo‘rquv, nafrat hamda zo‘ravonlik urug‘ini sochmoqda. Globallashuv sharoitida internet terrorchilar uchun yangi a‘zolari aniqlash, miyasini zaharlash va o‘z tashkilotiga tayyorlashda, mablag‘ yig‘ish hamda ularni o‘tkazishda, terrorchilik harakatlarini amalga oshirish va o‘z maqsadlarini ommalashtirishda bosh qurolga aylandi.

Ko‘p millatli mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning tarixi, milliy urf-odat va an‘analarga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish; milliy mafkurani talqin etishda holislik, bag‘rikenglik, komillik, insof va adolat mezonlariga qat‘iy amal qilmoqni taqozo etadi. Hadislarda aytilganidek, kim o‘ziga ravo ko‘rganni o‘z sherigi, qo‘shnisi, tanish-bilishiga ravo ko‘rmasa, haqiqiy komillik kasb eta olmaydi.

Globallashuvga berilgan ta’riflar juda ko‘p. Lekin uning xususiyatlarini to‘laroq qamrab olgani bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta’rifdur. B.Bandi ta’rifida globallashuv jarayonining uch o‘lchovli ekaniga urg‘u beriladi:

- Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni;
- Globallashuv - milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.

B.Bandi ta’rifida keltirilgan globallashuv o‘lchovlarining har uchalasiga nisbatan ham muayyan e’tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko‘ramiz.

Zo‘ravonlikka tayangan ekstremizm hamda terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yosh avlodni buzg‘unchi g‘oyalar, ekstremizm hamda terrorizm ta’sirlaridan himoyalash bo‘yicha siyosiy-huquqiy,

ijtimoiy va tashkiliy-profilaktik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo qilyapti.

Bugungi kunda "Markaziy Osiyo beshtaligi" davlat hokimiyati organlari bilan yoshlar siyosatini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish jarayoniga jalb etilgan jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga asoslangan profilaktik tadbirlarning yagona majmuasini yaratishi lozim. Yoshlar orasida ekstremistik qarashlar tarqalishiga qarshi kurash tizimida yoshlar tashkilotlari salohiyatidan faol foydalanish masalasi muhimdir.

Poytaxtimizdazo'rvonlikka tayangan ekstremizm va terrorchilikka olib boruvchi mutaassiblikka qarshi kurashda yoshlarning o'rnini muhokama qilishga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tadi. Unda YEXHT Bosh kotibi, BMT Bosh kotibining yoshlar ishlari bo'yicha vakili, BMT aksilterror boshqarmasi boshlig'i, YEXHTning maxsus vakili, shuningdek, Yevropa hamda Osiyoning qator mamlakatlaridan, xalqaro tashkilotlardan vakillar qatnashishi kutilmoqda. O'zbekiston yoshlar ittifoqi ham tadbir tashkilotchilaridan biri bo'lib, anjuman ishi va uning natijalari haqidagi ma'lumotlar dunyo jamoatchiligiga yetib borishini ham ta'minlaydi.


Ma'lumotlar, fikrlar hamda tajribalar almashish, muammoli masalalarni ekspertlar darajasida muhokama etish zo'rvonlikka asoslangan, buzg'unchi ekstremistik g'oyalarning yoshlarga ta'sirini bartaraf qilish bo'yicha umumiy pozitsiyani ishlab chiqishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Milliy mafkurasi ko'p millatli xalqning ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, milliy ideallarini o'zida aks ettiradi. Mafkura xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning shonu shuhrati, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yoi, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda, muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir. Insoniyat tarixi - g'oyalar tarixidir. G'oya inson tafakkuri mahsuli, milliy mafkura esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy mafkura - inson va jamiyat hayotiga ma'no - mazmun baxsh etadigan, uni maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir. «...Mafkura muayyan ijtimoiy guruq, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlar, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir»[39,15]. Toki hayot mavjud ekan mamlakatlar, davlatlar va ulaming manfaatlar bor ekan ular o'z taraqqiyot yoiini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy mafkurasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi.


Ma'naviyat - arab tilidagi "ma'no" yoki "ma'naviyatun," "ma'noi g'oya" so'zlaridan olingan bo'lib, "ruhiy holat" degan ma'noni anglatadi. Milliy mafkura xalqimizning ma'naviy-ilmiiy mentaliteti, g'oyalari asosidagi amalga

oshirilayotgan jarayonlardagi tutayotgan yo‘li, davlatga, jamiyatga, olamga, o‘z-o‘ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iborat. Biz g‘oya haqida gapirganimizda, uning tarixiy shakllari, turlariga ham to‘xtab o‘tishimiz lozim. Tarixda buzg‘unchilik va bunyodkorlik g‘oyalari haqida dalillar ko‘p. Xo‘sh, bunyodkorlik va buzg‘unchilik g‘oyalari nimalarni kiritish mumkin? Ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni qanday? «Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch bunyodkorlik va buzg‘unchilik g‘oyalari hamisha kurashadi»[39,10].

Bunyodkorlik g‘oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oiliyjanob maqsadlari bilan ajralib turadi.



g‘oyalar



Insoniyat tarixi ma‘naviyat- insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma‘naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi. Ma‘naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Ma‘naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan talabalarni tarbiyalashda mafkuraviy immunitet roli beqiyosdir.

Mafkuraviy immunitetning mohiyatini to‘liq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo‘q emas. Shu bois Prezident mamlakatimiz mafkurasining asosiy g‘oyasini ta‘kidlab o‘tdi: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Milliy mafkura ma‘naviy jihatdan yetuk bo‘lgan barkamol insonlarni voyaga etkazib borar ekan, u inson ma‘naviyatiga xos ekanligini asoslab beradi. Bugungi jadal sur‘atlar bilan o‘zgarib borayotgan davrda Milliy g‘oyaning oldiga muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb vazifalar yuklatilmoqda.

Milliy mafkura hech qachon nazariy tafakkur natijasi bo‘lib qolishi mumkin emas. U har bir shaxsning ma‘naviy e‘tiqodida, amaliy faoliyatida namoyon bo‘lishi bilan birga ma‘naviy hayotni yuksaltiruvchi omil bo‘lib qolishi kerak.

Milliy g‘oya, mafkura, mafkuraviy immunitet tushunchasi va atamalari pedagogika turkumidagi fanlar mazmunini boyitishga xizmat qildi va ulardan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari”, “Ma‘naviyat asoslari”, “Dinshunoslik ” kabi fanlarni

birlashtirib “Tarbiya” fani doirasida o‘qitish orqali talabalarga ma’naviy – axloqiy tarbiyani yuksaltirishda xizmat qiladi.

Tarbiya fanlarida talabalarning mafkuraviy immunitetini muntazam ravishda mustahkamlab borishni o‘ylagan holda ularning g‘oyaviy–siyosiy, ma’naviy–ma’rifiy tarbiyasini mavjud tahdidlar va xavf–xatarlarga qarshi kurasha oladigan imkoniyatni kafolotlovchi ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o‘ta muhim. Ushbu jarayonni qadimiy nodir qo‘lyozmalar va yodgorliklar, ota–bobolarimiz yaratgan boy tarixiy–ma’naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyat kabi mafkuraviy immunitet kategoriyalaridan foydalanib amalga oshirish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Bunda zardushtiylar ta’limoti bo‘lmish “Avesto”da, ulug‘ donishmand–mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, YUsuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad YAssaviy, Naqishbandiy, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Valiy, Imom al – Buxoriy, Az – Zamaxshariy va boshqa shu kabi mutafakkirlar asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ularda mazkur muammo echimini hal etishga oid boy ilmiy meros bor.

Ko‘p millatli mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning tarixi, milliy urf-odat va an‘analariga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish; milliy mafkurani talqin etishda holislik, bag‘rikenglik, komillik, insof va adolat mezonlariga qat’iy amal qilmoqni taqozo etadi. Hadislarda aytilganidek, kim o‘ziga ravo ko‘rganni o‘z sherigi, qo‘shnisi, tanish-bilishiga ravo ko‘rmasa, haqiqiy komillik kasb eta olmaydi.

IIIBOB.TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

III.1 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari.

Mafkuraviy immunitet - ma’naviybarkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksion, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan talabalarni tarbiyalashda qo‘l keladi.Bundan ko‘rinib turibdiki talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ijtimoiy gumanitar o‘quv fanlaridan oqilona foydalanishimiz lozim.Mafkuraviy immunitetni shakllantirishdamafkuraviy profilaktikaning o‘rni katta.Mafkuraviy profilaktika xilma xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigang‘oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy,ijtimoiy, ma’naviyishlar majmui, ya ‘ni ta’lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Shunday ekan talabalar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz ijtimoiy gumanitar fanlarning o‘qitilishiga bog‘liq. Insoniyat tarixiy tajribasining

ko'rsatishicha, biron bir jamiyat, odamlar ongi va qalbida ma'naviyaxloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Yuksak madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Madaniy-ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat buyuk porloq istiqbolga ega bo'lolmaydi. Madaniy qashshoqlik, ma'naviyinqiroz, insonning intellektual noteyukligi barcha davlatlarda ham jamiyat taraqqiyoti uchun nihoyatda halokatli hodisa bo'lgan. Hozirgi davrimizda Islomiy qadriyatlarni, Quroni Karim, Muhammad Payg'ambarimiz hadislarini, tasavvuf talimotini o'rganar ekanmiz, ularda milliy ma'naviyatimiz uchun o'ta muhim bo'lgan komil inson masalalarini e'tibordan chetta qolmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda shaxs mafkurasini to'g'ri shakllantirish to'g'ri ta'lim tarbiya berish masalalari barcha davrlarda eng muhim masala hisoblangan. O'zbekiston xalqi o'zining o'tmish tarixida bir necha bor madaniy yuksalish bosqichlarini bosib o'tgan. Ana shunday yuksalish bosqichlarida bizning qadimiy vamuqaddas zaminimizda o'zimizning tariximiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimizga bebaho hissa qo'shgan, ma'naviyat va ma'rifat sohasida ta'limot yaratgan buyuk daholar, yetishib chiqqan.

Biz ijtimoiy gumanitar fanlarning o'qitilishiga alohida e'tibor qaratsak, talabalar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishimizda fanlarning o'qitilishiga xos xususiyatlarini ishlab chiqsak, maqsadga erishgan bo'lamiz.

Yoshlarining ilmda hech kimdan bo'lmasligi, kuchli, bilimli, dono vabaxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatni safarbar etib, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi va ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish masalasiga e'tibor berishimiz lozim. Agar bu masalada hushyor va sezgik, qat'iyat va mas'uliyatli turmasak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga tashlab qo'ygan bo'lamiz, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ta'lim vatarbiyamizdan, ma'naviyatimizdan, oxir-oqibatda maqsaddan adashgan bo'lamiz. erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zamini bu milliy mafkuraviy immunitetga boyitilgan ta'lim tarbiyadir. Ma'lumki, yurtimizda vijdon va e'tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag'rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda. Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda.

Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha

fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'lishi darkor. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmasligi lozim.

Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Shu borada O'zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hechqanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har gal yoshlarga e'tibor beringlar, ular bizning kelajagimiz va bizlarni yuqori cho'qqilarga olib chiqadigan shaxs bo'lib yetishiga ishonishlarini takidlaydilar. Ma'naviybarkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo'lgan zaruriyatning asosiy sababi va mohiyati nimalar bilan belgilanadi, degan savol tug'ilishi ehtimoldan uzoq emas. Ijtimoiy gumanitar fanlarning o'qitilishi natijasida mafkuraviy immunitetda quyidagi kamchiliklar bartaraf etiladi; a) boshqa yod mafkuralarni tan olmaslik, yakka hokimlik g'oyasining mutlaq hukmronligi va targ'iboti; b) sinfiy mafkuralar, vijdon erkinligini cheklab qo'yish, milliylikdan, qadriyatlardan butunlay xoli bo'lish; c) Milliy tarix, O'zbekiston tarixi, o'tmishini tan olishlik, xalqning diniga, diniy merosga, diniy qadriyatlarga mutlaqo noto'g'ri munosabatda bo'lishi kabi masalalar bartaraf etiladi.

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga tarbiya tizimisiz erishish mumkin emas.

Bu tizim uzviy, tizimli yo'lga qo'yilishi uchun jadid ma'rifatparvar arbobimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan fikrini ta'limda dasturamal bo'lmog'i lozim. Buyuk ma'rifatparvarimizning so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir».

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning

bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz[4,14].Turliyod g'oyalarga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim.

Mamlakatimizdagi mavjud hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo'li bilangina qarshi tura olamiz.Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalari kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro manfaatli aloqalar muhim omili bo'lib xizmat qiladi.Ana shundagina mintaqamiz hech qachon sivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ta'sir etib, bir-birini boyitishning ibratli namunasini beradigan makonga aylanadi.

Bugungi kunda allohga ming shukurki, erishilgan yutug, qo'l va oyoqlarimizdagi kishanlar parchalandi. Dunyoahliga o'zbekning kimligini, uning bunyodkor aql-idroki nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib qo'yishimiz lozim. Buning uchun milliy g'oyamiz ostida bir tan, bir jon bo'lib birlashishimiz, milliy g'urur va oriyatimizni astoydil himoya qilishimiz zarurdir.

Yurtimiz azaldan ko'p millat va elat vakillariga boshpana bergan joydir. Otabobolarimiz o'zga millat va elat vakillarining doimo boshini silab kelgan, ularga mehr-muruvvat ko'rsatgan.O'zga millat vakillari ham o'z navbatida yurtimiz taraqqiyotiga, fan va madaniyatimiz taraqqiyotiga baholi-qudrat hissa qo'shib kelishdi.Jamiyat ravnaqi – millatlarning o'zaro hamjihatligida. Shunday ekan millatlararo hamjihatlilik milliy mafkuramizning yana bir muhim g'oyasi hisoblanishi kerak.

O'zbekiston hududida qadim zamonlardan buyon turli din va diniy konfessiya vakillari o'zaro ahillikda turmush kechirib kelishgan. Musulmonlar ularga doimo boshpana bo'lgan.Ularning ibodatxonalarining dahlsizligini asrashgan.Bu ham milliy qadriyatimiz.Ya'ni boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik qilish, ular bilan o'zaro ahillikda yashash, qisqasi, diniy bag'rikenglik milliy mafkuramizning yana bir salmoqli qadriyatidir.

Nega YurtimizdanXorazmiydek, Imom Buxoriydek,Forobiydek, Beruniydek, Ibn Sinodek buyuk allomalar yetishib chiqqan? Chunki, ularning xotirasi kuchli bo'lgan, "Qur'oni Karim"ni 7-8 yoshidanoq yod olishgan.Ular katta-katta dostonlarni boshdan oyoq yoddan ayta olishgan.Islom madaniyatida ilmparvarlik, ilmga intilish doimo rag'batlantirilgan.Ilm-ma'rifat ahlining mavqei jamiyatda yuqori bo'lgan."Beshikdan toqabrgacha ilm izlang" degan hadis musulmonlarning asosiy shiorlaridan biri.Hadislarda "Bir kunlik ilm bilan shug'ullanish 70 yillik ibodatdan afzal", "Chin mochinga borasang ham ilm izla", "Ilmga intilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" degan hikmatlar bejiz tarqalmagan.

Xalqimizning kundalik turmushida ham aqlni charxlovchi, xotirani kuchaytiruvchi, ziyraklikni, mantiqni tarbiyalovchi o'yinlar, mushoiralar ko'p bo'lgan.Bolalarga topishmoqlar, tez aytishlar, mushoiralar, o'ylaganimni top

singari mashq-o‘yinlar bolalarning nutqini, xotirasini, aql-idrokini kuchaytirishga xizmat qilgan. Katta yoshdagilar ham vaqti-vaqti bilan xonadonlarda yig‘ilishib, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon” singari dostonlarni zavq bilan o‘qishgan yoki bir-biriga yoddan aytib berishgan. “Navoiyxonlik”, “Mashrabxonlik”, “Bedilxonlik” singari milliy xalq to‘garaklari bo‘lgan. XVIII-XIX asrda yashagan Jahon Otin Uvaysiyning “Anor” nomli chistonini ham komil insonlarni tarbiyalash g‘oyasi ham milliy mafkuraning markaziy g‘oyalaridan biri sifatida yoritilgan.

Bugungi kunda talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibiga kiruvchi fanlarning o‘qitilishi lozim bo‘lib, fanlar talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni vujudga kelishida, shakllantirishda xizmat qiladi. Jumladan, o‘zbekiston tarixi, falsafa, umumiy pedagogika, milliy g‘oya targ‘iboti, milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari va huquq, milliy g‘oya tarixi, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari, madaniyatshunoslik, globallashuv asoslari, geosiyosat asoslari, konstitutsiyaviy huquq, “Milliy goya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”, “Ekstremizm va terrorizmga karshi kurashning ma‘naviy ma‘rifiy asoslari” kabi fanlarning o‘qitilishi va o‘rgatilishi talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda xizmat qiladi.

O‘zbekiston tarixi fani O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi, tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy sohalarida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-moqiyatini tahlil etish, turli yot g‘oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning eng yangi davri tarixi, olib borilayotgan davlat siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o‘rni, davr qahramonlari, o‘zining ham shu tarixiy jarayonlarga daxldorlik hissini shakllantirish muhimdir.

Dasturda O‘zbekistonning eng yangi davri tarixi, ya‘ni O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyatlar, davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi, mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy sohalaridagi islohotlar, ularning natijalari, 2017-2021 yillarga muljallangan Harakatlar strategiyasining mamlakat rivojlanishi yangi bosqichidagi chuqur islohotlari, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyalashuvi xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bagrikenglikni ta‘minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarning ahamiyati ochib beriladi.

Mafkura va mafkuraviy immunitet siyosiy hayot bilan bog‘liq fan bo‘lganligi bois oliy ta‘lim muasasalaridagi gumanitar fanlar kesimida talabalarga o‘qitiladi. **Ijtimoiy fanlar** — jamiyat va odam xulqi bilan bog‘liq fanlar majmui. **Gumanitar** (frans. humanitaire — insoniy tabiat, bilimlilik) — inson shaxsiga, inson huquqi va manfaatlariga oidlikni anglatuvchi tushuncha[46].

Talabalarga “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishdan maqsad O‘zbekistonning eng yangi tarixini bugungi fuqarolik jamiyatni shakllantirish jarayonlariga daxldorligini uqtirish, taraqqiyotning yangi bosqichidagi jarayonlar, respublikadayuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmunmohiyatini anglatishdan iborat.

O‘zbekiston tarixi fanining vazifasi - talabalarga mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyat, xalqning mustaqil taraqqiyot yuliga kirishi, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, milliy huquqiy demokratik davlatchilik kurilishi, fuqarolik jamiyati shakllantirish jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tarixiy jarayonlarini o‘rgatish orqali talabalarni Vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy g‘ururni shakllantirishdan iborat.

Masalan: **1-mavzu: “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari** mavzusida “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining predmeti - xalqimizning XX asr 80-yillari oxiridan bugungi kunga qadar bosib o‘tgan tarixiy jarayonlar, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini xolisona o‘rganish va talabalar ongiga singdirishdan iborat. O‘zbekiston oliy o‘quv muassasalarida tarix ta’limi sohasidagi davlat siyosati va O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish va o‘qitish masalalari. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitish va o‘rganish tizimini qayta tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari, Yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda xalq va mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix va tarixiy xotiraning o‘rni, saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari. XXI globallashtirish asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-kontseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalarni tarixiy va zamonaviy misollar bilan yorqin dalillar bilandars jarayonlarida talabalarga tushuntirish ularda yurtga bo‘lgan mehr muhabbat tuyg‘ularini shakllantirgan bo‘lamiz.

Ma’fkuraviy tarbiya beradigan fanlardan biri **falsafa** fanning mazmuni va maqsadi talabalarni zamonaviy fan yutuqdariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda o‘z-o‘zini anglash va to‘g‘ri fikrlash ko‘nikma va malakasini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi falsafiy bilimlar, qonunlar va

kategoriyalarni o'rganish orqali tizimli, kreativ fikrlash, hayotda o'z o'rnini toppish, shuningdek, jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish, o'z-o'zini ma'naviy ahloqiy, diniy tarbiyalash; jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalashdan iborat.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari va huquq fanini o'qitishdan maqsad - umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlarni o'qitish metodikasi maqsadini, mazmuni, metod va usullarini, pedagogik texnologiyalar asosida fanni loyihalashtirish va rejalashtirishni o'rganishga ko'maklashishdan iborat. Fanning vazifasi - ta'lim jarayoning samaradorligini oshirish, zamon talablari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida Milliy goya, ma'naviyat asoslari va huquq fanlarini o'qitishga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishdan iborat. Mafriviy va tarbiyaviy vazifalarni bajarib, zamonaviy ijtimoiy siyosiy hayotda ijobiy xulq atvorini shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy gumanitar fanlardan biri bo'lgan milliy g'oya tarixi fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga milliy g'oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o'rni va rolini o'rgatish, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda yoshlarda ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oya omilidan foydalanishni o'rgatadi.

Fanning vazifasi:

- milliy g'oyaning insoniyat hayotida tutgan o'rnini, vazifalarini yoritib berish;
- insoniyat tarixida bunyodkor va vayronkor g'oyalarning tutgan rolini yoritib berish;

- yoshlarni ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalash;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oya omilidan foydalanish;

- mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli aholi qatlamlarini yagona maqsad atrofida birlashtirish va shu kabilar.

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanning mazmuni va o'qitishdan maqsad – O'zbekiston jismoniy madaniyati, jismoniy tarbiya, O'zbekiston sporti, badan tarbiya, bolalar sportda, sport, jismoniy madaniyat tizimi, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgirlik, sport mashqi, jismoniy sifatlar, uch bosqichli sport musobaqasi "Umid nihollari", "Barkamol avlod". "Universiyada" va x.k) maxsus nazariy bilimlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlikni o'stirishga oid zamonaviy nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni jismoniy mukammallashtirish, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarinn tashkil qilish va ulardan mustaqil foydalanishga

o'rgatish va bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllanida xizmat qiladigan va ularda vatanparvarlik tug'yularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida umumiy pedagogika fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanining nazariy tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonunida belgilangan talablar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon etish olishga o'rgatish va talabalarda pedagogik faoliyatni kengaytirishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarida **madaniyatshunoslik** fanning o'qitishdan maqsad - talabalarga ma'naviyatning mazmun mohiyati, ma'naviyatshunoslik fanining shakllanish jarayonlari, xalqimizning tarixan boy ma'naviy merosi, ma'naviy-ma'rifiy takomil bosqichlari, milliy ma'naviyatimizning umumbashariy qadriyatlar bilan uygunligi, uning uziga xos betakror xususiyatlari haqida tushunchalar berish, ularning bu boradagi bilimlarini yanada boyitish. Fanning vazifasi - ma'naviyat asoslari fani sohasiga talabalarga zamonaviy talablar asosida har taraflama chuqur bilim berish, ularda umuminsoniy dunyoqarashlarini shakllantirish, bagrikenglik, totuvlik, hamjihatlik, shukronalik, daxldorlik, mas'uliyat, Vatanni sevish va el-yurtning ardoqdash kabi milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlarga sadoqat ruhini mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish, milliy ma'naviyatimiz an'analariga muhabbat tuygularini singdirishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarida **milliy g'oya targiboti texnologiyalari** fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga milliy goya va milliy goya targiboti texnologiyalari haqida muayyan bilim va tushunchalar berish, milliy goya to'g'risidagi qarashlarning shakllanishi, rivojlanishini zamonaviy o'zgarishlar, interfaol texnologiyalar bilan bog'lab o'rgatishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarida globallashuv asoslari fanni o'qitishdan maqsad - jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy sohalarida o'zaro ta'sir va bog'likning kuchayishi sharoitida ro'y berayotgan globallashuvning mazmun va mohiyatini, salbiy va ijobiy yoshlarga tushuntirish, ularda vatanga sadoqat ruhini tarbiyalab borish va shu bilan birgalikda fanning vazifasi

- globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlarini;
- globallashuvning salbiy va ijobiy jihatlarini;
- globallashuvning ruy berishining usul va vositalarini;
- globallashuvning namoyon bulish sohalarini;
- globallashuvning mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy xayotiga ta'sirini
- fan va ta'lim globallashuvi sharoitida ta'lim oldidagi vazifalarni;
- global ma'naviy tahdidlarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasidagi vazifalarni o'rganishdan iborat.

Oily ta'lim muassasalarida konstitutsiyaviy huquq fanni o'qitishdan maqsad konstitutsiyaviy huquq fani, uning O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida tutgan o'rni va roli, konstitutsiyaviy huquq manbalarining xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Oily ta'limda "Milliy goya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" fanni o'qitishdan maqsad -konstitutsiyaviy huquq fani, uning O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida tutgan o'rni va roli, konstitutsiyaviy huquq manbalarining xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'limda geosiyosat asoslari fanni o'qitishdan maqsad - davlatning strategik qudratiga ta'sir etuvchi, uning ichki va tashqi siyosatdagi ustuvor manfaatlarini ta'min etadigan geografik, tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa o'zaro bog'liq bo'lgan ichki va tashqi omillarni tahlil qilish.

Fanning vazifasi - geosiyosat asoslarining mazmun-mohiyati,uslublari, vazifalarini tahlil etish;

- geosiyosiy jarayonlarning mohiyati, tarkibi, umumiy qonuniyatlarini ochib berish;

- geografik makon ustidan nazorat o'rnatishning asosiy tiplarini,uni amalga oshirish resurslarini belgilab olish;

- geosiyosiy jarayonlar va geosiyosiy bilimlarniig rivojlanib borish davrlarini tahlil etish;

- jahonning bugungi geosiyosiy manzarasini qarab chiqishda turli mintaqa mamlakatlarining geosiyosiy xususiyatlarini tahlil qilish;

- mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida O'zbekistonninggeosiyosiy manfaatlarini belgilabolish va o'rgatishda fanning xizmatlari beqiyosdir.

Milliy goya, ma'naviyatning pedagogik asoslari fanni o'qitishdan maqsad talabalarga milliy g'oya va ma'naviyatasoslari turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning pedagogik asoslari,milliy goya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitish metodikasi,uning asosiy tamoyillari, yo'nalishlari va vositalari, shakl vametodlari haqidagi dastlabki bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi:

- talabalarda mustaqil dunyoqarashni;

- milliy g'oya targiboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarsamaradorligini oshirishga mas'ullikni;

- hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasi, ma'naviytahdidlardan xushyor va ogoh bo'lish shartlari va mezonlari haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni hamda ma'naviy-mafkuraviyjarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yondashuvnishakllantirish va hk.lardan iborat.

Ijtimoiy gumanitar fanlarda «Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fannio'qitishdan maqsad - talabalarga jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol

o'ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish, ularning namoyon bo'lish shakllariga ko'ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o'rganish, ahamiyatini ochib berish.

Fanning vazifasi - jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol o'ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish; ularning namoyon bulish shakllariga ko'ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o'rganish, vujudga kelish sabablarini tahlil qilish; mafkuraviy jarayonlar rivojlanish omillarini o'rganish, yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g'oya va mafkuralarga oqilona munosabatni tarbiyalash; xalq orasida milliy g'oyani targ'ib-tashviq qilish malakasini, mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

Ijtimoiy gumanitr fanlardan biribo'lmish "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" kursini o'rganishning ahamiyati va o'qitishdan maqsad - diniy ekstremistik va terroristik harakatlarning kelib chiqishi, mohiyati, ularning asl maqsadlari, taraqqiyotga salbiy ta'sirini tushuntirish va ularda bunday tahdidlarga nisbatan g'oyaviy salohiyatni tarbiyalashdan iborat.

Fanning vazifasi - XX asrda dunyodagi o'zgarishlar hamda ekstremizm va terrorizmning kishilik jamiyati boshiga solayotgan tahdidlari bilan tanishtirish, dunyoviy davlatning dinga munosabati, mamlakatimizda olib borilayotgan diniy siyosatning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish, talabalarni vatanparvarlik, tinchliksevarlik, ijtimoiy barkarorlikni ta'minlashda har qanday yot va begona g'oyalarga qarshi kurashish ko'nikmalari ruhida tarbiyalashdan iborat. Bu fanlar oliy ta'limda talabalarning ilmiy bilimlarni egallashi, pedagogikaning muhim kategoriyasi bo'lmish shaxsning shakllanishida xizmat qiladi. Milliy mafkuraning eng muhim jihati biri ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirishdir. Bug'oya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, xalqimizning azaldan rioya qilib kelayotgan mahalla qadriyatlari muhim ahamiyatga ega. Mahallada fuqarolik jamiyati kurtaklari mujassamdir.

Shunday kunlar keladiki, O'zbekistonlik bo'lish dunyoda katta sharaf hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi islohotlar jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta'minlashga zamin bo'ladi. Kelajakda yurtimizda biz odatlangan ijtimoiy qonuniyatlar zaruriy tarzda amal qiladigan shart-sharoitlar qaror topishi, mamlakat taraqqiyotining uzluksizligi prezidentlar almashganda ham, hukumat o'zgarganda ham bir xil tarzda davom etishini ta'minlaydigan relsga (yo'lga) tushadi. Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlarda mana shunday taraqqiyot qonuniyati amal qiladi. O'zbekiston taraqqiyoti ham kelajakda ana shunday darajaga o'sib boradi.

- Biz umid qilamizki, Milliy mafkuraning asosiy konseptual g'oyalarini ishlab chiqishda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan odilona siyosatni to'g'ri talqin etishimiz kerak. Mafkura immunitetning Bosh g'oyasi "Obod va Ozod Vatan, erkin va farovon hayotni bunyod qilish" ta'kidlab o'tilganidek Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi, millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik, dinlararo bag'rikenglik va komil inson g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Bu jihatlarni Milliy mafkura konsepsiyasini tayyorlashda albatta e'tiborga olmoq lozim.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda "Milliy istiqlol mafkurasini konsepsiyasini asos qilib olib, shu yaratilajak konsepsiyaning puxta yaratilishidan manfaatdor bo'lgan, o'z Vatanini sevuvchini bir vatanparvar O'zbekiston fuqarosi sifatida ishtirok etib har bir ziyo, ilm ahligiza emas har bir vatandoshimiz ishtirik etmog'i lozim. Chunki, bu mafkura xalqimizning buyuk kelajagini bunyod etishda asosiy yetakchi rolini o'taydi. Shundan keyin, qisqa vaqt ichida "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" konsepsiyasi keng tarqaldi va har bir talaba buning mohiyatini chuqur anglamog'i lozim.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z faoliyatlarida bu konsepsiyalar va g'oyalarini chuqur anglagan holda, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda bu g'oyalarni muvaffaqiyatli tarzda amaliyotga tatbiq etmoqda. Jumladan, ma'naviy tarbiyani yanada takomillashtirishga bag'ishlangan qarorlarida, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy xalqaro markazi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi va Qarshida Nasafiylar markazini bunyod qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, milliy mafkura konsepsiyasini amalga oshirish yo'lidagi amaliy faoliyatining uzluksiz davomidir.

Xullas, Milliy g'oya va mafkura konsepsiyasi mustaqillikdan so'ng vujudga keldi hamda amaliyotga faol tatbiq etildi, O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning bosh mezonlaridan biriga aylandi. Milliy mafkura asosidagi mafkuraviy immunitet har bir vatandoshimizning mustahkam e'tiqodi va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishini ta'minlaydi. **Birinchidan**, insondagi ko'plab qobiliyatlari tug'ma bo'lsada, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. **Ikkinchidan** har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. **Uchinchidan** immunitet tizimi shakllansa mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlaydi. G'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Bugungikunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p... Ikkinchi asosiy qismi ana shu bilimlar

zamidida shakllanadigan Uchinchi unsuri: ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy- ma 'rifiy sohalardagi aniq mo'ljallangan va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. **Talabani- ng mafkuraviy immuniteti tarkibi: 1) mafkuraviy bilim; 2) his- tuyg'u; 3) iroda; 4) ko'nikma va 5) malakalar tashkil qiladi.**

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalligiga ishonch asosida quriladi. Ishonch esa ishontirish va tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston- dunyoviy davlat diniy davlatni taqqoslash natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muayyan vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani manfaatlarini birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalar, qadriyatlar tizimidir.

Hozirgi davr - bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning o'zaro kurashi kuchayganligini alohida e'tirof etish lozim. Bir so'z bilan aytganda, bunday holatda g'oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. G'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash, xususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida «mafkuraviy immunitet», «mafkuraviy profilaktika» kabilar bor. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi.

Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda. Xo'sh, mafkuraviy poligon deganda nimani tushunamiz? Poligon (grek. serqirra degan ma'noni bildiradi) harbiy termin ekanligiga o'rganib qolganmiz. Odatda poligon deganda qurol-aslaha va texnikani sinash, qo'shnlarni harbiy tayyorgarlikdan o'tkazish yoki harbiy sohada mashq va tadqiqotlar olib borish uchun mo'ljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Milliy mafkura jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Uning mohiyati shundaki, u odamlar ongidagi, xotirasidagi g'oyaligicha qolmay amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqlol g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagina u milliy ma'naviyatni va ma'naviyo'zlikni tashqi mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi. Milliy mafkuraning hayotimiz

jarayoniga singib ketishini ta'minlash uchun esa, g'oyalar amaliy harakatlarga aylanishi jarayonini sinchiklab o'rganishi kerak. Buning uchun dastavval, mafkura bevosita amaliyotga, amaliyot dasturiga aylanish g'oyasidan jamiyat a'zolarining ko'pchiligi xabardor bo'lishi, eski tuzum sarqitlarini supurib tashlash uchun kifoya qilmaydi. Milliy mafkura e'tiqodga aylangandagina eskilik sarqitlarini supurib tashlashi mumkin.

Shaxsning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni manipulyatsiya tushunchasida aks etadi. Chunki, «davlatchi»ning ta'siri:

1) shaxsga nisbatan zo'rlik, kuch ishlatilmaydi, balki ma'naviy, psixologik xususiyatga ega;

2) bu ta'sirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham «islom dini niqobida» degan ibora ishlatiladi;

3) g'oyaviy manipulyatsiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. Shuning uchun ham g'oyaviy manipulyatsiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan ta'sir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Ya'ni, manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targ'ibot va tashviqotdan farqli o'laroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga xizmat qiladi.

Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetni **besh** darajaga bo'lib o'rganish, baholash, uni shu asosda takomillashtirish mumkin:

1. Mafkuraviy immunitetning quyi darajasi - shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas, buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd.

2. Darajasi - bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas.

3. Mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi.

4. Asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi, ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitet shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi.

5. Oliy daraja - mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bemalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo hamma joyda fosh qila oladi.

III.2 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarning o'rni.

Talabalar ijtimoiy faolligini oshirishda madaniy-ma'rifiy tadbirlarning uch asosiy bo'g'ini mavjud bo'lib, bular: madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatdan iborat.

Madaniy tadbirlar talabalarni odob-axloq, diyonat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z vataniga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, o'z halqiga, o'z ona yurtiga nisbatan fahr hissini uyg'otish, qisqa qilib aytganda yosh avlodga axloqni shakllantirishga har tomonlama oshirish uchun xizmat qiladi. Bunday tadbirlarning ko'pi huquqiy masalada bo'lib, talabalarni huquqiy ongini oshirish, ularning ongida insonparvarlik, halollik kabi yaxshi omillarni shakllantirishda asos bo'ladi.

Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlar nafosat tarbiyasiga bag'ishlangan kechalarda kishilarning estetik didini oshirish va madaniy dam olishlari uchun xizmat qiladi, bunda san'at va adabiyotning barcha janrlaridan to'la foydalaniladi. Bu kabi kechalar maxsus metodlar asosida o'tkaziladi. Bunday tadbirlarning maqsadi mehnatkashlarni badiiy madaniyat yangiliklaridan xabardor qilish, san'at turlari, badiiy adabiyot janrlari va uning xususiyatlari to'g'risidagi tushunchalarni berib, ommani badiiy didini tarbiyalashdir.

Auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlar vatanparvarlikka chorlovchi bir qancha tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bunday tadbirlarda urush veteranlari, armiyada xizmat qilayotgan askar va ofitserlar, harbiy xizmatga chaqirilayotgan talabalar bilan tantanali ravishda o'tkaziladigan uchrashuvlarga bag'ishlangan bo'ladi. Vatanparvarlik mavzusiga oid bo'lgan madaniy muassasalar kechalarida hukumatimizning tinchlik siyosati, xalqimizning himoyachisi bo'lgan o'zbek armiyasi, unda xizmat qilayotgan askarlari, uning xarbiy tayyorgarligi, hozirgi kundagi xarbiy texnika va armiya hayoti haqida hikoya qilinadi.

Kishilarda haqiqiy vatanparvarlik ruhini tarbiyalash uchun bunday kechalarning ahamiyati juda katta. Dunyoqarashini, ya'ni mafkuraviy immunitetni shakllantirish rivojlantirib boradi. Buni asl maqsadi yosh avlodga jamiyatdagi har qanday savolga to'g'ri tarbiya berishdir. Shunday ekan maqsadni amalga oshirishda auditoriyadan tashqari ishlarlarning o'rini alohida ta'kidlash lozim.

Auditoriyadan tashqari ishlarlarda tashkil etiladigan tadbirlarda nimalarga e'tibor berish lozim:

- Eng avvalo ta'lim muassasalarda tashkil etiladigan tadbirlar mazmuni va rejasiga amal qilish;
- Auditoriyadan tashqari ishlarlar xodimlari malakasini oshirish;
- Auditoriyadan tashqari ishlarining moliyaviy sharoiti va uni ta'minlanishi;
- Madaniyat maskanlarida tadbirlarda foydalaniladigan texnik vositalar;
- Madaniy muassasalar moddiy texnika bazasini mustahkamlash;
- Madaniyat maskanlari bozor iqtisodiyoti davrida faoliyat yuritishini ta'minlash;

Darhaqiqat, auditoriyadan tashqari ishlarlarni ravnaq topishida yuqorida keltirilgan muammolarni bartafar etish lozim. Madaniyat muassasalari faoliyatini namunali tashkil etish, uning rahbari hamda xodimlarining bilimlari va

malakalariga bog'liq bo'ladi. Madaniyat muassasalari rahbari nihoyatda zukko, talabchan va ma'suliyatli bo'lishi lozim. Shuningdek, ayni paytda madaniyat muassasalari faoliyatini nazorat qila bilish ham muhim. Respublikamizda madaniyat muassasalarining asosiy faoliyati talabalarongiga mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda dam olish jamiyat hayotining muhim belgilaridan biriga aylanmoqda. Auditoriyadan tashqari ishlarlarga keluvchilar asosan talabalar bo'lib, ularning hordiq chiqarishini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish ma'rifiy ishning asosini tashkil etadi.

Chunki, auditoriyadan tashqari ishlarlarda talabalarni mafkuraga qarshi mafkura va g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish-tuyg'ularini tarbiyalashda, ularni mukammal barkamol qilishda muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida juda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy masalalar talaygina turibdiki ular xalqimiz mafkuraviy immunitetini shakllantirishda dastulamal bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Shular markazida tarbiyaviy vazifalardan biri, talabalarni mafkuraviy tuyg'usi rivojlangan ruhda tarbiyalashni amalga oshirish va kuchaytirish. Bu ko'rinishda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar aholi turli qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda unga ijodiy yondashish zarur.

Talabalarining ma'naviyolami, axloqiy qiyofasi, jismoniy tomondan barkamolligi, o'zaro hamdo'stlik va vatanparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirishda auditoriyadan tashqari ishlarlarning faoliyatlari nihoyatda kattadir. Bu ta'lim muassasalarda uyushtirilayotgan ommaviy-siyosiy, axloqiy, g'oyaviy, tarbiyaviy ishlarining samaradorligi hamda mazmunini yaxshilash esa, madaniyat xodimlaridan tashkilotchilik mahoratini, tashabbuskorlikni amalda qo'llashni talab etadi.

Xalqimiz o'rtasidagi hamjihatlikni o'zaro madadkorlikni va boshqa yaxshi umuminsoniy fazilatlarni har qachonkidan ham chuqurroq anglashimiz, ko'z qorachig'imizdek avaylab asrashimiz va targ'ib etishda samarali foydalanishimiz lozim. Haqiqatda bugungi jamiyatimizni demokratiyalash va ijtimoiy adolat mavqeida turgan barcha sog'lom kuchlarni jiddiy va amaliy negizda birlashtirish, provardida milliy nizolarni yo'qotish mumkin. Shu maqsadda, barcha auditoriyadan tashqari ishlarlar faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish, hozirgi sharoitga moslab, yangicha mazmun bilan boyitish, ish uslubini tub o'zgartirish davr talabidir. Respublikamizdagi auditoriyadan tashqari ishlarlar - madaniyat uylari, saroylarida va istirohat bog'larida, yoshlik uyushmalarida va mahallalarda tashkil etilayotgan vatanparvarlik kechalari, festivallar, ommaviy sayillar hamda sport bayramlarining ahamiyatini alohida takidlash joizdir. Keyingi yillarda auditoriyadan tashqari ishlarlar talabalarni Vatan tuyg'usi ruhida tarbiyalash

borasida sezilarli o'lg'a qarab siljish ro'ybermoqda. Masalan, respublikamizda madaniyat maskanlari faoliyatida millat va elatlarni unutilib ketgan urf-odatlarini, an'analari, san'ati qaytadan tiklandi.

Bugungi kunga kelib esa madaniyat maskanlari talabalar ittifoqi bilan hamkorlikda ular o'rtasida Vatan tuyg'usi tarbiya ishini tashkil etishda bir qancha ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Chunonchi, auditoriyadan tashqari ishlar joylarda talabalar ittifoqi bilan birgalikda madaniyat va istirohat bog'larida uyushtirilgan "Oilada bola tarbiyasi", "Uch avlod", "Abadiy o'gitlar", "Yigitlik burchim" kabi tadbirlar talabalarda vatan tuyg'usini shakllantirishda komil inson bo'lib, tarbiyalanishida yaqindan yordam bermoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ahamiyat qaratib kelinmoqda.

"Aholi, xususan, talabalarining madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviyyetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnika bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti.

Respublikamizda tashkil etilgan talabalar uyushmalari yaqinda tuzilgan bo'lishiga qaramay, shu qisqa vaqt ichida ular orasida milliy g'oya va mafkurani tashviqot qilishda katta hissa qo'shmoqda. Madaniy markazning asosiy maqsadi, u yerga tashrif buyurgan barcha talabalarining qiziqishlarini qondirishga ilm sohasidagi salohiyatlarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shish. Madaniyat uyi xodimlari vatan tuyg'usiga oid bo'lgan barcha matbuot xabarlari va qo'llanmalarni keng doirada sharhlab berish yaxshi yo'lga qo'yishgan.

Talabalar uyushmalari tashabbuskorligi bilan mahallalarda "Vatan posboni", "Ijodkor yoshlik" xalqarotalabalar kuniga "Bosh qonun", O'zbekiston

Konstitusiyasi qabul qilingan huquq kuniga bag'ishlangan kecha va konsertlar tashkil etilmoqda.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizda tashkil etilgan milliy-baynalminal klublari alohida o'rin egallaydi Madaniyat xodimlari Respublikamizda tashkil etilgan milliy markazlar bilan birgalikda talabalar tarbiyasiga oid har xil mavzularda uchrashuvlar, suhbatlar, bahs-munozaralar, ommaviy bayramlar uyushtirilmoqda.

Masalan, G'ofur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida qardosh qozoq, qirg'iz, tojik millatlari bilan birgalikda ularning bayramlari nishonlanmoqda.

Bunday markazlar Respublikamiz poytaxti Toshkentda va ommaviy xalq sayillarining sermazmun o'tishida salmoqli hissa qo'shmoqda. Talabalar bir-birini hurmatini joyiga qo'yishga axloq va vatanparvarlik tarbiyasi ular hayotida alohida o'rin egallaydi.

Ma'lumki, vatanparvarlik bo'lmagan joyda mafkuraviy immunitet, ezgulik va ro'shnolik, haqiqat, halollik, diyonat kabilar ildiz otishi mumkin emasligi amaliy jihatdan to'la isbotlangan.

Vatanparvarlik, insoniylik, yaxshilikning shakllanish, rivojlanish, mafkuraviy immunitet kalitidir.

Inson ruhiyatida va pedagogik qarashlarida yana bir narsa borki vatanparvarlik talabalarni dadil olg'a qadam tashlashga doimo da'vat etib turadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev vatan tuyg'usi va ularning ma'no-mazmuniga alohida to'xtaladi. Chunonchi, Respublikamiz talabalarining milliy va madaniy an'analarga, ularning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy vatanparvarlik prinsiplari qaror toptirish va joylarda shu mavzu bo'yicha tadbirlarni uyushtirish davr talabi deb ta'kidladiganlar.

O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan, o'qib mehnat qilayotgan har bir farzandlarimiz milliy mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, Respublikamizning teng huquqli talabalari bo'lishga munosibdir, yurtimizda mafkuraviy immunitetni sakllanishida o'zlarining hissalarini qo'shmoqliklari zarur.

O'zbekiston mustaqilligini ta'mirlash, yangicha tuzumni barpo etishda ijtimoiy va ma'naviy kafolatlar muhim o'rin tutadi. Chunki, bu narsa talabalarongiga va tafakkuriga singishi lozim.

Ularda mafkuraviy immunitet uning o'tmishi: madaniyat tarixi, chegarasi muayyan davrlardagi mavqei, ota-bobolarimizning jahon fan va madaniyat sohasidagi o'rni haqida ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega. Ana shundagina "Bugun Vatanning har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etadi va bundan faxrlanadi" Bu vazifani ko'proq madaniyat maskanlarida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'zbek xalqi asrlar mobaynida avaylab saqlanib, sayqal topib kelgan o'z milliy urf-odatlarini, udum va an'analari, g'ururi, ijtimoiy-

iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi, e'tiqodi, ma'naviydunyosi bilan ajralib turadi.

Talabalar tarbiyasi- ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviymerosni o'zi bir katta xazina.Vatanparvarlik g'oyasining tub mohiyatini, ma'no va mazmunini dastlab ziyolilar, farzandlarimiz yaxshi bilishlari kerak. Shuningdek, ular butun kuchini ne mashaqqatlar bilan erishilgan mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlash ishiga safarbar etmoqlari zarur.

Umuman olganda mafkuraviy immunitet tarbiyasi jamoatchilik ishi va auditoriyadan tashqari ishlarlar vazifasidir.

Bunda mustaqillik bayrami senariysi, qadritiyalarimizdan bo'lmish navro'z bayrami senariysi, allomalarva davlat arboblariimizning tavallud kunlarini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarda, Vatanni sevish, xalqning madaniyati tarixini bilishga intilish, uni targ'ib qilish, ajdodlarimizning yashash tarzi, e'tiqodi, madaniy va tarixiy yodgorliklar, ular kim tomonidan qurilgani va qaysi me'mor san'atiga mansubligi, adabiyot va san'at tarixi fan va fan arboblari haqidagi ma'lumotlar, ularning yaratgan ilmiy asarlari, xalq ijodi namunalari, ta'lim - tarbiya an'analari va shu kabilarni xalq ongiga singdirish kabi milliy g'ururni yanada shakllantirishga, rivojlantirishga ilhomlantiradi, xalq ijodkorligini tarkib toptirishga ruhlantiradi.

Tadbirlar talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uning tub mohiyatini tushuntirishda, qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yo'lduz, ishonchli kompos bo'lib xizmat qiladi.O'zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlariga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, Respublikamizning kuch qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish va ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi. Kimki, millatning madaniyati tarixidan ajdodlari qoldirgan barcha meroslardan hamma sohadagi an'alaridan faxrlansa bilsa, o'tmishda vatani va xalqi boshiga tushgan fojiaaviy taqdiridan achinsa, u vatani va xalqi kelajagi uchun nurli istiqlol yo'lida fidoiy bo'lish orzusida yashaydi, mehnat qiladi.

Talabalarning mafkuraviy immuniteti shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Ustoz va murabbiylar kuni, Buyuk allomalar va davlat arboblariining tavallud topgan kunlarini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng va ommaviy tarzda o'tkazmoq lozim. Bunday tadbirla talaba yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllanishida va rivojida xizmat qiladi.

Tadbir ssenariylaridan namunalar;

Mustaqillik bayrami bag'ishlangan tadbir ssenariysi.

1-boshlovchi: Istiqlol bunchalar go‘zal bu noming,

Non kabi e‘zozli jondek shirin bol

Yer shari yo‘lladi otashin salom

Assalom o‘zbekim qutlug‘ istiqlol

2-boshlovchi: Assalom maktabim muqaddas dargoh

Assalom ustozlar kasb kori saboq

Assalom do‘stlarim menga qo‘sh qanot

Sinfdosh hayotga ishonch bilan boq

1-boshlovchi: Bugun dunyo tanigan Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shayotgan aziz mehmonlar assalomu alaykum.

2-boshlovchi: Umrining aziz damlarini o‘quvchilar ilm olishiga sarflayotgan aziz ustozlarassalomu alaykum

1-boshlovchi:

Davralarning to‘ri siz uchun ustoz

Maqtovlarning zo‘ri siz uchun ustoz

Siz bor maktablarning fayzi bo‘lakcha

Siz bor kuylagan kuyning avji o‘zgacha

Siz ekkagan gullarning avji o‘zgacha

Qalbimizning qo‘ri siz uchun ustoz,

Maqtovlarning zo‘ri siz uchun ustoz.

2-boshlovchi: Assalom ona yurt tonglar o‘lkasi

Ta‘rif, tavsifingning yo‘q nihoyasi.

Senga bag‘ishlanur muqqaddas qo‘shiq

Birgalikda: Bu o‘zbek elining o‘z madhiyasi.

(O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi o‘quvchilar tomonidan ijro etiladi)

1-boshlovchi: Bugungi bayramona kechamizda bizning quvonchli onlarimizga sherik bo‘layotgan aziz mehmonlar yana bir bora xush kelibsiz, ishonchimiz komil biz uchun ajratgan qadrli onlaringizdan afsus chekmaysiz degan umiddaman

1-boshlovchi Sizning tashrifingiz biz uchun faxr,
Shoir tavsifida aytigan axir
Dunyoning shodligi yig`ilsa butun
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

2-boshlovchi: Go'zallardan go'zal jannat makonim
Sen o'zingsan tanxo O'zbekistonim
Asrlarga yuz tutgan ulug` makonim
Jannat bo'yidagi gulsan Vatanim

1-boshlovchi: Ulug`donish ajdodlarim beshigisan
Taraqqiyot kalitining eshigisan
San`atkorning aytgan qo'shig`isan
G`olib farzandlarining yutug`isan Vatanim

1-o'quvchi: Vatan sening nomingni,
Doim kuyga solaman
Farzandlik burchin oqlab
Senga sodiq qolaman

2-o'quvchi: Istiqlol ulug` ne'mat,
Bobolarim orzusi
Momolarim duosida,
Mangu, ma'vo qolg`usi

3-o'quvchi: Ona yurtim, bog`laring chaman,
Istiqloling abadiy bo'lsin
Sen suyukli, ulug`san,
Yagonasan, muqaddas Vatan

4-o'quvchi: Sen buyuk, muqaddassan,
Onajon – O'zbekiston.
Ayyoming bo'lsin qutlug`

Zavol ko'rma hech qachon

**Auditoriyadan tashqari ishlarda mafkuraviy immunitet shakllantiruvchi
tadbir ssenariysi:**

14-yanvar “Vatan himoyachilari”kuni tadbir ssenariysi

Tadbir maktab sahnasida yoki, zalda o'tkazishga mo'ljallangan.Sahnada “Senga posbonmiz Vatan”, “O'g'lon,bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!”,“Mardlar qo'riqlaydi Vatanni” singari shiorlar ilingan.Sahnaga boshlovchilar chiqib kelishadi

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli va aziz o'qituvchilar! Hamda maktabimiz o'quvchilari.Vatanimizning mard va jasur o'g'lonlari! Shunqor yigitlari.

2-boshlovchi:Assalomu alaykum,tadbirimizda ishtirok etayotgan, davramizga fayz qo'shib turgan qadrlil ustozlar hamda mo'tabar mehmonlar!Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilayotgan«**SENGAPOSBONMIZ VATAN**» deb nomlangan bayram tadbirimizga xush kelibsiz.

1-boshlovchi: Mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana - Vatan himoyachilari kuni va Qurolli kuchlarimiz tashkil etilganining 29 yilligi bilan chin qalbdan barchangizni tabriklaymiz.Tadbirni ochib berish uchun 29-maktab direktori R.Jonikulovaga so'z navbatini beramiz.

1- Boshlovchi: “Milliy armiyamiz mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir”. Harbiylarimiz tun-u kun qo'lni qo'lga berib,xattoki jonlarini ham fido qilib ona zaminlarini sarhatlarini daxlsizligini himoya qilib kelishmoqda.Har yili 14-yanvar “Vatan himoyachilari” kuni sifatida nishonlanib kelmoqda.Bu nafaqat harbiylarga balki yurtimizdagi barcha o'g'il bolalarni bayramlari.

2-BOSHLOVCHI:Ona yurtni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrash, istiqloli va istiqboli, osoyishtaligi va farovonligi uchun kurashish bu yo'lda hatto o'z jonini tikish mohiyatan haqiqiy tinchlikparvarlik ruhida tarbiyalanish har bir o'g'ilning burchidir.Endi navbatni 7-“B'sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishiga e'tiboringizni qaratamiz.

MILLIY Gvardiyam.

Qadamlar shiddati-mardlikdan darak
Yorqin orzulardan lovullar yurak
Milliy gvardiyam-g'ururim,faxri
Qutlug' qadamlaring bo'lsin muborak!
Milliy gvardiyam-shavkatim-shonim,
Vatanu xalqimga sodiq qalqonim
Bir jonu tan bo'lib asraymiz mudom,
Aziz O'zbekiston-Tinchlik qo'rg'onim!

1-boshlovchi: Diqqat qiling, sahnaga bo'lajak Vatan posbonlarini taklif qilamiz. (sahnaning o'ng tomonidan shahdam qadamlar bilan bir qator saf tortgan bolalar "Ona Vatanim O'zbekistonim" qo'shig'ini kuylab chiqib kelishadi.

Ona Vatanim O'zbekistonim.

Safda yuramiz yo'llar titratib,

Ona Vatan seni qo'riqlab.

Ona Vatanim heeeyyy O'zbekistonim.

Ona Vatanim O'zbekiston.

Qo'limda qurol chegarada shay,

Ko'zimni yummay seni qo'riqlay.

Ona Vatanim heeeyyy O'zbekistonim.

Ona Vatanim O'zbekistonim.

Qo'shiq tugashi bilan "To'xta" degan buyruqomuz ovoz eshitiladi. Ular turgan joyidan uch marta deysinib, keyin to'xtashadi. Sahnaga yuzlanib, o'ngga buril degan "buyruq" beriladi. Keyin uch qadam orqaga degan ovoz yangraydi. Hamma buyruqqa mos ravishda orqaga tisarilib, sahnaga yuzlanib tizilib turishadi.

VIDEO ROLIK NAMOYISH ETILADI. (Shuhrat Zokirov "Tinchlik timsoli") Sahna ko'rinish.

Yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida kichik sahna ko'rinishi ijro etiladi. Sahnaga yelkasiga yuk xalta ilib olgan sport kiyimidagi o'smir yigit va boshiga oq ro'mol tashlagan onaxon birga yetaklashib chiqib kelishadi.

Ona: - O'sib-ulg'ayib, hash-pash deguncha Vatan koriga, el xizmatiga yaraydigan yigit bo'lib yetilganingni sezmay qolibman.

O'g'il: O'zimning, mehribon oyijonim. Baxtimgasiz, dadam, ukalarim omon bo'lsanglar, menga shuning o'zi yetadi. Mendan sira xavotir olmanglar.

Ona: - O'g'lim, bilsang, harbiyda xizmat qilish hammaga ham nasib etavermaydi. Komandirlaringdan biri aytdi, chaqiriq yoshidagi yigitlarning hammasi ham test sinovlaridan o'ta olishmas ekan. Har o'ntasidan bittasi muddatli harbiy xizmatga jo'natilyapti ekan. Men sen bilan faxrlanaman.

O'g'il: - Oyijonim, men sizlarning yuzingizni yerga qaratmayman. «Vatan himoyachisi» degan nomga sodiq bo'lib, xalqimizga, yurtimizga sidqidildan xizmat qilaman. Axir Vatanni mardlar qo'riqlaydi-ku.

Ona: - Rahmat, bolajonim! Oy borib, omon qayt! Yaxshi xizmat qilib, bergan tuzimni oqla. Biz seni kutamiz.

O'g'il: - Xayr, onajon! Albatta, avvalo Vatanimga, keyin sizga munosib o'g'lon bo'laman. (Keyin sahnaga yuzlanib) - Aziz ukalarim! Yaxshi o'qib, a'lo bilim oling! Sport bilan ko'proq va astoydil shug'ullaning! Ana shundagina qaddi-qomatingizni ko'rganda hammaning havasi keladigan sog'lom va baquvvat, gap-

soʻzlari bama'ni, Alpomish kelbat mard oʻgʻlonlar boʻlib ulgʻayasiz. Vatanga axir nimjon, kasalmand yigitlar emas, mardu maydonlar kerak!

HARBIY QASAMYOD.

ASKAR MAKTUBI VIDEO LAVHA (SAHNA KOʻRINISH).

1-boshlovchi: 1992 yil 14 yanvarda mamlakatimiz hududidagi harbiy qism va boʻlinmalar davlatimiz tasarrufiga oʻtkazilgan edi. Oʻzbekiston Respublikasining 1993 yil 29 dekabrda qonuniga binoan 14 yanvar yurtimizda “Vatan himoyachilari” kuni deb eʼlon qilindi.

2-boshlovchi: Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob, 52-moddasida, XXVI bob 125-126 moddalarida Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilish, Oʻzbekiston Respublikasi har bir fuqarosining muqaddas burchidir deb yozib qoʻyilgan.

VATANIMGA HIZMAT QILAMAN.

Oʻgʻloniman Turon yurtning,
Ozod, obod, boʻston yurtning
Oʻzi beklar zurriyotiman,
Vatanimga xizmat qilaman
Tinchlik uchun jonimni berib
Oʻz postimda mardona turib
Vatanimga xizmat qilaman,
Sohibqiron Amir Temurday
Jahongashta Mirzo Boburday,
Haq yoʻlida ogʻishmay birday
Vatanimga xizmat qilaman

1- BOSHLOVCHI: Mana, 29 yildirki, mamlakatimiz Vatan himoyachilari kunini milliy bayram sifatida nishonlamoqda. Bu bayram el-yurtga sadoqat bayramidir. Bu bayram oʻz mohiyat-eʼtibori bilan avlodlar oʻrtasidagi uzviylikni, Oʻzbekiston ahlining jangovar soha namoyondalariga boʻlgan chuqur ehtiromini aks ettiradi.

2- BOSHLOVCHI: Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligining, kelajagi buyuk davlat barpo etayotgan Oʻzbekiston fuqarolarining tinch-osoyishta hayoti, bunyodkorona mehnati xavfsizligining kafolatidir.

8-9-10–SINF OʻQUVCHILARINI MUSOBAQAGA CHORLAYMIZ

- 1- Tosh koʻtarish.
- 2- Arqon tortish.

1- Boshlovchi: 2010-yil 12-yanvarda poytaxtimizda ochilgan “Vatanga qasamyod” monamenti oʻzida ana shunday chuqur hayotiy falsafani, teran maʼno-mazmun ifoda etadi.

2-BOSHLOVCHI: Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bu betakror majmuani bir ko'rgan odam, yuragi jizillab, uning ma'nosini tushunib, anglab, bu haykalni avvalambor Vatanga sadoqat, mardlik va jasorat madhiyasi, el-yurt himoyachisi bo'lgan fidoyi insonlarga qo'yilgan go'zal badiiy obida sifatida qabul qiladi.

O'ZBEK O'G'LONI

Yurtimning mardona qo'rqmas posboni,
Ko'z nuri, qalb nuri, jo'sh urar qoni
Vatanim tayanchi, metin qo'rg'oni
Bayraming muborak, o'zbek o'g'loni
Tinch yurtning yashnagay baxtu iqboli,
Osmonni yoritgay quyosh, hiloli

MUSIQALI SAHNA KO'RINISHI: OMON BO'LGIN O'ZBEGIM
OMON.

Ta'rifingdir tillarda doston,
Lol bo'libdi senga keng jahon
Mehnating-la kun ko'rding har on
Omon bo'lgin O'zbekim omon
Qadamingdan chechaklar unsin,
Osmoningda Quyosh, Oy kulsin
Omon bo'lgin O'zbekim omon

1-boshovchi:Mamlakatimizdagi tinchlik-osoyishtalik xalqimizning eng katta boyligidir.Prezidentimiz,Qurolli KuchlarimizOliy BoshQo'mondoni Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida barpo etilgan milliy armiyamiz bu ulug' ne'matning ishonchli kafoloti bo'lib xizmat qilmoqda.Mana, bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetib boryapti.

2-boshlovchi: Barchangizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana-vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari 29-yilligi bilan chin qalbdan yana bir bor muborakbod etamiz. Sizlarga sihat-salomatlik, baxt-saodat, yaxshi kayfiyat, o'qish va ishlaringizda omad yor bo'lishini tilaymiz.
Xonadonlaringizga fayzu baraka arimasin!Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Auditiriyadan tashqari ishlarni kuchaytirishbo'lajak savodli va bilimli talabalarni tarbiyalashning eng maqbul yo'lidir.Yetuk xodilarni tayyorlash juda ko'p masalalarni oydinlashtiradiki, ularni hal qilish mamlakatimiz madaniy - ma'rifiy ishlarning kelajagi ravnaqi uchun nihoyatda zarurdir.Madaniyat maskani tizimini bunday shaklda yo'lga qo'yish talabalarningengerkin va ixtiyoriy ravishda o'z qobiliyatlarini amalga oshirishga imkoniyat beradi.Respublikamizda ishlab chiqilgan dasturlar madaniy - ma'rifiy muasasalar islohatining barcha tomonlarini qamrab olgan. Buning sababi «Milliy mustaqil davlat bor ekan, uning mustaqilligi

va erkinligiga, anʼana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni oʻz taʼsiriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalanishga qaratilgan intilishlar va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrarligidir.

Keltirilgan shu iqtibosdan koʻrinib turibdiki, mafkuraviy immunitet, avvalo, mamlakatimizning mustaqilligini mustahkamlash uchun zarur. Mafkuraviy immunitetning yana bir muhim funktsiya tarbiyaviy funktsiyadir. Mafkuraning bu funktsiyasi globallashtirish jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda yana ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Globallashtirish faqat iqtisod va siyosat sohasida emas, balki maʼnaviyat va mafkura sohasida ham jadallashtirib bormoqda. Oʻzbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni maʼnaviyat-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishda; Globallashtirish jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, milliy oʻzlik va maʼnaviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani taʼkidlab, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqdaligi haqida fikr bildirdi.

Aytish mumkinki, maʼnaviyat va mafkura sohasidagi globallashtirish boshqa sohalarga nisbatan jadalroq yuz bermoqda. Buning sababi oʻz manfaatlarini koʻzlayotgan baʼzi davlatlar mamlakatimizga mafkuraviy jihatdan zararli va vayronkor taʼsir oʻtkazishga urinayotganida. Har qanday xalqning maʼnaviyati boshqa xalqlar maʼnaviyatidan ajralgan holda rivojlanmaydi [39,8]. Milliy maʼnaviyatlar bir-birini boyitadi va toʻldiradi. Mamlakatimiz Sharq va Gʻarbni tutashtirgan karvon yoʻllarida joylashgani sababli, xalqimiz maʼnaviyati ham Sharq, va Gʻarb maʼnaviyatidan asrlar davomida bahramand boʻlib kelgan. Ayni paytda xalqimiz Gʻarb va Sharq xalqlari maʼnaviyatidagi ijobiy tomonlarni oʻzlashtirish bilangina cheklanib qolmay, ularga ijobiy taʼsir ham koʻrsatgan. Maʼnaviyat va mafkura sohasidagi oʻzaro taʼsir, afsuski, faqat ijobiy tomonlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda salbiy va vayronkor gʻoyalar ham oʻz taʼsirini oʻtkazmoqchi boʻladi [39,8].

Shuning uchun ham milliy maʼnaviyatimizni tahdidlardan himoya qilish borasida mafkuradan kuchliroq va samaraliroq gʻoya yoʻq. Bu haqda «Milliy istiqlol gʻoyasi» darsligida qoʻyidagi fikr bildirilgan: «Maʼnaviyatni bir uyga toʻplangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustun qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi.

Xuddi shu kabi, biz ham yot gʻoyalar, oqimlar va mafkuralar maʼnaviyatimizga vayronkor taʼsir oʻtkazishiga qarshi himoya choralari qoʻrishimiz tabiiy». Shu oʻrinda mafkuraviy immunitet bilan talabalarni tarbiyalash,

milliy va ma'naviyo'zlikni himoyalash jarayonidagi muhim funksiyasi namoyon bo'ladi.

Mafkuraviy immunitetning ana shu funksiyasini to'laqonli bajarishida madaniy-ma'rifiy tadbirlar muhim o'rin tutadi. O'quvchi va talabalar ongiga mafkuraviy immunitetni singdirish bugungi kun ta'lim tizimida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning markazida turibdi.

Bu maqsadga erishish yo'lida ta'lim-tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanilmoqda. Kuzatuvlarimiz ba'zi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida milliy istiqloq goyasi bo'yicha ma'ruzalar, seminarlar, kollokviumlarga ko'proq e'tibor berilib, darslardan so'ngi o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga yetarli ahamiyat berilmayotganini ko'rsatdi. Holbuki, bunday tadbirlar talabalarni tarbiyalashda va ular ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirishda ulkan ahamiyatga ega. Mamlakatimiz madaniyat muassasalarida interfaol usullardan foydalanishga katta ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or talabalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy-ma'rifiy tadbirlardan tarbiya jarayonida foydalanish talabalar faolligini keskin oshiradi. Bundan tashqari, tadbirlar orqali mashg'ulot o'tkazishning roli o'yin, xizmat o'yinlari singari shakllari, asl mohiyatiga ko'ra, madaniy tadbirdir. Chunki ular ta'lim shakllari bilan san'at elementlarining qo'shilib ketishi natijasida vujudga kelgan.

Tadbir jarayonida badiiy asarlardan parchalar keltirish, she'rlarni ifodali o'qish, sahna asarlaridan parchalar ko'rsatish talabalarning ham aqliy, ham xissiy-emotsional faolligini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Tadbirlar davomida madaniy-ma'rifiy tadbirlar elementlaridan foydalanish muayyan uslubiyat asosida amalga oshiriladi. Bu xolat mazkur tadbirlarni o'tkazishning umumiy xususiyatlari bilan bog'liq. Shuni hisobga olib, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda madaniy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanish uslubiyati to'g'risida ba'zi mulohazalarni va o'tkazgan kuzatishimiz natijalarini bayon qilmoqchimiz.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar kechalar, tomosha va teatrlashtirilgan konsertlar, ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalar, badiiy kompozitsiya, quvnoqlar va zukkolar tanlovlari kabi shakllarda o'tkaziladi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, shunga monand ravishda, ularni o'tkazish uslubiyati ham bir-biridan farq qiladi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar orasida eng ko'p qo'llanayotgan shakllardan biri mavzuli kechalardir.

«Mavzuli kecha» atamasi dastlab muayyan bir mavzuga bag'ishlangan va oqshom paytlari o'tkaziladigan tadbirlarni anglatgan. Bunday tadbirlar jumlasiga uchrashuv kechalari, xotira kechalari, she'riyat kechalari, vatanparvarlik

mavzusidagi kechalar, qo‘shiq kechalari, raqs kechalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Bunday tadbirlar avvallari odamlar ishdan bo‘shagandan so‘ng, oqshomda, kechqurunlari o‘tkazilgani sababli «kechalar» nomi bilan atalgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan bunday tadbirlar kunduzlari ham o‘tkazilgan. Lekin, ularning dastlabki nomi- «kechalar» saqlanib qolavergan. Shuning uchun hozirgi davrda kunduzi yoki ba‘zan ertalab o‘tkaziladigan ana shunday tadbirlarning ham «kechalar» deb atalishidan ajablanmaslik lozim.

Mavzuli kechalarning konsertlar, spektakllar va boshqa san‘at janrlaridan asosiy farqi shundaki, bu tadbirlar jarayonida teatrlashtirilgan ommaviy harakatlar yuzaga keladi. Bu tadbir davomida ijrochi va tomoshabinlar bir butunlikni tashkil etadi. Shuning uchun mavzuli kechalar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ommaviy bayramlarga juda yaqin turadi. Mavzuli kechalar xalq uchun va jamoa uchun qadrli hisoblanadigan va muhim ahamiyat kasb etadigan biror voqea yoki sanaga bag‘ishlab o‘tkaziladi. Masalan, «Milliy mafkura-bizning g‘oya», «Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!», «Diniy bag‘rikenglik» mavzularidagi kechalar mavzularning muhimligini ta‘kidlash bilan birga, shu masalalarga jamoa yoki guruhning munosabati ham ifodalanadi. Mavzuli kechalarni tayyorlash bosqichi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ana shu bosqichda kechani tayyorlash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga bo‘lg‘usi tomoshabinlar keng miqyosda jalb etiladi. Bu holat mavzuli kecha ishtirokchilarning passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirning faol qatnashchilariga aylanishini ta‘minlaydi. Mavzuli kechalar, qayerda o‘tkazilishiga qarab, qo‘yidagi turlarga bo‘linadi:

- madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat saroylari, istirohat bog‘lari (parklar)da o‘tkaziladigan mavzuli kechalar;
- mehnat jamoalarida, korxonalarda o‘tkaziladigan mavzuli kechalar;
- ta‘lim muassasalari, sanatoriylarda, dam olish uylarida, pansionat va kurortlarda o‘tkaziladigan mavzuli kechalar;
- mahalla, qishloq va ovullarda o‘tkaziladigan mavzuli kechalar;
- maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, institut, universitet va boshqa ta‘lim maskanlarida o‘tkaziladigan mavzuli kechalar.

Mavzuli kechalarni o‘tkaziladigan joylarga qarab turlarga bo‘lish sababi shundaki, yuqorida sanab o‘tilgan joylarda o‘tkaziladigan mavzuli kechalar ishtirokchilarning tarkibi, yoshi, kasbi, jinsi, ijtimoiy mavqei kabi xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi. Bu farqlar faqatgina tashqi tafovut bo‘lmasdan, ular mavzuli kechalarning o‘tish jarayoniga, sahnadagi ijrochilar bilan tomoshabinlar o‘rtasidagi hissiy-emotsional aloqaning xususiyatlariga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi. Masalan, kasb-hunar kollejida vatanparvarlik mavzusida o‘tkaziladigan mavzuli kecha istirohat borida o‘tkaziladigan mavzuli kechadan jiddiy farq qiladi. Kasb-hunar kollejidagi

mavzuli kecha ishtirokchilarining aksariyati shu kollej o'quvchilaridan iborat bo'lsa, istirohat bog'idagi mavzuli kechaning tomoshabinlari turli yosh, jins, kasbga mansub odamlardan iborat bo'ladi. Insonlarni tarbiyalashda ko'plab auditoriyadan tashqari ishlarlar, Ya'ni madaniyat va aholi dam olish markazi, madaniyat saroylari, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog'larining o'ziga xos imkoniyatlari mavjud. Auditoriyadan tashqari ishlarlarning imkoniyatlaridan foydalanmasdan joylarda insonlarni tarbiyalab bo'lmaydi, chunki bu muassasalar xalq orasida ma'naviy, ijodiy faoliyat olib boruvchi o'ziga xos markaz hisoblanadi.

Inson ma'naviy tarbiyasidagi muammolar ma'naviy qashshoqlik, fikr torligi, hudbinlik, insofsizlik, adolatsizlik, imon-e'tiqodsizlik, nopoklik, mehr-oqibatsizlik kabi illatlarni rad qilish insonlarni yuksak madaniyat va milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yo'li bilan bartaraf etish, madaniy ma'rifiy muassasalarning ham bosh vazifasiga aylanishi kerak.

Auditoriyadan tashqari ishlar ham talabalarongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish konsepsiyasini yaratish va targ'ib qilishga qaratilmog'i lozim. Mafkuraviy immunitet tuyg'ularini talabalarongiga singdirishning tulari.

- muhabbat tuyg'usi.
- Ona tiliga muhabbat.
- Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
- Oila, ayol, bola tarbiyasi.
- Mahalla va jamiyat totuvligi.
- Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
- Milliy tarbiyamizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi fazilatlarni talabalarongiga singdirish.

Hozirgi paytda butun dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kuchli kurash olib borilyapti. Hayotning barcha jabhalarida tubdan ijobiy o'zgarishlar borayotgan bir paytda jamiyatimiz taraqqiyotiga chetdan turli shakldagi mafkuraviy taqdidlar xavf solib turibdi. Ya'ni, Islom xalifaligini tiklab va uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar, yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi, axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzish, mintaqaviy va millatlararo mojoralarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlardir.

Mafkuraviy immunitet bilan kamol topayotgan bugungi talabalar mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash, ma'rifat asosida o'zligini namoyon etmoqni, mamlakatimiz aholisini qalbi va ongini egallashga qaratilgan tahdidlarga qarshi turishi va ogoh bo'lib yashamog'i uchun auditoriyadan tashqari tadbirlar saviyasini ham zamon talabi darajasida moslashtirmoq zarur. Shunday qilib, jaholatga qarshi ma'rifat asosida kurashish, ma'rifatchilik milliy istiqlol g'oyasining muhim

tamoyillaridan bo‘lib, sog‘lom e‘tiqod, yuksak dunyo qarash hamda mafkuraviy immunitet asoslarini mustahkamlashga xizmat qila oladigan tadbirlar rejasini yaratish zarurdir. Mafkuraviy immunitet va milliy g‘oya haqida prezidentimiz SH.Mirziyoyev O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021yil 19yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillash-tirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi shunday dedi: “Jahon tarixida har bir xalqning avvalo ma‘naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalganini ko‘rish mumkin. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan O‘zbekistonda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega[10].

Markaziy Osiyo mintaqasi strategik jihatdan g‘oyatda qulay joyda joylashgani, yer osti va yer usti boyliklari ko‘p bo‘lgani uchun bu yerda qadim zamonlardan buyon turli davlatlar o‘z manfaatlarini ko‘zlab kurash olib borganlar. Bosqinchi va yovuz kuchlar o‘zlarining g‘arazliy maqsadlariga erishish uchun avvalo bu yerdagi xalqni g‘aflatga solish, bilimsizlik va jaholatda qoldirish yo‘lidan foydalanishga harakat qilingan. Shuning uchun mard xalq o‘g‘lonlari maktablar, ilm-dargohlar, gazeta va jurnallar ochish xalqni ma‘rifatli, bilimli va dono bo‘lishi uchun jonini fido qilganlar.

Bunga XX asrdagi jadidlar yaqqol misol bo‘la oladi. Ularning asosiy maqsadlari inson ongi va qalbida milliy ongini, milliy g‘ururni, ma‘naviyatini va ma‘rifatini uyg‘otish bo‘lgan. Ma‘rifat asosidagi mafkuraviy immunitet bugungi kunda hayotiy zarurat, u xalqimizni yod va zararli g‘oyalar hurujlaridan asraydi, yurtimiz talabalarini sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetkazishda, oliyanob maqsadlarimizda erishishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik mafkurasining O‘zbekistonda bosib o‘tgan yo‘li qiyin va murakkab bo‘ldi. XIX asrning ikkinchi yarimigacha xon va amirlar har qanday ilg‘or mafkurani, shu jumladan milliy mafkurani ham ta‘qib etdilar. O‘lkamiz chorizmning mustamlakasiga aylandi va hur fikr aytish, milliy mafkurani o‘rtaga solish imkoni bo‘lmagan edi. 1917 yildan mustaqillikka qadar O‘zbekiston "Qizil imperiya" qo‘lida qo‘g‘irchoq edi. Marksizm - leninizm mafkurasidan boshqa barcha g‘oya va fikrlar yo‘q qilinar edi. Mard vatan o‘g‘lonlari Muqimiy, Furqat, Qodiriy, U. Nosir, Botu, Sufizoda boshqa milliy ozodlik uchun kurashgan shoirlar yozuvchilari, mutafakkirlari qatl etilib aytgan fikrlari pinhoni qolib ketdi.

«Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan»[10], — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Endilikda O'zbekiston xalqining mafkurasi shakllanib, u kunsayin mazmunan va shaklan boyib bormoqda. Bevosita ta'lim muassasalariva madaniy- ma'rifiy muassasalar mafkuraviy tarbiyaning o'chog'iga aylanmoqda. Insonlarni ayniqsa, talabalarni mafkuraviy tarbiyalashda turli tadbir va anjumanlar o'tkazishda quyidagi vazifalari belgilab berilmoqda.

- O'z mustaqilligimizni yanada mustahkamlash va unga xizmat qilish;
- Mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy- ma'naviyzaminlarini yaratishning fidoisi bo'lish;
- Milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- Oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;
- Ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- Mahalla demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish;
- Umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyo ishlariga intilish va dunyoqarashini shakllantirish;
- Dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini tushuntirish;
- Ma'rifat shaxs aqliy salohiyatini oshirishdagi asosiy kuch ekanligini o'qtirish;
- Huquqiy madaniyatni rivojlantirish;
- Bozor iqtisodiyotining barcha tomonlari va ilmini o'zlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tadbiq etish;
- Mutiylik, boqimandalik, mahdudlik kayfiyati va hissiyotlariga qarshi kurashish;
- Boshqalarni o'tmish sartiqlaridan qutilishiga yordamlashish.

Insonlarni va ayniqsa talabalarni tarbiyalash jarayonida har qanday ilmiy-kashfiyotlarning yaratilishida auditoriyadan tashqari ishlarning sarchashmasi bo'lgan bo'lgan - kutubxonalar faoliyatiga alohida to'xtalish zarur.

Kutubxonahar qanday mamlakatning ilmiy-ma'naviysalohiyatini belgilab beruvchi o'lchovdir. Kutubxonaning ta'lim-tarbiya ishlarini, ta'lim beruvchi muassasalarning o'quv - tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi. Kutubxonamaktab o'quvchilariga, talabalarga, umuman ilm ahliga, xalqimizga mustaqil bilim olishlari, fan predmetlarini o'zlashtirishga, ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga, bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazish imkonini yaratadi.

Talabalarni fikran ezgulikka, insonparvarlikka yo'naltirishda, fikrlarida mantiqiylikni va ijodiy shakllantirishda kitobning xizmati katta. Aks holda, ma'naviybo'shliq, ma'naviyqashshoqliq vujudga kelib, yod va salbiy g'oyalar kishilar hayotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Muayyan muammolarni bartaraf etish uchun talabalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish, ularni o'ziga

ham, atrofdagilarga ham foydali bo'lgan ishlar bilan mashg'ul qilish lozim. Holbuki bugungi kunda prezidentimiz aytganlaridek, ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlartomonidan sodir etilmoqda. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir[9].

Yuqorida ta'kidlanganidek talabalarni foydali ish bilan mashg'ul qilib, ulaning bo'sh vaqtlarini mazmunli ta'minlash, bu borada muntazam an'anaviy tarzda tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish, har xil sanalarga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etish, o'tkir zehnlilar bellashuvi, turli mavzuda bahslar, munozara, ijodiy uchrashuvlar, dam olish kechalari, bayram, ko'rik tanlovlari, to'garaklari, davrasuhbatlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatri, "Ilhom" teatr studiyasi, rus tomoshabinlar teatri shu jihatdan ibratli ishlar qilindi. Birgina, Navoiy nomidagi teatr balet truppasi, AQSH, Malaziya, "A.Hidoyatov" nomidagi teatr truppasi, Angliya, Shotlandiya, Farangistonga safar qilganlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu yillarda o'zbek teatlari sahnasida yangi zamonaviy mavzudagi asarlar namoyon bo'la boshlandi. Namoyish qilingan asarlarda milliy istiqlol g'oya o'z aksini topgan.

Auditoriyadan tashqari ishlarning yana bir talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarida qator teatlarda bebaho xazinamizga aylanib ulgurgan asarlardan bahramand qilish. Jumladan, talabalarga Abul Qosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarining 1000 yilligiga bag'ishlab "Faridun" nomli ikki qismli fojea sahlardan, Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub badiiy jihatdan yaxshilik, chin muhabbat, insofdiyonat ulug'lanib, fisqu-fasot hamda tajovuskorlik keskin qoralangan "Yorqinoy" drammalari namoyish etish, dramaturg Erkin Samandarning "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy drammasini namoyish etish ularda mafkuraviy immunitetni ozuqlantiruvchi manba hisoblanadi. Bunday sarlar albatta bizda nchagina bo'lib ularning mohiyati vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida talabalarni tarbiyalaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak "XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'naviyat qutqaradi".

III.3 Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va madaniy merosdan foydalanish turlari.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga

oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va madaniy merosdan foydalanish albatta muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni uzoqvaqt davomidasaqlashva axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlarni o'lib o'tishga yo'l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yangi sifatli bosqichga ko'tardi.

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo'lgan axborot uzatish usullarining ko'pgina tomonlarini o'zida sintez qilgan zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan Internet kabi hodisalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi hodisalarni o'zida birlashtiruvchi ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotiga ulkan ta'sir o'tkazish quvvatiga ega. Qanday katta kuchga ega ekanini ularga nisbatan «to'rtinchi hokimiyat» atamasi qo'llanilishida ham ko'rish mumkin.

OAVning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq. O'zbekistonda, bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgorigidek, bu voqeabizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvoqarab bo'lmaymiz. Anashunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hechgap emas.

OAVning ta'sir kuchi uning materiallari muayyan auditoriyaga mo'ljallangani bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki auditoriyaga mo'ljallangan materiallarni yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi (kasbkori), milliy, diniy mansublik kabi belgilarga ko'ra farqlash mumkin.

OAV ijtimoiy hayotdagi muayyan voqea, hodisa yoki muammo yuzasidan axborotni etkazibberish orqali, uning jamiyat uchun ahamiyati, keng aholi qatlamlari uchun dolzarbligini ta'kidlaydi.

Axborot oqimi hajman keng, mazmunan rang-barang, uzatilishga ko'ra tezkor bo'lgan bugungi kundabu jarayon yanada chuqurlashib bormoqda.

OAV muayyan xabarni uzatish yoki biror bir g'oyaning mohiyatini ochib berish orqali uningo'zlashtirilishiga, kishilar ongida barqaror tasavvurlar, obrazlar, qadriyatlarning shakllanishiga hamko'maklashadi. Sodda qilib aytganda, u ijtimoiy fikrga doimiy va izchil ta'sir o'tkazish, uni shakllantiraolish imkoniyatiga egadir.

OAV va kommunikatsiya texnologiyalari rivoji hozirgi davrdagi g'oyaviy kurashga o'zigaxoslik bag'ishlamoqda. Bu jumladan, ma'lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan etkazilishidayoki ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma'lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatdaodamlarning idrokini susayishtirishga intilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslik jamiyata'zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamini yashirish, ularni muhokama ob'ektigaaylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko'rinadi.

Targ'ibot boshqa narsa, yangilik esa mutlaqo boshqa narsa. Inglizcha yoki amerikacha yangiliklar bo'lmaydi, u xalqaro tovardir. Bugun mutlaqo boshqachasifatiy holat yuzaga keldi. Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo'ladi. Ammo kishilar diqqatiga OAV muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e'tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma'lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu OAV ning ijtimoiy fikrni kerak bo'lgan shaklga yo'naltira olishi, u bilan manipulyasiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to'qib chiqarilgan axborotni xaqiqat sifatida taqdim etish,voqelikni biryoqlama taqdim etish yoki buzib ko'rsatish, reallikni adekvatqabul qilishga yordam beradigan muhim, kerak elementlarni yashirishga alohidae'tibor berilishini ta'kidlash zarur.

OAV muayyan axborotni etkazish, u yoki bu masalaga diqqatni qaratish orqali fuqarolarni uning atrofida birlashishlariga xizmat qiladi, turli ijtimoiy guruh vakillariga o'z fikrlarini ifoda etish, fikrdoshlarni topish, yagona maqsad va e'tiqod yo'lida yakdillik bilan harakat qilishga zamin yaratadi.

Afsuski, zamonaviy voqelik OAVning bu funksiyasi faqat ijobiy mohiyatga emasligini ko'rsatmoqda. OAV g'araz maqsadlarga xizmat qilganda bu yaqqol ko'rinadi.SHu nuqtai nazardan qaraganda, nemis olimlarining muhim axborotga ega bo'lish hokimiyatga ega bo'lish; muhimaxborotni nomuhimidan ajrata bilish

yanada ko'proq hokimiyatga ega bo'lish; muhim axborotni o'ziga ma'qul bo'lgan ruhda tarqata olish imkoniyatiga ega bo'lish yoki u haqida ko'pchilikka hech narsa ma'lum bo'lmasligiga erishish ikki karra hokimiyatga ega bo'lishni anglatadi,-degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Ma'lumotlarga ko'ra, 30 minutdan keyin axborotning 60 foizi, kun oxiriga kelib 40 foizi, hafta oxiriga kelib bor yo'g'i 10 foizi esda qoladi. SHundan kelib chiqib, ijtimoiy fikrga ta'sir o'tkazishga qaratilgan, turli g'oyaviy mazmun bilan sug'orilgan axborotlarni vaqti-vaqti bilan takrorlab turishgaham alohida e'tibor berilayotganini ta'kidlash zarur.

OAV bu so'z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o'quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. SHu nuqtai nazardanqaraganda, hozirgi davrda OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o'sganini qayd etish lozim.

OAVning qamrov darajasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi ham uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Axborot inqilobining hosilasini juda katta axborotni qayta ishlash, xohlagan mamlakatkutubxonasida saqlanayotgan kitoblardan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ham ko'rishmumkin. Radio, televidenie, internet eng so'nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyogama'lum qilish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishigazamin yaratmoqda.

Global miqyosdagi ijtimoiy va madaniy-ma'naviy maydon shakllanayotgani madaniyatlararo sivilizatsiyalararo aloqalarning mustahkamlanishiga yo'l ochmoqda.

YUqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shaklva mazmundagi axborotlar inson va jamiyathayoti, taraqqiyoti vakamolotiningzaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo'g'inigaaylanganini ko'rsatadi. Xususan, radio, televidenie,gazeta va jurnallarsiz harqanday ma'lumotli kishiham murakkab ijtimoiy-siyosiyva madaniy jarayonlarda to'g'ri yo'l topa olishi qiyin. OAV esa, kishilargao'zining individual tajribasi doirasidan chiqishgava keng qamrovli jarayonlar mohiyatini hisqilishga yordam beradi.

OAVodamlarongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq atvorlariga ta'sir ko'rsatishda kattaimkoniyatlargaega.OAVningbugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi vako'laming keskin darajada o'sishiga olib keldi.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir vatazyiqning o'ziga xosligi shundaki u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalgaoshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmani yo'q qilmagan, kattaxarajatni talab

qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakataraholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqatkishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularningregulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta'siro'tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televidenie fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilanfoydalanishmoqda.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqatkompyuter tarmog'i, balkikosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal , kabel televideniesi , telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda 1 milliard 250 million kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkurfikrlarning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Ana shunday vaziyatda ayta olishimiz mumkinki bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigankichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zgako'rinmaydigan, lekin zararinihech narsa bilan qoplab bolmaydiganulkanziyon etkazishimumkin.

Mamlakatimiz Prezidentining bunday ogohlantirishlari jiddiy asosga ega ekanini internetkeltirib chiqarayotgan bir qator salbiy jihatlarda ham yaqqol ko'rinadi. Unda o'z-o'zinio'ldirishningoson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9mingdan, erotik mazmunga ega 4mingdan ziyod saytlarningmavjudligi ham buning isboti bo'la oladi.Mutaxassislaro'tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjudsaytlarning taxminan 12 foizi pornografik xaraktergaegaligini ko'rsatadi. Mavjud maxsus dasturlarinternet tarmog'idagi pornografiyaning faqat90 foiziniginafiltrlaydi, ya'ni kompyuterdanfoydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo'lishi yo'lga to'siq qo'ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografikmazmungaegasaytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat'i nazar, ularning diqqatini torta oladi. Jumladan,tadqiqotlarda 42 foiz bolalar vao'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushishi qayd qilinadi.

SHuningdek,mutaxassislarma'lumotlariga ko'ra,internetorqali tarqatiladigan kompyutero'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41foiz jangari (turliotishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esao'yin qahramoni o'zmaqsadigaetishish uchunshunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zibosh maqsad hisoblanadi.

Internet rivoji,u berayotgan imkoniyatlar o'ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 15 foizi ungamustahkam bog'lanib qolgan.

Manfaatdor ijtimoiy-siyosiy kuchlar internetdan g'araz maqsadlarda ham ustalik bilan foydalanilayotganini ta'kidlash zarur. Mazkur masalaga to'xtalib shuni aniq aytish mumkinki axloqiy buzqlik vazo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamnitashvishga solmay qo'ymaydi.

Bu inson hayoti va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan va butun jahonda bamisoli baloqazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaliginiko'rsatadi. Bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday hodisalarni faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlashningo'zi yetarli emas. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikuchun avvalambor ezgu insoniy g'oyalar bilan xalqimizningongu tafakkurini va saviyasiniyuksaltirish, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasidabellashuvga qodir bo'lishimiz shart.

OAVning mafkuraviy jarayonlar rivojigao'ziga xosvakuchlita'sir o'tkazayotganini quyidagimisolda ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda internet ommaviy axborotva kommunikatsiyatiziminiengtez rivojlanib borayotgan bo'g'ini hisoblanadi. Uning g'oyaviy kurash va targ'ibotningasosiy maydoniga aylanganini ekstremistik, shu jumladan, diniy ekstremistik qarashlarni targ'ibqilishdagi o'rni misolida ham ko'rish mumkin.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagi saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamdaijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma'lumotlarga keng o'rin beriladi. Jumladan, terrorchilarkuch ishlatish yo'ligao'tishga go'yoki majbur bo'lganlarini asoslashga, terror va qo'poruvchilikharakatlarini ma'naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi. Bundo'zlarini ozodlik kurashchilari, partizanlar, qarshilik ko'rsatuvchilardebatagan holda tinchlik tarafdori qilib ko'rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo'l bilan harakat qilish lozimligini asoslashga intilish keng tarqalgan.

Ular o'z saytlarida hukumat tarafidan qo'llanilayotgan usullarning vahshiyiligini yoritishga hamalohida e'tibor beradilar.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning birvaqtning o'zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo'lgan yo'nalishda berib borilishi, ularning faoliyatni oqlovchi, qahramonligini kuylovchi qo'shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta'sir quvvatini oshirishgaxizmat qiladi.

Bunday saytlar, bir tomondan, terrorchilik tashkilotining faol aʼzolariga, ikkinchi tomondan, terrorchilarning asl maqsad muddaolarini bilmaydigan, ularni kurashchilar, oppozitsiya va shu kabiijobiy maqom hamda sifatda qabul qilishga oʻrganganodamlarga moʻljallangan boʻladi. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarma-qarshi (dushman) tomonga psixologik taʼsir koʻrsatish, qoʻrquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlarga oʻzlanadi. Hozirda tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshidoimo sergak, ogoh va hushyor boʻlib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuquroʻylangan, puxta ilmiy asosda tashkiletilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan maʼnaviy tarbiya bilan javob berish mumkin”.

Ana shunday sharoitda axborot xavfsizligini taʼminlash uchun virtual olamda ham faol harakatlar olib borish zarur. SHundan kelib chiqib, koʻpgina mamlakatlar axborot sohasida ustuvorlikni taʼminlashni strategik maqsadlarga erishish, milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni taʼminlashning asosiy yoʻllaridan biri sifatida eʼtirof etmoqdalar.

Globalashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining oʻrni haqida gap ketar ekan, masalaning yanabir muhim jihatiga eʼtibor qaratish lozim. Yoshlarimiz nafaqatoʻquv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, Internet kabivositalar orqali ham rang-barang axborot va maʼlumotlarni oʻlmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalari-mizning ongini faqat oʻrab-chirmab, uni oʻqima, bunikoʻrma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilanoʻrab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizgaham toʻgʻri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini oʻz oldimizga qatʼiy maqsad qilib qoʻyganmiz va bu yoʻldan hech qachon qaytmiz mumkin emas.

—Kimki axborotga ega boʻlsa, u, dunyoga egalik qiladi,- degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan eʼtirof etilgan. SHunday ekan, bugungi kunda har bir fuqaromizda axborot oʻlmoq imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ana shunday yondashuvdan kelib chiqib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy texnik uskunalarga, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega boʻlgan, yangicha mazmun-mohiyat kasbetadigan ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi.

1991 yilda respublikamizda bor-yoʻgʻi 1 ta teleradiokompaniya mavjud edi. Maʼlumotlarga koʻra, hozirda mamlakatimizda 70 dan ziyod teleradio studiya, 29 ta kabel televideniesi faoliyat koʻrsatmoqda.

O'zbekiston matbuotining 40 foizdan ortig'i nodavlat nashrlaridir. Jami 612 ta gazetadan 11tasi,165jurnaldan 2tasi xususiy sektorga tegishlidir.

Ommaviy axborot vositalari va ma'naviy-g'oyaviy tahdidlar haqida gap ketar ekan, eng avvalog'araz maqsadlarda amalgaoshirilayotgan tashqi g'oyaviy ta'sirlar,mamlakatimizhayotida sodirbo'layotgan o'zgarishlarga xolis yonda-shuv bayrog'i ostida berilayotgan bir yoqlama axborotlar vabaholarning oldini olish, ularga qarshi ob'ektiv ma'lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadriji yetkazib berish masalasi dolzarbbo'lib turganini alohida qayd etish zarur. SHunday vaziyatda har xilshaklushamoyilda chiqayotgan bunday urinishlarga qarshi xalqimiz hayotida sodir bo'layotgan ijobiyo'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, turli ijtimoiy toifa va guruhlarining qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritish, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshima'rifat bilan kurashish har qachongidan ham hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari oldidaO'zbekistondagi vaziyat,turli sohalarda erishilgan yutuqlar bo'yicha ob'ektiv axborotlarni jahon jamoatchiligiga vaqtida yetkazib berishhamda mamlakatdagi real voqelikning undan tashqarida ham to'g'ri va o'rinli qabul qilishlariga erishishdekmuhim vazifa borligini ham ta'kidlash zarur. Bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan bu sohadagi faoliyatimizni xalqimizning ma'naviyehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytiri-shimiz, yangi bosqichga ko'tarishimizzarur.

Aholining xolis va haqqoniyaxborotga egabo'lishinita'minlash, yurtdosh-larimizning madaniy saviyasi, bilim va dunyoqarashinioshirish,qadimiy an'analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylashva rivojlantirish, shu bilanbirga,fuqarolarimiz ongidademokratik qadriyatlar,grajdanlikpozitsiyasinishakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashniommaviy axborot vositalari oldida turgan yana bir muhim vazifa sifatida qayd etish mumkin.

Inson kundalik hayotida turli narsalardan foydalanadi. Inson ularni iste'mol qilar ekan har gal muayyan tartib-qoidalar, sodda qilib aytganda, madaniyatga rioya qiladi. Aytaylik, kiyim-bosh kiyishyoki oziq-ovqat iste'mol qilishning o'ziga xos madaniyati bor. Bugungi kunda axborot ham iste'molqilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson yoki alohida olingan jamiyat o'zida uni iste'mol qilishmadaniyatini tarbiyalashi lozim.

Xo'sh, axborot iste'moli madaniyati deganda nimani tushunish kerak? Axborot iste'molmadaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlarini, kamoloti hamda jamiyattaraqqiyotiga xizmatqiluvchi ma'lumotlarni

qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etish xizmatqiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun nima qilishi zarur? Buning uchun u yokibu axborotni eshitar ekan, har bir inson hech bo'lmaganda —Bu axborotni kim uzatayapti?, —Nimauchun uzatayapti? va —Qanday maqsadda uzatayapti? degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asoslijavob topishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. SHakllangan axborotiste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlorganisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashgaxizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari – engasosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir.Ommaviy axborot vositalari - axborotni kengjamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi vositalarga nisbatan ishlatuvchitushuncha.Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayoti,fuqarolarfaoliyatigata'siri nihoyatdakuchliligidan ularga nisbatan «to'rtinchi hokimiyat» atamasi ham qo'llanadi.

Ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi ,muhim tadbirlarningtashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi.Aynanommaviyaxborotvositalariorqalimilliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya vademokratik tamoyillar targ'ib-tashviqqilinadi.Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'zerkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborotvositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchi unda beriladigan materiallarning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtainazardan qaraganda, berilayotgan materiallarning tezkorligiga, tahliliylik darajasiga alohida e'tiborberiladi.

Ommaviy axborot vositalarida materiallar ayni paytda qanday auditoriyaga mo'ljallangani bilanham ajralib turadi hamda iste'molchining yoshi, jinsi bilim darajasi, dunyoqarashi, milliy diniymansubligi kabi omillarini hisobga olgan holda tuziladi.

Q.Nazarovning fikricha, tarqalganlik doirasi, qamrov darajasiga qarab mahalliy, umummilliy, mintaqaviy ommaviy axborot vositalarini farqlash lozim bo'ladi. Ayni paytda bugungi kunda globalmiqyosda faoliyat ko'rsatayotgan va ta'sir doirasi katta bo'lgan telekanallar va axborot agentliklariborligini ham ta'kidlash zarur.

Ijtimoiy hayotga ta'siri haqida gap ketganda, ommaviy axborot vositalari kuchi jamiyat hayotidagidolzarb masalalarni ko'tarib chiqishida, uning samarali echimlarini topishga urinishida, mavjudmuammolarga jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilishida, davlat organlari faoliyatini nazorat qilibborishida ko'rinadi. SHu ma'noda u xalqni hokimiyat bilan bog'lovchi vosita, mexanizm sifatidachiqadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy texnik uskunalar, keng va chuqur fikrlovchikadrlarga ega bo'lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalari faoliyatiuchun hamma sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining huquqiy poydevoribarpo etildi. O'zbekiston Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, qonunga muvofiqish yuritishi, senzura yo'l qo'ymasligi (67-modda) belgilab qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimizdaxususiy ommaviy axborot vositalari faoliyat yurita boshladi. Dunyoning turli mamlakat-laridan mustaqil ravishda axborotlar olish imkoniyati yuzaga keldi.OAV faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi.

Haqiqatdan ham tabiatan nozik ta'b va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi va san'ati keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. Asrlar osha avloddan-avlodga, ustoz-shogirdlik tizimi bilan rivojlanib kelganligi tufayli musiqa merosi va marosim kuy, qo'shiqlaridan tortib murakkab doston, ashula va katta ashula, maqom yo'llari davrma-davr saralanib kelgan.

Davlatimizning qo'llab-quvvatlashish tufayli mamlakatimizda 37 ta professional teatr va teatr studiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Milliy istiqlol g'oyasining ta'siri, mustaqillik tufayli sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotdagi tub o'zgarishlar teatrlarsahnasida o'zining yorqinifodasini topayotganligi, bu o'zgarishlar bilan bog'liq tendensiyalar sahna hayotida ham ko'zga tashlanayotganini alohida ta'kidlash joiz.Teatr san'ati sohasidagi ijodiy jarayon ayni yangilanayotgan hayotimizning ehtiyojlariga to'la mos keladi.

"Chimildiq", "Tirik koinot", "Sohibquron", "Kunduzgi kechalar" asarlari asosida sahnalashtirilgan sahna asarlari bugungi teatr san'atimizning yutug'idir.

Asrlar davomida xalqimiz qalbidan mustahkam o'rin olib uning jon ozig'i bo'lib kelgan mumtoz maqomlar hozirda shakllanayotgan milliy mafkuramiz uchun ham bebahoma'naviyqadriyatlardan ekanligini unutmasligimiz kerak. Binobarin ularning ommaviy tadbirlarga, radio, televideniya vositalaridan, auditoriyadan tashqari ishlarlarda keng va malakali targ'ib etish ishiga yanada jiddiyroq e'tibor berish zarur.

OAVva ularda olib borilayotgan tadbirlar musiqa san'atida teran milliylik xalqchillik, taraqqiyotparvarlik yo'lidan borib, milliy mafkura va milliy vatanparvarlik, talabalarongiga tobora chuquroq singdirish, musiqa san'ati

yoʻnalishlari va ularning targʻibotiga zamon taqazo etuvchi keng yoʻl va imkoniyatlar ochib berish zarurligini talab qilmoqda.

1996 - 2018 yillar davomida Madaniyat vazirligi, Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy metodik markazi koʻplab koʻrik tanlovlar, bellashuvlar, koʻrgazmalar, xalq isteʼdodlarining katta sahnaga olib chiqishga alohida eʼtibor qaratdi.

Asrlarga tengdosh navolar turkumida xalqimiz orasida kamayib ketgan eng qadimgi noyob cholgʻu sozlaridan ud, sato, qonun, tambur, qoʻshnay, suray kabi milliy cholgʻu asboblari ijrochilarining respublika tanlovida "Barxayot siymolari" turkumlaridan xalq artisti Xoji Abduaziz Abdurasulov, YunusRajabiy, Maʼmurjon Umarov, Komiljon Otaniyozov asarlari ijrochilarining koʻrik tanlovi oʻtkazildi. Ayni paytda milliylik qadriyatlariga shu jumladan, madaniy merosga amaliy asosda toʻgʻri yondashishning asosiy tamoyillariga xos mezonlar, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchilik, taraqqiyotparvarlikdir.

Shu mezonlarning har birida milliylik va umuminsoniylik mujassamlashgan. Maʼfuraviy immunitet butun jamiyat, butun millat uchun xizmat qiladi. Shu boisdan maʼfuraviy immunitetni xalqimiz ongi, qalbiga singdirish borasida quyidagi asosiy vazifalarga eʼtibor berish zarur.

- Maʼnaviyqadriyatlar ilm-fan taraqqiyot yutuqlari bilan boyitish. Din va tarixiy sohtalashuvga ulardan siyosiy maqsadga foydalanishga yoʻl qoʻymaslik;

- Yurtdoshlarimizning maʼnaviyyangilash va islohatlar jarayonini faol mustahkamlashga aylantirish;

- Kuch va salohiyatni ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bagʻrikenglikka xizmat qildirish zarur;

- Ijtimoiy qatlam, siyosiy kuch harakatlarining intilishlari uygʻunlashuvchi gʻoyalar, vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, yurtdoshlarimiz oliy maqom maqsadiga butunlay erishishi;

- Milliy qadriyat ona tilini, madaniyatini, diniy-eʼtiqodi, urf-odati va anʼanalarini hurmat qilishdir.

Respublikamiz muzeylarida ham koʻpgina yirik koʻrgazmalar tashkil etildi. Jumladan, YUNESKOning Parijdagi shtab kvartirasida 1996 yil 21-26 aprel kunlari boʻlib oʻtgan "Temuriylar davri fan va madaniyati ravnaqi" xavftaligi doirasida oʻtkazilgan sanʼat asarlari va tarixiy ashyolar koʻrgazmasi tashkil etildi. Oʻzbekiston va Germaniya oʻrtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish maqsadida Davlat sanʼat muzeyida buyuk nemis rassomi va grafik asarlari ustasi Alberxit Duyuraning sanʼat asarlari koʻrgazmalari tashkil etildi. Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarda ham koʻpgina qiziqarli tadbirlar oʻtkaziladi. Diyarli barcha muassasalarda Alisher Navoiy tavalludiga bagʻishlangan kutubxonalar konferensiyalari, Navoiyxonlik kechalari, kitob koʻrgazmalari tashkil etilgan.

Yurtdoshimiz rahnamoligida "Inson manfaatlari yili", "Oila yili", "Ayolar yili", "Ona va bola yili", "Sogʻlom avlod yili", "Qariyalarni qadirlash yili" deb nomlanishi munosabati bilan auditoriyadan tashqari ishlarlarda olib borilayotgan tadbirlar ham bunga misol boʻla oladi. Respublikamiz madaniy- maʼrifiy muassasalarida Toshkent, Andijon, Fargʻona, Xorazm viloyatlarining bir qator madaniyat uylarida "Ayol muqaddas", "Ayol oila tayanchi", "Oila muqaddas qoʻrgʻon", "Oila va mahalla" deb nomlangan kechalar madaniyat muassasalarida tashkil etilgan.

Endigi paytda insonlar va ayniqsa talabalar tarbiyasida auditoriyadan tashqari ishlarlarda kundagi talab va takliflar tavsiyalar kiritib yanada izchil olib borsa, samarali natija beradi:

- Talabalarning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ularning boʻsh vaqtlarini samarali tashkil etish;

- Oʻqituvchi va murabbiylar ijodkorligini taʼminlash kasb mahoratlarini oshirishning samarali yoʻllarini izlash;

- Qishloq talabalari uchun taʼlim, madaniy- maʼrifiy muassasalarning zamonaviy shakllarini keng joriy etish;

- Talabalar uchun dunyoqarashni kengaytiradigan qiziqarli telekoʻrsatuvlar, radio eshittirishlar muntazam tashkil etish, kino koʻrsatuvlar, kutubxonalar boʻyicha bellashuvlar muntazam ravishda uyushtirish;

- Auditoriyadan tashqari ishlarlarni eng zamonaviy texnika va texnologiya bilan taʼminlash;

- Taʼlim- tarbiya ishlari shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;

Talabalar jamiyatida roʻy berayotgan oʻzgarishlarni oʻzgacha qilib oladilar, qiyinchiliklarni vujudga kelganda ehtirolarga beriladilar. Shu bois OAV asosiy vazifalarni talabalarni toʻgʻri yoʻlga boshlash, talabalarga boʻlgan eʼtiborni kuchaytirishdan iboratdir. Talabalar maʼnaviy tarbiya muammolarini auditoriyadan tashqari ishlarlarning asosiy ishi boʻlib, ungacha burch va maʼsuliyat nuqtai nazardan yondoshmoq kerak. Shundagina yurtboshimiz taʼkidlaganidek, maʼnaviy va jismoniy sogʻlom avlodni shakllantirishga boʻlgan va oʻz oldimizdagi qoʻyilgan maqsadlarga erishamiz. Hozirgi paytda boʻsh vaqtning shov beznes, kompyuter oʻyinlari, moda, sport, boʻsh vaqtning zidli boʻlgan modellarni doim ham qoʻshib olmaydigan koʻplab xorijiy modellari baʼzan mamlakatimizda ham milliy mafkurani faol surib chiqarmoqda. Ular talabalar muhitida, ayniqsa oʻrnashib qolmoqda, ijtimoiy ahamiyatga ega boʻsh vaqtning oʻrnini notabiiy bosuvchiga aylanmoqda.

Bu holat shakllantirilayotgan milliy mafkurani xalqimiz ongiga muvaffaqiyatli singdirish uchun bugungi kunda auditoriyadan tashqari ishlarlar

talabalarni tarbiyalashning muhim omiliga aylanishi hayotiy zarurligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. OAV faoliyati faqat tijorat asosiga qurilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Bugundan boshlab kutubxonalar, axborot resurs markazlari, teatr, madaniyat va aholi dam olish markazlari, istirohat bog‘lari, saroy va muzeylar va boshqa muassasalarning imkoniyatidan to‘liqroq foydalanish, tegishli tadbirlarni ishlab chiqish hamda hayotga tadbir etish zarur. Turli uchrashuvlar, davra suhbatlari, munozaralar o‘tkazish, aholi keng ommasiga milliy istiqloq mafkurasi mohiyatini tushuntirib beruvchi metodik adabiyot, plakatlar chiqarish kerak.

-Shaxs mafkuraviy yetukligining asosiy me‘zoni o‘zi mansub bo‘lgan millat va xalq tomonidan erishilgan yutuqlarni o‘zlashtira olish, ulardan faxrlanish, shuningdek, millat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi yo‘lida mehnatqilish, kurashishda namoyon bo‘ladi. Talabalar ma‘lum muddatdan so‘ng faol ijtimoiy mehnat hamda yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida ishtirok eta boshlaydilar. Bu esa, ma‘naviy-intellektual jihatdan yetuk mutaxassisning mafkuraviy immunitet shakllanganligi bilan o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishini taqozo etadi.

-Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun mutaxassisning yuksak darajadagi milliy iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir, madaniyat muassasalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish masalasining zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligini amalga oshirilgan tadqiqot natijalari yaqqol tasdiqladi.

-Bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish madaniyat muassasalarida ishlayotgan har bir xodimning mafkuraviy immunitetning mazmuni, uni talabalarda shakllantirish imkoniyatlari, bu sohada ziddiyatlarni bartaraf etish yo‘llari, shakl, usul va metodlari bilan qurollangan bo‘lishini taqozo qiladi. Shuning uchun ham kuzatishlarimiz natijasida talaba-talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning mazmuni, vosita, shakl, usul va metodlarini belgilash, bu sohada mavjud bo‘lgan tarixiy tajribalarni umumlashtirish nihoyatda dolzarb ekanligiga ishonch hosil qildik.

-talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri - ular o‘rtasida keng ko‘lamli ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish asosida ularda yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlar, jumladan, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish yo‘lidagi barcha imkoniyatlardan samarali, unumli foydalanish hisoblanadi.

- OAV talabalarda mafkuraviy immunitet va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy omillaridan biri shaxslararo munosabatlarini vujudga keltiruvchi ko‘pqirrali faoliyatdir. Milliy istiqloq tarbiya talabalarning maqsadiga muvofiq tashkil qilingan amaliy faoliyat shakli deb tushunilishi shaxsning o‘zligini

anglash, g'ururlanish, iftixor tuyg'usining imkoniyatlarini aniqlash zaruratini tug'dirdi.

- Aynan mana shu davrda talabalarda barqaror ideallarni shakllantirish, hayotiy maqsadlarni belgilash uchun qulay obektiv va subektiv omillar yuzaga keladi. Ularda xalqning o'tmishi, yutuqlarini bilish, bugungi kunda o'z o'rni, mavqei va milliy mansubligini chuqur anglab olishga intilish kuchayadi. Talabalar omaviy axbot vositalari orqali jahon va milliy madaniyat yutuqlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

XULOSA

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Ajdodlarimizning donishmandlik an'analari amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqda, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqda. Jamiyatda siyosiy faollik ortib borib, barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda salohiyat va imkoniyatimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarni ham tanqidiy o'rganilmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati keng jamoatchilik tomonidan nazorat qilinib, fikr va mulohazalar ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borilmoqda. Shu yo'lda yoshlarda milliy mafkuraning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirishni eng muhim vazifa sifatida belgilab olmog'imiz lozim. Bu yo'lda albatta tinmay izlanib, tadqiqotlar olib borib, azaliy qadriyatlarimizni mujassamlashtirgan milliy mafkura va mafkuraviy immunitetni shakllantirmog'imiz darkor. Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'liqda, deb bilgin", degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor o'z taqdig'ini topdi.

Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi. Mafkurabuxalqning, millatning o'tdayonmaydigan, suvdacho'kmaydigano'lmase'tiqodidir.

Mafkura muayyan falsafiy, diniy ta'limotlar asosida yaratiladi, ma'lum ilmiy qarashlar, ahloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkura o'z mohiyati va ta'sir kuchiga ko'ra, jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo'lib yuborishi, davlatning jahondagi obro'yi va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko'tarishi yoki tanazzulga duchor etishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytishimiz kerakki, har bir xalq o'zining kimligini bilishda, turli xil yod qarashlar va mafkuralarga qarshi turishida mafkuraviy immunitet lozim.

Milliy mafkura O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidan, e'tiqodidan jinsidan qat'iy nazar barcha O'zbekistonliklarning manfaatlarini ifodalay bilishi kerak. Mafkuraviy immunitet jamiyatning ma'naviy hayotini yuksalishiga to'siq bo'luvchi turli illatlarni oldini olishda katta ahamiyatga egadir. Mafkuraviy immunitetning jamiyat hayotini yuksaltirishga xizmat qiladigan yetuk avlodni tarbiyalab berishdagi o'rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun ham mafkuraviy immunitetning asosiy vazifalaridan biri barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalashdir. Mafkuraviy immunitet har bir shaxsning o'zligini erkin namoyon etishga, ma'naviy kamolotga erishish yo'lida shart-sharoit bo'lib xizmat qilishi lozim.

Bo'lajak tarbiyachilarmizni mafkuraviy immunitetini ozuqlantirishda, xavf-xatarlar, tahdidlar, ma'naviyatni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday salbiy ta'sirlarga qarshi kurasha oladigan **mafkuraviy immuniteti mustahkam** kuchli shaxslarni shakllantirish bugunning dolzarb mavzusi sifatida qaralib, shu yo'lda har bir talaba yoshlar o'qib o'rganishi, izlanishi, doimo kreaktiv fikrlay oladigan, yurt ravnaqida o'z hissasini qo'shmog'i kerak.

Shaxs mafkuraviy yetukligining asosiy mezoni o'zi mansub bo'lgan millat va xalq tomonidan erishilgan yutuqlarni o'zlashtira olish, ulardan faxrlanish, shuningdek, millat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilish, kurashishda namoyon bo'ladi.

Talabalar ma'lum muddatdan so'ng faol ijtimoiy mehnat hamda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida ishtirok eta boshlaydilar. Bu esa, ma'naviy-intellektual jihatdan yetuk mutaxassisning mafkuraviy immunitet shakllanganligi bilan o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish ko'nikmalariga ega bo'lishini taqozo etadi.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun mutaxassisning yuksak darajadagi milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir, madaniyat muassasalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish masalasining zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligini amalga oshirilgan tadqiqot natijalari yaqqol tasdiqladi.

Talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri - ular o'rtasida keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish asosida ularda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, jumladan, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish yo'lidagi barcha imkoniyatlardan samarali, unumli foydalanish hisoblanadi. Talabalarda barqaror ideallarni shakllantirish, hayotiy maqsadlarni

belgilash uchun qulay obektiv va subektiv omillar yuzaga keladi. Ularda xalqning o'tmishi, yutuqlarini bilish, bugungi kunda o'z o'rnini, mavqei va milliy mansubligini chuqur anglab olishga intilish kuchayadi. Talabalarning milliy madaniyat yutuqlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.:O'zbekiston. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni -T.: “O'zbekiston”, 2020 yil 23 sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: “O'zbekiston”, 2017 y., - 592 b
4. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T.: “O'zbekiston” 2016 yil
5. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviyolamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 242b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
9. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqida. 2017 yil 20 sentabr (<https://www.gazeta.uz>)
10. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>)
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. –T.: 2020 y.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqidan.T.: 2021 y.
13. Abu Ali Ibin Sino. Hikmatlar. O‘zbekiston.1980.
14. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: adabiyot va san‘at, 1993 y.
15. AkbarovN. Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish. -T.: "Fan" nashriyoti. 2007 y.
16. Aliqulov X., Omonova G., Jomiy va Dovoniy ta’lim-tarbiya haqida. - T.: O‘qituvchi, nashriyoti, 1981 y.
17. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiyat.-T.:, "Akademiya" 2000 y.
18. Asqarova O‘ M. Xayitboyev M. Nishonov M.S “Pedagogika” T.: Talqin 2008 y. 290 bet
19. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq (Matn) / A. Avloniy/ - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 96 b.
20. Azizxo‘jayev A., Umarova H., Qo‘chqorov R."Globallashuv va axborotlashgan jamiyat muammolari" -T.: "Akademiya" 2001y.,-94.
21. BegmatovA., Rustamova R."Milliy mafkura targ‘iboti va madaniy- marifiy tadbirlar" -T.: "Ma’naviyat" 2007 y. -b.46.
22. Falsafa: qomusiy lug‘at. -T.: "Sharq" 2004. -b. 121.
23. G‘oyibnazarovSh. "Ommaviy madaniyat".-T.: "O‘zbekiston" 2012 y.- b.107.
24. Haqiqat manzaralari -T.: Yangi asr avlodi, 2002 y.
25. Hasanboyeva O. va boshqalar. Pedagogika tarixi. -T.: 2001.-b.84. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. - Toshkent, 2008.
26. Ibragimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. – T.: O‘zbekiston, 1996 y.
27. Ibragimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. – T.: O‘zbekiston, 1996 y.
28. ImomnazarovM., EshmuxamedovaM. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. -T.:, 2001y.
29. Jo‘raev U., Saydjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. -T.: «Sharq», 1998 y.
30. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2008y.
31. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T.7. -T.: «O‘zbekiston», 1999 y.
32. Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz». T.: «O‘zbekiston» 1999 y.
33. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» T.: «Ma’naviyat», 2008 y.

34. Ma'naviyat nazariyasi va tarixi. -T.: 2002y.
35. Mahmud Qashg'ariy. Devoni lug'ati turk. -T.: "Fan" 1982 y.
36. MahmudovT.. Mustaqillik va ma'naviyat. -T.: "Sharq" 2001y.
37. Milliy goya: targibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. –T.: Akademiya, 2007 y.
38. Milliy istiqlol g'oyasi. O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim bakalavr boskichi uchun darslik. - T.: Akademiya» nashriyoti, 2005 y.
39. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. T.: «O'zbekistan», 2001, 8-b.
40. MirzayevT., MusoqulovA., Sarimsoqov B. "O'zbek xalq maqollari" -T.: "Sharq", 2005 y.
41. Musayev O.Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar. -T.: "Ijod dunyosi" 2004 y.
42. Musurmonova O. Ma'naviyqadriyatlar va talabalar tarbiyasi .-T.: 1996. y.
43. Nazarov Q.Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. -T.:, 1998 y.
44. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom, 65-bet.
45. O'zbek tilining izohi lug'at. -T.: "Ozbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 558 b
46. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- Toshkent, 2000-yil
47. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov;— Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. – 190 bet.
48. QamarA. Ma'naviyat nazariyasi va tarixi. T.:, 2002y.
49. Qoraboyev U."O'bek xalqi bayramlari" -T.: "Sharq" 2002 y. -B. 11.
50. Qoraboyev U., SoatovG'. "O'zbekiston madaniyati",-T.: "Tafakkur bo'stoni" 2011. y.
51. QoraboyevU.. Madaniy tadbirlar -T.: "Sharq" 2003 yil.
52. Qosimov B. Milliy uyg'onish. -T.:, "Ma'naviyat", 2003y
53. QuronovM., JumayevSH., O. Safarov. Tadbir samaradorligining o'n sharti. -T.: 2006 y. - 24 b.
54. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya – T.; Fan. 1995y. 118b.
55. Қуроноу М. Миллий тарбия ва ёшлар [Матн] / Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. - Тошкент: «Камалак» нашриёти, 2016.112 б.
56. SafoOchil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari.-T.:, 1997
57. Suyunov A. "Ommaviy madaniyat" ko'lankasi yoxud ma'naviytaxdidlar haqida.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san 'ati" 2010 y.,
58. To'xtaxodjaevaM. va boshqalar. Pedagogika -T.: 2010 y.

59. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. -T.: "Ma'naviyat", 2006 y.
60. Xajiyeva M. O'zbekistonda tolerantlik jarayoni. -T.; 2008 y.
61. <https://president.uz/uz/lists/view/3864>
62. [http:// www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) O'zbekiston ta'lim portal
63. [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz) hukumat portal
64. [http:// www.uzbekteatr.skm.uz](http://www.uzbekteatr.skm.uz) - "O'zbekteatr" ICHB sayti
65. [http://www. teatr. uz](http://www.teatr.uz) - O'zbek Milliy Akademik drama teatri sayti

O.R.ORTIQOV

TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH

MONOGRAFIYA

*Muharrir:**Texnik muharir:**Musahhih:**Sahifalochi:**G'.Murodov**G.Samiyeva**M.Raximov**M.Arslonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –
maketdan bosishga ruxsat etildi: 12.04.2021. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. «Palatino Linotype» garn. Ofset bosma
usulida. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tabog'i 9.5 Adadi 100.
Buyurtma № 28.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiton Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46